
№4 2026

ISSN-L: 3093-9240

FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR

IJTIMOIY-GUMANITAR SOHALARGA IXTISOSLASHGAN ILMIY JURNAL



2026

FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR

ilmiy-amaliy metodologik jurnal

МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЕ НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

научно-практический и методологический журнал

INTERDISCIPLINARY SCIENTIFIC RESEARCH

scientific-practical and methodological journal



№4 2026

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 5-may sanasida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, 1564147-sonli rasmiy guvohnoma asosida faoliyat yuritadi.

BOSH MUHARRIR:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI
Ismatulloyev Abdullo Nasrulloyevich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

TAHRIRIYAT KENGASHI:
Rejep Uzyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Blinova Ye.E. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Abdullayeva B.S. – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Ibragimova G.N. – pedagogika fanlari doktori, professor
Mamurov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Filippova O.G. – pedagogika fanlari doktori, professor (Rossiya)
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari doktori(DSc), professor
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Umarova N.Sh. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ismoilova N.Z. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Abdullayeva D.U. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Atabayeva N.B. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Jabborov X.X. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Akramov M.R. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Tuychieva S.M. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Gadoyeva M.I. – filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Rasulov Z.I. – filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Qurbonboyev A.N. – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Taniyeva G. M. – tarix fanlari doktori, professor
Davlatova S.T. – tarix fanlari doktori, professor
Qurbonova M. B. – tarix fanlari nomzodi, professor
Turdiyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Maxmudova D.A. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldashev S.R. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Botirova D.B. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Alimova Ye.G. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Джексембаева Г.С. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) (Qozog‘iston)
Jalilov N.A.– pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Vahobov A.A. – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Raxmatova M.M. – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xalilova R.R. – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Bobojonov Sh.U. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sharipov Sh.F. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bo‘tayev J.Sh. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bobojonova F. X. – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Mas’ul muharrir:
Xayitov Xayotjon Xikmat o‘g‘li

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР
Ашуров Рамзидин Рамазонович
доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент

ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА
Исматуллоев Абдулло Насруллоевич
доктор философии (PhD) по психологическим наукам

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ
Реджеп Узюрек - доктор психологических наук, профессор (Турция)
Блинова Е.Е. - доктор психологических наук, профессор (Россия)
Стоюхина Н.Ю. - кандидат психологических наук, доцент (Россия)
Абдуллаева Б.С. - доктор педагогических наук (DSc), профессор
Ибрагимова Г.Н. - доктор педагогических наук, профессор
Мамуров Б.Б. - доктор педагогических наук, профессор
Филиппова О.Г. - доктор педагогических наук, профессор (Россия)
Мирзаева Ф.О. - доктор педагогических наук (DSc), профессор
Бафаев М.М. - доктор психологических наук (DSc), доцент
Умарова Н.Ш. - доктор психологических наук (DSc), профессор
Исмоилова Н.З. - доктор психологических наук (DSc), профессор
Абдуллаева Д.У. - доктор психологических наук (DSc), профессор
Атабаева Н.Б. - доктор психологических наук (DSc), профессор
Джабборов Х.Х. - доктор психологических наук (DSc), профессор
Акрамов М.Р. - доктор психологических наук (DSc), профессор
Туйчиева С.М. - доктор психологических наук (DSc), профессор
Гадоева М.И. - доктор филологических наук (DSc), профессор
Расулов З.И. - доктор филологических наук (DSc), профессор
Курбанбоев А.Н. - доктор психологических наук (DSc), доцент
Таниева Г.М. - доктор исторических наук, профессор
Давлатова С.Т. - доктор исторических наук, профессор
Курбанова М.Б. - кандидат исторических наук, профессор
Турдиев Б. - доктор философских наук, профессор
Махмудова Д.А. - доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Юлдашев С.Р. - доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Ботирова Д.Б. - доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Алимова Е.Г. - доктор философии (PhD) по психологическим наукам, доцент
Джексембаева Г.С. - доктор философии (PhD) по психологическим наукам (Казахстан)
Жалилов Н.А. - доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент
Вахобов А.А. - доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, доцент
Рахматова М.М. - доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент
Халилова Р.Р. - доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент
Бобожонов Ш.У. - доктор философии (PhD) по историческим наукам, доцент
Шарипов Ш.Ф. - доктор философии (PhD) по историческим наукам
Бутаев Ж.Ш. - доктор философии (PhD) по историческим наукам
Бобожонова Ф.Х. - кандидат исторических наук, доцент

Ответственный редактор
Хайитов Хаётжон Хикмат угли

EDITOR-IN-CHIEF
Ashurov Ramzidin Ramazonovich
Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Associate Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF
Ismatulloyev Abdullo Nasrulloyevich
Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences

EDITORIAL BOARD
Rejep Uzyurek - Doctor of Psychological Sciences, Professor (Türkiye)
Blinova Ye.E. - Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)
Stoyukhina N.Yu. - Candidate of Psychological Sciences, Associate Professor (Russia)
Abdullaeva B.S. - Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor
Ibragimova G.N. - Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Mamurov B.B. - Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Filippova O.G. - Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Russia)
Mirzaeva F.O. - Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor
Bafaev M.M. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Associate Professor
Umarova N.Sh. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor
Ismoilova N.Z. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor
Abdullaeva D.U. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor
Atabayva N.B. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor
Jabborov Kh. Kh. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor
Akramov M.R. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor
Tuychieva S.M. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Professor
Gadoeva M.I. - Doctor of Philological Sciences (DSc), Professor
Rasulov Z.I. - Doctor of Philological Sciences (DSc), Professor
Qurbonboev A.N. - Doctor of Psychological Sciences (DSc), Associate Professor
Tanieva G.M. - Doctor of Historical Sciences, Professor
Davlatova S.T. - Doctor of Historical Sciences, Professor
Kurbonova M.B. - Candidate of Historical Sciences, Professor
Turdiev B. - Doctor of Philosophy Sciences, Professor
Makhmudova D.A. - Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Associate Professor
Yuldashev S.R. - Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Associate Professor
Botirova D.B. - Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Associate Professor
Alimova Ye.G. - Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences, Associate Professor
Dzheksembayeva G.S. - Doctor of Philosophy (PhD) in Psychological Sciences (Kazakhstan)
Jalilov N.A. - Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Associate Professor
Vahobov A.A. - Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Associate Professor
Raxmatova M.M. - Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Khalilova R.R. - Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Bobojonov Sh.U. - Doctor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences, Associate Professor
Sharipov Sh.F. - Doctor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences
Butayev J.Sh. - Doctor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences
Bobojonova F.X. - Candidate of Historical Sciences, Associate Professor

Managing Editor
Xayitov Xayotjon Xikmat ugli

SUDGA OID PSIXOLOGIK EKSPERTIZANING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK MUAMMOLARI

Elov Ziyodullo Sattorovich
Osiyo xalqaro unviersiteti professori, psixologiya fanlari doktori (DSc)

Annotatsiya. Mazkur maqolada sudga oid psixologik ekspertizaning ijtimoiy-psixologik muammolari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Ekspertiza jarayonida shaxs xulq-atvorini individual va ijtimoiy omillar birligida baholash, shaxslararo munosabatlar, ijtimoiy ta’sir, suggestivlik, konformlik, guruhiy bosim, stereotiplashtirish va stigmatizatsiya kabi omillarning ekspert tadqiqoti natijalariga ta’siri yoritilgan. Ekspert va tekshiriluvchi o‘rtasida professional psixologik kontakt o‘rnatish, ekspertning xolisligi va mustaqilligini ta’minlash, kognitiv hamda ijtimoiy-perseptiv xatolarning oldini olish masalalari ochib berilgan. Shuningdek, voyaga yetmaganlar, oilaviy konflikt va psixologik qaramlik bilan bog‘liq holatlarni ekspert baholash, psixodiagnostik metodlarning sotsiomadaniy adekvatligi hamda raqamli muhitda yuzaga kelayotgan yangi ijtimoiy-psixologik muammolar tahlil qilingan. Sudga oid psixologik ekspertizaning ilmiy asoslanganligi va obyektivligini oshirishda shaxs, vaziyat, ijtimoiy muhit va shaxslararo munosabatlarni o‘zaro bog‘liqlikda kompleks baholash zarurligi asoslangan.

Kalit so‘zlar: sudga oid psixologik ekspertiza, ekspert-psixolog, ijtimoiy psixologiya, ijtimoiy-psixologik omillar, shaxslararo munosabatlar, ijtimoiy ta’sir, suggestivlik, konformlik, guruhiy bosim, ijtimoiy persepsiya, stereotiplashtirish, stigmatizatsiya, psixologik qaramlik, ekspert xolisligi, psixodiagnostika, sotsiomadaniy omillar, psixologik kontakt, ekspert xulosasi.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ СУДЕБНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ЭКСПЕРТИЗЫ

Аннотация. В данной статье с научно-теоретической точки зрения анализируются социально-психологические проблемы судебно-психологической экспертизы. Рассматриваются вопросы оценки поведения личности в единстве индивидуальных и социальных факторов в процессе проведения экспертизы, а также влияние межличностных отношений, социального воздействия, внушаемости, конформности, группового давления, стереотипизации и стигматизации на результаты экспертного исследования. Раскрываются особенности установления профессионального психологического контакта между экспертом и обследуемым лицом, обеспечения объективности и независимости эксперта, а также

предупреждения когнитивных и социально-перцептивных ошибок. Кроме того, анализируются особенности экспертной оценки ситуаций, связанных с несовершеннолетними, семейными конфликтами и психологической зависимостью, социокультурная адекватность психодиагностических методов, а также новые социально-психологические проблемы, возникающие в цифровой среде. Обоснована необходимость комплексной оценки личности, ситуации, социальной среды и межличностных отношений в их взаимосвязи с целью повышения научной обоснованности и объективности судебно-психологической экспертизы.

Ключевые слова: судебно-психологическая экспертиза, эксперт-психолог, социальная психология, социально-психологические факторы, межличностные отношения, социальное воздействие, внушаемость, конформность, групповое давление, социальная перцепция, стереотипизация, стигматизация, психологическая зависимость, объективность эксперта, психодиагностика, социокультурные факторы, психологический контакт, экспертное заключение.

SOCIO-PSYCHOLOGICAL PROBLEMS OF FORENSIC PSYCHOLOGICAL EXAMINATION

Abstract. This article provides a scientific and theoretical analysis of the socio-psychological problems of forensic psychological examination. It examines the assessment of individual behavior through the interaction of personal and social factors during the examination process, as well as the influence of interpersonal relationships, social influence, suggestibility, conformity, group pressure, stereotyping, and stigmatization on the results of forensic psychological assessment. Particular attention is paid to establishing professional psychological contact between the expert and the examinee, ensuring the objectivity and independence of the expert, and preventing cognitive and socio-perceptual biases. The article also analyzes the specific features of expert assessment in cases involving minors, family conflicts, and psychological dependence, the sociocultural appropriateness of psychodiagnostic methods, and emerging socio-psychological challenges associated with the digital environment. The necessity of a comprehensive assessment of the individual, the situation, the social environment, and interpersonal relationships in their interconnection is substantiated as an important condition for enhancing the scientific validity and objectivity of forensic psychological examination.

Keywords: forensic psychological examination, forensic psychologist, social psychology, socio-psychological factors, interpersonal relationships, social influence, suggestibility, conformity, group pressure, social perception,

stereotyping, stigmatization, psychological dependence, expert objectivity, psychodiagnostics, sociocultural factors, psychological contact, expert opinion.

KIRISH

Sudga oid psixologik ekspertiza sud-tergov faoliyatida maxsus psixologik bilimlardan foydalanishning muhim shakllaridan biri bo‘lib, shaxsning muayyan huquqiy ahamiyatga ega vaziyatdagi psixologik holati, individual xususiyatlari, idrok etish, eslab qolish, qayta tiklash, qaror qabul qilish hamda o‘z xulq-atvorini boshqarish imkoniyatlarini ilmiy asosda baholashga xizmat qiladi. Mazkur ekspertiza faqat individual psixologik xususiyatlarni aniqlash bilan cheklanmaydi. Chunki shaxsning xulq-atvori doimo muayyan ijtimoiy muhit, shaxslararo munosabatlar, guruhiy ta’sir, ijtimoiy me’yorlar va vaziyat omillari doirasida shakllanadi. Shu sababli sudga oid psixologik ekspertizaning ijtimoiy-psixologik muammolarini o‘rganish ekspert xulosalarining obyektivligi, ilmiy asoslanganligi va amaliy ishonchliligini ta’minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

Sudga oid psixologik ekspertizaning ijtimoiy-psixologik muammolari xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan yuridik psixologiya, sud psixologiyasi hamda ijtimoiy psixologiya doirasida tadqiq etilgan. Xorijiy olimlardan E. Loftus guvoh ko‘rsatmalarining ishonchliligi va suggestiv ta’sirni, G. Gudjonsson so‘roq jarayonidagi suggestivlik va psixologik bosimni, A. Vrij verbal va noverbal xulq-atvor hamda yolg‘onni aniqlash muammolarini, S. Kassin esa ijtimoiy ta’sir va yolg‘on e’tiroflarning psixologik mexanizmlarini o‘rgangan.

MDH olimlaridan M.I. Enikeyev, V.L. Vasilyev, A.V. Dulov va A.R. Ratinov tadqiqotlarida sud-tergov faoliyatining psixologik qonuniyatlari, shaxsni ekspert baholash, tergov jarayonidagi kommunikativ munosabatlar hamda psixologik ta’sir masalalari yoritilgan.

O‘zbekistonda mazkur yo‘nalishning rivojlanishiga X.A. Ruhiyeva salmoqli hissa qo‘shib, sud-psixologik ekspertizaning obyekti va subyekti, uni tayinlash va o‘tkazish tartibi, ekspert-psixologning vakolatlari hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlarda psixologik xizmat masalalarini tadqiq etgan. A.N. Norboyev va A.A. Usmonova ishlarida yuridik psixologiya doirasida sud-psixologik ekspertizaning nazariy va amaliy masalalari yoritilgan. Z.S. Elov tadqiqotlarida esa sud-psixologik ekspertizaning tarixiy rivojlanishi, huquqiy va tashkiliy asoslari, affekt holatining ekspertizasi hamda voyaga yetmaganlar bilan bog‘liq ekspertizaning psixologik xususiyatlari tahlil qilingan.

Mavjud tadqiqotlar tahlili sudga oid psixologik ekspertizaning nazariy, tashkiliy va individual-psixologik jihatlari muayyan darajada o‘rganilganligini ko‘rsatadi. Biroq ijtimoiy ta’sir, guruhiy bosim, stereotiplashtirish, stigmatizatsiya,

ekspertning ijtimoiy-perseptiv xatolari hamda sotsiomadaniy omillarning ekspertiza natijalariga ta’sirini kompleks o‘rganish zarurati saqlanib qolmoqda. Ayniqsa, ushbu muammolarni O‘zbekistonning milliy va sotsiomadaniy xususiyatlarini hisobga olgan holda tadqiq etish dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Sudga oid psixologik ekspertizaning asosiy ijtimoiy-psixologik muammolaridan biri shaxs xulq-atvorini individual va ijtimoiy omillar birligida baholash masalasidir. Huquqiy ahamiyatga ega xatti-harakat ko‘pincha shaxsning individual xususiyatlari bilangina emas, balki uning boshqa shaxslar bilan munosabatlari, guruhdagi mavqei, konfliktli vaziyat, ijtimoiy bosim, qaramlik munosabatlari, oilaviy muhit va boshqa tashqi ta’sirlar bilan ham belgilanadi. Masalan, voyaga yetmagan shaxsning xatti-harakatlarini baholashda uning yosh va individual xususiyatlari bilan bir qatorda ota-ona, tengdoshlar guruhi, referent shaxslar hamda mavjud ijtimoiy muhitning ta’sirini hisobga olish talab etiladi.

Muhim muammolardan yana biri ijtimoiy ta’sir va suggestivlik fenomenini ekspert baholash bilan bog‘liq. Shaxsning ko‘rsatmalari, hodisani eslab qolishi va uni qayta bayon etish jarayoni boshqa insonlarning fikri, takroriy savollar, avval olingan axborot, ommaviy axborot vositalari yoki yaqin kishilarning munosabati ta’sirida o‘zgarishi mumkin. Ayniqsa, bolalar, o‘smirlar, yuqori darajada suggestiv hamda psixologik jihatdan qaram shaxslar bunday ta’sirga nisbatan sezgir bo‘lishi mumkin. Shu bois ekspert ko‘rsatmaning mazmunini shunchaki qayd etmasdan, uning shakllanishiga ta’sir ko‘rsatgan ijtimoiy-psixologik sharoitlarni ham tahlil qilishi lozim.

Sud-tergov jarayonida konformlik va guruhiy bosim ham alohida ahamiyat kasb etadi. Shaxs ayrim holatlarda guruh tomonidan qabul qilinish, rad etilmaslik, jazodan qochish yoki obro‘li shaxsning talablariga moslashish maqsadida o‘z qarashlari va xulq-atvorini o‘zgartirishi mumkin. Guruhiy jinoyatlar, voyaga yetmaganlar ishtirokidagi huquqbuzarliklar yoki psixologik qaramlik mavjud bo‘lgan munosabatlarda konform xulq mexanizmlarini aniqlash ekspertiza uchun muhimdir. Bunda ekspert shaxsning mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatlari, guruh bosimiga beriluvchanligi va referent guruhning xatti-harakatga ta’sirini ilmiy mezonlar asosida baholashi zarur.

Sudga oid psixologik ekspertizada tekshiriluvchi va ekspert o‘rtasidagi munosabatning o‘zi ham muhim ijtimoiy-psixologik omildir. Ekspert bilan tekshiriluvchi o‘rtasidagi kommunikativ aloqa sifati diagnostik ma’lumotlarning ishonchliligiga bevosita ta’sir qilishi mumkin. Haddan tashqari rasmiy, sovuq yoki hukm qiluvchi kommunikativ uslub tekshiriluvchida himoyalanish, xavotir, qarshilik yoki ijtimoiy maqbul javoblar berishga moyillikni kuchaytirishi mumkin.

Aksincha, professional psixologik kontakt shaxsning o‘zini nisbatan erkin namoyon etishi uchun zarur diagnostik sharoit yaratadi.

Biroq professional kontakt o‘rnatish ekspertning tekshiriluvchi bilan emotsional identifikatsiyalashuvi yoki uning pozitsiyasini qabul qilishi degani emas. Ekspert bir vaqtning o‘zida psixologik kontakt va professional distansiya o‘rtasidagi optimal muvozanatni saqlashi kerak. Aks holda empatiya, shaxsiy simpatiya yoki antipatiya ekspertning interpretatsiyasiga ta’sir ko‘rsatib, xulosaning obyektivligini pasaytirishi mumkin.

Shu nuqtayi nazardan, ekspertning ijtimoiy persepsiyasi ham metodologik ahamiyatga ega. Inson boshqa shaxs haqida xulosa chiqarishda stereotiplar, dastlabki taassurot, “oreol effekti”, tasdiqlashga moyillik kabi kognitiv va ijtimoiy-perseptiv xatolarga duch kelishi mumkin. Ekspertning kasbiy tayyorgarligi yuqori bo‘lsa-da, u bunday psixologik mexanizmlardan mutlaqo xoli bo‘lishi mumkin emas. Shuning uchun ekspert bahosi bir martalik taassurotga emas, balki bir nechta metodlar, turli manbalardan olingan ma’lumotlar va tekshiriluvchi xulq-atvorining tizimli tahliliga asoslanishi zarur.

Sudga oid psixologik ekspertizada stereotiplashtirish va stigmatizatsiya ekspert xulosasining xolisligiga xavf tug‘diruvchi omillardan biridir. Jinoyat sodir etishda gumon qilinuvchi, jabrlanuvchi, mahkum, zo‘ravonlikka uchragan shaxs yoki deviant xulqli o‘smirga nisbatan jamiyatda shakllangan stereotiplar ekspertning professional idrokiga bilvosita ta’sir qilishi mumkin.

Masalan, jabrlanuvchining hodisadan keyingi xulq-atvori jamiyatda mavjud “jabrlanuvchi qanday harakat qilishi kerak” degan stereotipga mos kelmasligi uning kechinmalarining haqiqiy emasligini anglatmaydi. Psixologik travmaga javob reaksiyalari individual bo‘lib, ayrim shaxslarda kuchli emotsional reaksiya, boshqalarda esa emotsional karaxtlik, chekinish yoki hodisa haqida gapirishdan qochish ko‘rinishida namoyon bo‘lishi mumkin. Ekspert bunday vaziyatlarda maishiy tasavvurlarga emas, ilmiy psixologik qonuniyatlarga tayanishi zarur.

Voyaga yetmaganlar ishtirokidagi sudga oid psixologik ekspertiza alohida murakkablikka ega. Bola va o‘smirlarning psixologik rivojlanishi davom etayotganligi sababli ularning xotirasi, tafakkuri, ijtimoiy idroki, emotsional regulyatsiyasi va kommunikativ xulqi kattalarnikidan farq qiladi. Bundan tashqari, kattalarning obro‘si, ota-onaning munosabati, tengdoshlar bosimi va takroriy so‘roq qilish jarayonlari ularning bayonlariga ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Shuning uchun voyaga yetmaganlarning ko‘rsatmalarini baholashda “to‘g‘ri yoki yolg‘on” dixotomiyasidan foydalanish yetarli emas. Ekspert bolaning hodisani idrok etish imkoniyati, uni xotirada saqlashi, mustaqil ravishda qayta tiklashi,

savollarning suggestiv ta’siriga beriluvchanligi, fantaziya va real voqelikni farqlash xususiyatlarini kompleks o‘rganishi kerak.

Sudga oid psixologik ekspertizaning murakkab ijtimoiy-psixologik yo‘nalishlaridan biri oilaviy konflikt, zo‘ravonlik va psixologik qaramlik munosabatlarini baholash bilan bog‘liq. Oilaviy tizimda bir shaxsning boshqasiga iqtisodiy, emotsional yoki psixologik qaramligi uning mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatlariga ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Uzoq davom etgan tahdid, kamsitish, nazorat, izolyatsiya yoki manipulyativ munosabatlar shaxsning o‘z vaziyatini baholashi va himoya strategiyalarini tanlashiga ta’sir etadi. Shu bois oilaviy zo‘ravonlik bilan bog‘liq ekspertizada faqat alohida hodisani emas, balki munosabatlarning dinamikasi va ijtimoiy-psixologik kontekstini retrospektiv tahlil qilish muhimdir.

Sudga oid psixologik ekspertiza muayyan institutsional muhitda amalga oshiriladi. Tergovchi, prokuror, advokat, sudya, ekspert va boshqa ishtirokchilar o‘z kasbiy pozitsiyasiga ega. Ushbu rollar o‘rtasidagi kommunikatsiya va kutishlar ekspert faoliyatiga bilvosita bosim ko‘rsatishi mumkin.

Ekspertning vazifasi ayblov yoki himoya pozitsiyasini tasdiqlash emas, balki uning vakolatiga kiruvchi psixologik savollarga ilmiy asoslangan javob berishdan iborat. Shu sababli ekspert tergov versiyasi, taraflarning manfaatlari yoki jamoatchilik fikridan mustaqil bo‘lishi lozim. Ekspert mustaqilligi va betarafligi sudga oid psixologik ekspertizaning nafaqat huquqiy, balki ijtimoiy-psixologik tamoyili sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Sudga oid psixologik ekspertizaning dolzarb masalalaridan yana biri psixodiagnostik metodlarning sotsiomadaniy adekvatligi hisoblanadi. Muayyan jamiyatda qabul qilingan oilaviy qadriyatlar, gender rollari, kattalarga munosabat, shaxsiy muammolarni oshkor etish me’yorlari, uyat va obro‘ tushunchalari tekshiriluvchining psixologik reaksiyalariga ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Xorijda ishlab chiqilgan psixodiagnostik metodikani tarjima qilishning o‘zi uni mahalliy ekspertiza amaliyotiga tatbiq etish uchun yetarli emas. Metodikaning lingvistik adaptatsiyasi bilan bir qatorda uning konstrukt validligi, ishonchliligi, normativ ko‘rsatkichlari va madaniy ekvivalentligi tekshirilishi lozim. Aks holda test natijalaridagi farqlar individual psixologik xususiyatlardan ko‘ra sotsiomadaniy tafovutlarni aks ettirishi mumkin.

Raqamli kommunikatsiya sudga oid psixologik ekspertiza oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar, onlayn guruhlar va virtual hamjamiyatlar shaxslararo ta’sirning yangi shakllarini yuzaga keltirdi. Kiberbulling, onlayn tahdid, raqamli manipulyatsiya, virtual guruh bosimi va shaxsning raqamli

obro‘siga tajovuz kabi hodisalar huquqiy ahamiyatga ega psixologik oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Bunday vaziyatlarda ekspert elektron yozishmalarni shaxsning psixologik holatini to‘liq aks ettiruvchi mutlaq dalil sifatida emas, balki boshqa ma’lumotlar bilan birgalikda tahlil qilishi kerak. Yozma raqamli muloqotda intonatsiya, mimika va vaziyat kontekstining cheklanganligi sababli alohida jumlalarni kontekstdan uzib psixologik talqin qilish ilmiy xatolarga olib kelishi mumkin.

Ekspert xulosasining kommunikativ muammolari

Ekspert tadqiqotining yakuniy mahsuli – ekspert xulosasi ham muhim kommunikativ funksiyani bajaradi. Psixologik terminlarning haddan tashqari murakkab yoki noaniq qo‘llanilishi sud va tergov organlari tomonidan ekspert xulosasining noto‘g‘ri tushunilishiga olib kelishi mumkin.

Shu sababli xulosa bir vaqtning o‘zida ilmiy aniq, metodologik asoslangan va huquqshunos mutaxassislar uchun tushunarli bo‘lishi kerak. Ekspert ehtimollik darajasidagi psixologik xulosani mutlaq hukm shaklida ifodalamasligi, o‘z vakolati chegarasidan chiqmasligi va huquqiy kvalifikatsiya bermasligi zarur. Psixologik xususiyatni aniqlash va uning huquqiy oqibatini belgilash bir-biridan farqlanadigan professional vazifalardir.

XULOSA

Sudga oid psixologik ekspertizaning ijtimoiy-psixologik muammolari shaxsning individual xususiyatlari bilan cheklanmay, uning ijtimoiy munosabatlari, guruhiy ta’sir, oilaviy muhit, kommunikativ jarayonlar, stereotip va stigma, sotsiomadaniy omillar hamda institutsional munosabatlarni ham qamrab oladi. Shu sababli ekspertiza jarayonida “shaxs – vaziyat – ijtimoiy muhit – shaxslararo munosabatlar” tizimini kompleks tahlil qilish metodologik jihatdan muhimdir.

Sudga oid psixologik ekspertizaning ilmiy ishonchliligini oshirish uchun ekspert-psixologlarning ijtimoiy-psixologik kompetentligini rivojlantirish, valid va madaniy adaptatsiyadan o‘tgan metodikalardan foydalanish, ko‘p metodli diagnostik yondashuvni qo‘llash, ekspertning kognitiv va ijtimoiy-perseptiv xatolarini nazorat qilish, shuningdek, voyaga yetmaganlar hamda psixologik jihatdan zaif shaxslarni tekshirishning maxsus algoritmlarini ishlab chiqish zarur.

Umuman olganda, sudga oid psixologik ekspertizaning zamonaviy rivojlanish istiqbollari ekspert tadqiqotini faqat individual psixodiagnostika doirasida emas, balki kompleks ijtimoiy-psixologik va biopsixososial paradigma asosida tashkil etish bilan bog‘liq. Bunday yondashuv ekspert xulosalarining obyektivligi va ilmiy asoslanganligini oshirish, sud-tergov amaliyotida psixologik bilimlardan yanada samarali foydalanish hamda inson omilini chuqurroq tushunish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Elov Z.S. Voyaga yetmaganlarga sudga oid psixologik ekspertizasini o‘tkazilishining psixologik xususiyatlari // Pedagogik va psixologik tadqiqotlar. – 2024. – T. 1, № 1. – B. 9–14.
2. Elov Z.S. Sud-psixologik ekspertizalar o‘tkazishning huquqiy va tashkiliy asoslari // Technical Science. – 2024. – Vol. 2, Issue 1. – B. 58–69.
3. Elov Z.S. Sud-psixologik ekspertizasi tarixi va rivojlanish bosqichlari (ilmiy manbalar tahlili asosida) // Journal of Pedagogical and Psychological Studies. – 2024. – Vol. 2, № 1. – B. 3–8.
4. Elov Z.S. Sudga oid psixologik ekspertizasining rivojlanish jarayoni va tarixi // Osiyo xalqaro universiteti axborotnomasi. – 2024. – № 6. – B. 112–119.
5. Sulaymonov A., Elov Z.S. Sud-psixolog ekspert faoliyatining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari // Journal of New Century Innovations. – 2025. – Vol. 77, № 1. – B. 220–225.
6. Elov Z.S. Sud-psixologik ekspertizaning rivojlanish tarixi va bugungi istiqbollari // Osiyo xalqaro universiteti axborotnomasi. – 2026. – № 1. – B. 167–172.
7. To‘rayev Sh., Elov Z.S. Sudga oid psixologik ekspertizasining rivojlanish jarayoni va tarixi // Modern Education Development Research Conference: konferensiya materiallari. – 2026. – B. 110–115.

OILADAGI NIZOLARNI HAL ETISHDA MEDIATORLIK FAOLIYATINING AHAMIYATI

Ibaydullayeva Umida Rustamjonovna
O‘zMU Jizzax filiali “Psixologiya” kafedrasi
dotsenti, ps.f.b.f.d (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada oilaviy munosabatlarda er-xotin o‘rtasida yuzaga keladigan nizolar, ularning psixologik va ijtimoiy sabablari hamda oilaviy ajrimlarga olib keluvchi omillar tahlil qilingan. Oilaviy nizolarning oldini olish va ularni konstruktiv hal etishda mediatorlik faoliyatining psixologik ahamiyati, shuningdek, mediatsiya jarayonida empatiya, samarali muloqot va muzokara mexanizmlarining o‘rni yoritilgan. Mediatsiya shaxslararo munosabatlarda yuzaga keladigan emotsional zo‘riqishni kamaytirish, tomonlar o‘rtasidagi ishonch muhitini tiklash, o‘zaro tushunish va murosaga erishishga ko‘maklashuvchi psixologik-ijtimoiy mexanizm sifatida baholangan. Shuningdek, oilaviy nizolarni bartaraf etishda mediatorlik faoliyatini samarali tashkil etish zarurati hamda uning nizolar profilaktikasi va oilaviy munosabatlarni barqarorlashtirishdagi ahamiyati ilmiy jihatdan asoslangan.

Kalit so‘zlar: mediatsiya, mediator, oilaviy nizo, ajrim, nizo sabablari, ajrim sabablari, empatiya, muloqot, konfliktologiya, kelishuv, psixologik profilaktika, muzokara, shaxslararo munosabatlar.

ЗНАЧЕНИЕ МЕДИАТОРСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РАЗРЕШЕНИИ СЕМЕЙНЫХ КОНФЛИКТОВ

Аннотация. В статье анализируются конфликты, возникающие между супругами в семейных отношениях, их психологические и социальные причины, а также факторы, приводящие к расторжению брака. Раскрывается психологическое значение деятельности медиатора в предупреждении и конструктивном разрешении семейных конфликтов, а также роль эмпатии, эффективной коммуникации и переговорных механизмов в процессе медиации. Медиация рассматривается как социально-психологический механизм, способствующий снижению эмоционального напряжения в межличностных отношениях, восстановлению атмосферы доверия, достижению взаимопонимания и компромисса между сторонами. Кроме того, научно обоснована необходимость эффективной организации медиаторской деятельности при разрешении семейных конфликтов, а также ее значение в профилактике конфликтов и укреплении стабильности семейных отношений.

Ключевые слова: медиация, медиатор, семейный конфликт, развод, причины конфликтов, причины развода, эмпатия, коммуникация, конфликтология, соглашение, психологическая профилактика, переговоры, межличностные отношения.

THE IMPORTANCE OF MEDIATION IN RESOLVING FAMILY CONFLICTS

Abstract. This article analyzes conflicts arising between spouses in family relationships, their psychological and social causes, as well as the factors contributing to marital dissolution. Particular attention is given to the psychological significance of mediation in preventing and constructively resolving family conflicts and to the role of empathy, effective communication, and negotiation mechanisms in the mediation process. Mediation is considered a socio-psychological mechanism that helps reduce emotional tension in interpersonal relationships, restore trust between the parties, promote mutual understanding, and facilitate compromise. Furthermore, the necessity of effectively organizing mediation in resolving family conflicts is scientifically substantiated, with particular emphasis on its role in conflict prevention and the stabilization of family relationships.

Keywords: mediation, mediator, family conflict, divorce, causes of conflict, causes of divorce, empathy, communication, conflictology, agreement, psychological prevention, negotiation, interpersonal relationships.

KIRISH

Hozirgi kunda oilalardagi nizolarning oldini olish va oilaviy munosabatlarni mustahkamlash dolzarb muammolardan biri sanaladi. Oila dunyo miqyosida beqiyos va boqiy ijtimoiy tuzilma ekanligi [1] e’tirof etilishiga qaramay, ko‘plab mamlakatlarda oilaviy munosabatlarda er-xotin o‘rtasida yuzaga keladigan nizolar sababli oilalarning barbod bo‘lish holatlari, shuningdek, oiladagi ruhiy ziddiyatlar tufayli bir qator salbiy oqibatlar kelib chiqayotganligini ko‘rishimiz mumkin. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning quyidagi fikrlarini ta’kidlash o‘rinlidir: “Odamlarimiz bilishi kerak, oila muqaddas biz uchun, oilani saqlab qolmasak, biz o‘zligimizni yo‘qotamiz” [2]. Darhaqiqat, oila – jamiyatning muhim bo‘g‘ini sanaladi. Uni muqaddas bilish va asrab-avaylash har bir insonning o‘ziga bog‘liq. Agar har bir inson o‘z oilasining qadriga yetib, oilaviy qadriyatlarni to‘g‘ri shakllantirsagina, oilalarning barbod bo‘lish holatlarining oldini olish mumkin.

MAVZUNG O‘RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

Oila va oilaviy munosabatlar, ularda yuzaga kelayotgan muammolarga bo‘lgan qiziqish uzoq davrlardan buyon jamiyatdagi har bir inson, olim, alloma

hamda donishmandlarning e’tiborida bo‘lib kelgan. Azal-azaldan jamiyatimizning buyuk allomalari, olimlari va donishmandlarining nikoh hamda oila masalalariga bo‘lgan qiziqishi yuqori bo‘lgan. O‘zbek oilalarida er-xotinlar o‘rtasidagi psixologik muhitni sog‘lomlashtirish, oilaviy o‘zaro munosabatlarning turlari, oiladagi shaxslararo munosabatlar, er-xotin o‘rtasida turli sabablar tufayli yuzaga keladigan nizolar va ularning turlari, shuningdek, ota-onalar va farzandlar o‘rtasidagi munosabatlar masalalari yuzasidan mamlakatimiz psixolog olimlaridan D. Abdullayeva, H. Abdusamatov, F. Akramova, R. Dushanov, K. Ikramova, V. Karimova, X. Karimov, A. Kadirova, N. Lutfullayeva, G. Niyazmetova, Z. Rasulova, N. Salayeva, R. Samarov, N. Sog‘inov, B. Umarov, E. Usmanov, M. Utepbergenov, M. Fayziyeva, G‘. Shoumarov, U. Qodirov, Y. Yakubov va boshqalar ilmiy tadqiqotlar olib borganlar. Mazkur olimlar oilaviy munosabatlar, oilaning turmush tarzi, er-xotin va farzandlar o‘rtasidagi munosabatlar, shuningdek, qaynona-kelin, ovsinlar, qaynona-kuyov hamda qaynota-kelin o‘rtasida yuzaga keladigan nizo va ziddiyatlar muammolarini izchil o‘rganib kelmoqdalar.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jamiyatimizda nizolar va ajrimlarning oldini olishga alohida e’tibor qaratilayotganiga qaramasdan, bugungi kunda oilalarda er-xotin o‘rtasidagi nizolarning yuzaga kelishiga qanday sabab va omillar ko‘proq ta’sir ko‘rsatmoqda? Ajralishlarning asosiy sabablari nimalardan iborat va ularning qaysilari ko‘proq ta’sir ko‘rsatmoqda?

Bugungi kunda er-xotin o‘rtasidagi nizolarga eng ko‘p ta’sir ko‘rsatadigan omillar qatoriga o‘zaro muloqotning yetishmasligi, moliyaviy muammolar, sadoqatsizlik va ishonchning yo‘qligi, oiladagi rol va mas’uliyatlarning noto‘g‘ri taqsimlanishi, qaynona-kelin munosabatlari va qarindoshlarning oilaviy hayotga aralashuvi, o‘zaro kutilmalarning mos kelmasligi, yaqinlik va e’tiborning yetishmasligi, qadriyatlar va turmush tarzidagi farqlar hamda zararli odatlarni kiritish mumkin.

Haqiqatan ham, bugungi kunda oilada er-xotinlarning bir-birini eshitmasligi, his-tuyg‘ularini ochiq ifoda etmasligi, o‘z fikr va kechinmalarini ichida saqlashi, moddiy mablag‘larning yetishmasligi, qarzdorlik, er yoki xotinning o‘z mablag‘larini bir-biridan yashirishi, xiyonat yoki unga nisbatan shubha, rashk, uy-ro‘zg‘or ishlari va bola tarbiyasi bilan bog‘liq mas’uliyatlarning taqsimlanishi yuzasidan tortishuvlar, uchinchi tomonlarning oilaviy ishlarga haddan tashqari aralashuvi, nikohdan oldingi tasavvurlar bilan real oilaviy hayot o‘rtasidagi tafovutlar, hissiy yoki jismoniy yaqinlikning susayishi, e’tiborsizlik, diniy, madaniy va tarbiyaviy qarashlardagi farqlar, shuningdek, ichkilikbozlik va qimorbozlik bilan

bog‘liq zararli odatlar er-xotin o‘rtasida nizolarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda.

Bugungi globallashuv jarayonida oilaviy ajrimlar dunyo miqyosidagi dolzarb ijtimoiy muammolardan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda ham oilaviy ajrimlar masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, oilaviy ajrimlarga olib keluvchi asosiy sabab va omillarni aniqlash, ularni ilmiy jihatdan tahlil qilish hamda ajrimlarning oldini olish mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi tahlillariga ko‘ra, oilaviy ajrimlarning asosiy sabablari [3] quyidagicha taqsimlangan:

№	Ajralish sabablari	% da
1.	Uchinchi shaxs aralashuvi	15%
2.	Farzandsizlik	12,3%
3.	Uzoq vaqt bir oila bo‘lib yashamaganlik	12,2%
4.	Moliyaviy va moddiy qiyinchiliklar	5,9%
5.	Xiyonat	2,7%
6.	Spirtli ichimlik va giyohvand moddalar iste’moli	2,6%
7.	Ommaviy yoki xorijiy madaniyatning salbiy ta’siri	2,1%
8.	Tazyiq va zo‘ravonlik	1,5%
9.	Boshqa sabablar	26,9%

Boshqa tadqiqotlarda esa fe’l-atvor omili birinchi o‘ringa chiqqan: so‘rovnomada qatnashganlarning 49,7 foizi fe’l-atvorning mos kelmasligini ajrimlarning asosiy omili sifatida qayd etgan [4]. Bizning fikrimizcha, oilalarda ko‘pincha moddiy kamchiliklardan ko‘ra, yoshlarning oilaviy hayotga psixologik tayyorgarligining yetarli emasligi, muloqot madaniyatining pastligi va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarining shakllanmaganligi ham nizo va ajrimlarga sabab bo‘lmoqda. Oilalarda ota-onalar yoshlarni to‘yga moddiy jihatdan tayyorlash, ya’ni uy-joy, mebel va dabdabali marosimlarni tashkil etish bilan band bo‘lib, ularni oilaviy hayotning psixologik qiyinchiliklariga, o‘zaro kelishuvga va mas’uliyatga tayyorlash masalasi ko‘pincha e’tibordan chetda qolmoqda. Bu holat yuqorida keltirilgan ko‘rsatkichlarda ham yaqqol namoyon bo‘ladi.

Tomonlar o‘rtasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan nizolar turli sabab va omillar ta’sirida shakllanadi. Jumladan:

- o‘zaro tushunmovchilik va axborotning yetishmasligi;
- bir-biriga ishonmaslik yoki shubha;

- emotsional zo‘riqish va stress;
- o‘zini boshqalardan himoya qilish ehtiyoji;
- boshqalar tomonidan tan olinish va qadrlanishga bo‘lgan ehtiyoj;
- muloqotdagi emotsional to‘siqlarning mavjudligi.

Albatta, nizo jarayonida insonlarda turli emotsional holatlar, jumladan, g‘azab, xafagarchilik, xavotir, qo‘rquv, umidsizlik, adolatsizlik hissi, stress va himoyaviy reaksiyalar kuzatiladi. Bunday holatlar muloqot jarayonini qiyinlashtiradi, ratsional qaror qabul qilish imkoniyatini pasaytiradi va natijada nizolarning keskinlashishi hamda kuchayishiga sabab bo‘ladi.

Bugungi kunda jamiyatda shaxslararo, oilaviy hamda guruhlararo munosabatlarda yuzaga kelayotgan nizolar inson faoliyatining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi, manfaatlarning turlicha bo‘lishi va kommunikatsiya jarayonlarining tezlashuvi nizolarning ko‘payishiga, ayrim holatlarda esa oilaviy ajrimlarga ham sabab bo‘lmoqda. Bunday nizolarni hal etishda an’anaviy sud tartibi bilan bir qatorda, ularni insonparvar va murosaga asoslangan usullar yordamida bartaraf etishga bo‘lgan ehtiyoj ham ortib bormoqda. Ana shunday usullardan biri jahon amaliyotida keng qo‘llanib kelayotgan mediatsiya hisoblanadi. Mediatsiya nizolashayotgan tomonlarga mustaqil va xolis uchinchi shaxs – mediator ishtirokida o‘zaro maqbul kelishuvga erishishga ko‘maklashuvchi jarayondir. Aynan shunday sabablar ta’sirida yuzaga kelgan nizolarda mediatorning vazifasi faqat taraflarning fikrlarini tinglash emas, balki nizoning psixologik manbalarini aniqlash, emotsional keskinlikni yumshatish va konstruktiv muloqot uchun zarur sharoit yaratishdan ham iborat.

Psixologik nuqtayi nazardan, nizo holatida insonlar qarshi tomonning xatti-harakatlarini salbiy niyat bilan izohlashga moyil bo‘lishi, o‘zidagi ichki zo‘riqishni boshqa tarafga ko‘chirishi, o‘z pozitsiyasini mutlaq to‘g‘ri deb qabul qilishi hamda yuzaga kelgan vaziyatni keskin qarama-qarshilik shaklida baholashi mumkin. Mediator ana shunday vaziyatlarda mavjud psixologik to‘siqlarni aniqlab, taraflarning hissiy holatini barqarorlashtirishga, ularni bir-birini tinglashga tayyorlashga va emotsional bosimni kamaytirishga yordam beradi. Bu jarayonda mediator tomonidan hissiy holatni tan olish, verbal va noverbal signallarni to‘g‘ri talqin qilish, sukutdan o‘rinli foydalanish, aniqlashtiruvchi savollar berish va fikrlarni qayta ifodalash kabi usullardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasida “Mediatsiya to‘g‘risida”gi Qonun Qonunchilik palatasi tomonidan 2018-yil 12-iyunda qabul qilingan va Senat tomonidan 2018-yil 28-iyunda ma’qullangan bo‘lsa-da, mediatsiyaning amaliy samaradorligi ko‘p jihatdan psixologik omillarga ham bog‘liq ekanligi tobora yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Chunki yuzaga kelayotgan nizolar faqat huquqiy manfaatlar to‘qnashuvi

bilan emas, balki hissiy zo‘riqish, ishonchsizlik, stress, o‘zaro tushunmovchilik, qadrlanmaslik hissi hamda muloqotdagi to‘siqlar bilan bog‘liq bo‘lgan murakkab ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Jahon amaliyotida mediatsiya instituti AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Singapur, Yaponiya va qator Yevropa davlatlarida keng qo‘llaniladi. Buning asosiy sabablaridan biri mediatsiyaning sudlar yuklamasini kamaytirish, taraflar o‘rtasidagi munosabatlarni imkon qadar saqlab qolish hamda nizolarni tezkor va o‘zaro maqbul tarzda hal etish imkonini berishidir. Ayniqsa, oilaviy munosabatlar, mehnat, fuqarolik va tadbirkorlik munosabatlarida mediatsiyaning psixologik yondashuvlarga asoslangan usullari muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa mediatorlik faoliyatini nafaqat huquqiy, balki psixologik jihatdan ham o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

Mediatsiya – nizo yoki kelishmovchilikka duch kelgan tomonlarga o‘zaro maqbul kelishuvga erishishda yordam berishga qaratilgan, mustaqil va xolis uchinchi taraf – mediator ishtirokidagi jarayondir. Mediatorlik faoliyatida mediator nizolashayotgan tomonlar o‘rtasida o‘zaro tushunish, ishonch va kelishuvga erishishga qaratilgan maxsus psixologik va kommunikativ jarayonni tashkil etib, ular o‘rtasidagi tushunmovchiliklarni bartaraf etishga ko‘maklashadi. Bunda mediator asosiy e’tiborni tomonlarning tashqi pozitsiyalarigagina emas, balki ularning ichki ehtiyojlari, hissiy kechinmalari, qadriyatlari va motivlariga ham qaratadi.

Mediatsiya jarayonida ishonch va empatiya muhitini shakllantirish hal qiluvchi ahamiyatga ega. Agar taraflar mediatorga ishonmasa, ular o‘z fikrlarini ochiq bayon qilmasligi, haqiqiy ehtiyojlarini yashirishi mumkin, natijada kelishuvga erishish imkoniyati pasayadi. Empatiya esa taraflarning o‘zini tushunilgan, qadrlangan va hurmat qilingan deb his etishiga xizmat qiladi. Bu holat himoyaviy reaksiyalarni kamaytiradi, emotsional zo‘riqishni yumshatadi va konstruktiv muloqot uchun qulay psixologik muhit yaratadi. Faol tinglash ham mediatorlik faoliyatining eng muhim psixologik usullaridan biri hisoblanadi. Mediator suhbatdoshga to‘liq e’tibor qaratishi, uning nutqini bo‘lmasligi, aytilgan fikrlarni zarur hollarda qayta ifodalashi, aniqlashtiruvchi va ochiq savollar berishi, shuningdek, bildirilgan fikrlarni umumlashtirib borishi lozim. Mediatorning bunday yondashuvi taraflarga o‘z fikrlarini erkin bayon qilish imkonini beradi, noto‘g‘ri tushunishlarni kamaytiradi hamda emotsional bosimning yumshashiga yordam beradi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, mediatorlik faoliyatining samaradorligi ko‘p jihatdan psixologik omillarga bog‘liq. Jumladan, mediator:

- taraflarning emotsional holatini to‘g‘ri baholashi;

- ishonchli va psixologik jihatdan xavfsiz muloqot muhitini yaratishi;
- empatik munosabatni shakllantirishi;
- nizo ishtirokchilarining yashirin ehtiyoj va manfaatlarini aniqlashi;
- taraflarni konstruktiv qaror qabul qilishga yo‘naltirishi lozim.

Agar mediatorning psixologik tayyorgarligi yetarli bo‘lmasa, u nizoni yumshatish o‘rniga, aksincha, uning yanada keskinlashishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shuning uchun mediatorlarni tayyorlash tizimida psixologik treninglar, nizolarni boshqarish, stress-menejment, verbal va noverbal kommunikatsiya, muzokara olib borish hamda emotsional barqarorlikni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish zarur. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, mediatorlik faoliyatida psixologik kompetentlik huquqiy bilimlar bilan bir qatorda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ularning o‘zaro uyg‘unligi mediatsiyaning amaliy samaradorligini belgilab beradi.

XULOSA

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, mediatorlik faoliyatining psixologik jihatlari nizolarni samarali va konstruktiv hal etishda muhim ahamiyatga ega. Mediatsiya jarayonida empatiya, faol tinglash, emotsional intellekt hamda o‘zaro ishonch muhitini shakllantirish asosiy o‘rin tutadi. Er-xotin o‘rtasidagi nizolarni mediatorlik faoliyati orqali konstruktiv tarzda bartaraf etishga erishish oilaviy ziddiyatlarning salbiy oqibatlarini kamaytirish, o‘zaro munosabatlarni tiklash va ajrimlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Mediator nafaqat huquqiy vositachi, balki tomonlar o‘rtasidagi emotsional to‘siqlarni yumshatuvchi, konstruktiv muloqotni qayta shakllantiruvchi va o‘zaro tushunishni ta’minlashga ko‘maklashuvchi mutaxassis sifatida ham faoliyat yuritadi. Shu bois, mediatorlarni tayyorlash jarayonida ularning psixologik bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish, konfliktlarni diagnostika qilish, emotsional holatlarni boshqarish, samarali kommunikatsiya hamda muzokara olib borish madaniyatini chuqur o‘rgatishga alohida e’tibor qaratish zarur. Mazkur yo‘nalishdagi chora-tadbirlarning tizimli amalga oshirilishi mediatorlik faoliyatining amaliy samaradorligini oshirish, oilaviy nizolarni konstruktiv hal etish va oilaviy munosabatlar barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagi “Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5938-sonli Farmoni. www.lex.uz.

2. Mirziyoyev Sh.M., Xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilishdagi nutqi, 2018-yil 7-fevral. https://uza.uz/oz/posts

3. Abduvaliyeva Sabrina Erkin qizi. Nikohga kirishdagi psixologik tayyorgarlik yetishmasligi va ajrashishning ayol, erkak hamda bolalar psixologiyasiga ta’siri. International publication center “Milliy yutuqlar e’tirofi” mukofoti. B.4

4. Kadirova A.T. O‘smirlarda oilaviy nizolar to‘g‘risida ijtimoiy tasavvurlarning shakllanishi. Psixologiya fanlari nomzodi diss. – T.: 2007. – B. 20.

5. Ibaydullayeva U. Oiladagi er va xotin o‘zaro munosabatlari borasida sharq va g‘arb mutafakkirlarining qarashlari. Pedagogik mahorat. Buxoro, 2023.

6. Ibaydullayeva U.R., Tirkasheva M.A. Oilada ajrimlar yuzaga kelishi va unga olib keluvchi sabablar. Zamonaviy ijtimoiy psixologiya: an’analar va istiqbollar. I-xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. Jizzax-2023.

7. Axmadov N.R., Roziqova M.F., “Oilaviy ajrimlar ularning sabablari, ajrimlarning oldini olishning psixologik mexanizmlari”, “Ssiense and education” Scientifis journal/ISSN 2181-0842, April 2022/Volume 3 Issue 4, 760-762 betlar.

MUSTAQILLIKNING 35 YILI: ICHKI ISHLAR ORGANLARI TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR VA XALQCHIL-PROFESSIONAL XIZMATNING YANGI BOSQICHI

Tursunova Ozoda Abdullayevna
O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasining Xizmat psixologiyasi va kasbiy madaniyati kafedrasi dotsenti, podpolkovnik
ozodatursunova81@gmail.com

Globallashuvning inson va jamiyat hayotiga ta’siri, xususan, shaxs shakllanishidagi o‘rni so‘nggi o‘n yilliklarda ko‘plab olimlar tomonidan keng o‘rganilgan. Ushbu jarayonning falsafiy, sotsiologik, pedagogik va psixologik jihatlari turli ilmiy maktablarda tahlil qilinib, uning ijobiy hamda salbiy tomonlari haqida turlicha yondashuvlar ilgari surilgan [1; 2].

TAHLIL VA NATIJALAR

Globallashuv — bu insoniyat taraqqiyotining yangi bosqichi bo‘lib, u iqtisodiy, siyosiy, madaniy va axborot jarayonlarining bir butun tizimga aylanishi bilan xarakterlanadi [1]. Bu jarayon shaxs hayot tarzini, qadriyatlar tizimini, ijtimoiy fikrlash va muloqot madaniyatini tubdan o‘zgartirmoqda. Shaxs endilikda nafaqat o‘z mahalliy muhitida, balki global axborot maydonida ham faol ishtirok etadi.

Pedagogik nuqtayi nazardan, globallashuv ta’lim jarayonida yangi metod va texnologiyalarni joriy etish, ochiq bilim makonini shakllantirish, raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish kabi imkoniyatlarni yaratadi [2]. Shu bilan birga, bu jarayon o‘qituvchi va o‘quvchidan mustaqil fikrlash, tanqidiy tahlil, madaniy bag‘rikenglik kabi fazilatlarni talab etadi.

Psixologik jihatdan esa, globallashuv shaxsda yangi ehtiyoj va qadriyatlarni shakllantiradi. Axborot oqimining kuchayishi, raqamli madaniyatning kengayishi inson psixikasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Bu holat bir tomondan, tafakkur doirasini kengaytirsa, ikkinchi tomondan, diqqatning beqarorligi, ma’lumotni tanlashda sustkashlik, identitet inqirozi kabi holatlarni keltirib chiqaradi [3].

Globallashuvning ijobiy jihatlari bilan bir qatorda, u shaxsning ruhiy va ma’naviy dunyosiga bir qator salbiy ta’sirlarni ham keltirib chiqaradi. Bular quyidagilardan iborat:

Axborot ortiqchaligi (informatsion stress) – shaxsda charchoq, diqqat tarqoqligi, hissiy beqarorlik holatini yuzaga keltiradi;

Madaniy assimilyatsiya – milliy qadriyatlar o‘rnini ommaviy madaniyat egallashi xavfini kuchaytiradi;

Virtual qaramlik – ijtimoiy tarmoqlar orqali o‘zini ifoda etishga intilish, ammo real ijtimoiy muloqotning kamayishi;

Shaxs identifikatsiyasi inqirozi – “men kimman?” savoliga aniq javob topolmaslik, ijtimoiy rollarning beqarorligiga olib keladi. [6].

Globallashuv davrida shaxsni har tomonlama barkamol, mustaqil fikrlovchi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq inson sifatida shakllantirish zamonaviy ta’limning asosiy maqsadlaridan biridir. Bunda quyidagi yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi:

Konstruktivistik yondashuv – o‘quvchi o‘z tajribasi asosida bilimni mustaqil ravishda quradi;

Aksiologik yondashuv – shaxsda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligini shakllantirish;

Kompetensiyaga asoslangan yondashuv – global dunyoda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun zarur kompetensiyalarni rivojlantirish;

Psixologik moslashuvni qo‘llab-quvvatlash – stressga bardoshlilik, o‘zini boshqarish, kommunikativ malakalarni rivojlantirish [7; 8].

Bu yondashuvlar yordamida shaxsni globallashuv muhitida faol, mas’uliyatli va barqaror pozitsiyaga ega qilib tarbiyalash mumkin.

Globallashuv — bu insoniyat taraqqiyotining yangi bosqichi bo‘lib, u axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, xalqaro iqtisodiy hamkorlik, madaniyatlararo aloqalar va ijtimoiy o‘zaro ta’sirlarning jadallashuvi bilan tavsiflanadi. Mazkur jarayon inson tafakkuri, qadriyatlar tizimi va ijtimoiy ongining o‘zgarishiga olib keladi [8]. Shaxs globallashuv ta’sirida yangi bilimlar va g‘oyalarni tezroq o‘zlashtiradi, dunyoqarashi kengayadi, o‘zini global hamjamiyat a’zosi sifatida anglay boshlaydi. Shu bilan birga, bu jarayon shaxsni tanqidiy fikrlashga, o‘zini rivojlantirishga, mustaqil qarorlar qabul qilishga undaydi [9]. Pedagogik nuqtayi nazardan, globallashuv ta’lim jarayonini yangilashni, zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishni, o‘quvchilarda raqamli savodxonlikni shakllantirishni taqozo etadi. Bu esa, o‘z navbatida, o‘qituvchidan ham yangi yondashuvlarni talab qiladi.

Pedagogik-psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, globallashuv sharoitida yoshlar o‘rtasida individualizm, raqobatbardoshlik, o‘z manfaatini ustun qo‘yish kabi tendensiyalar kuchaymoqda. Bu esa shaxsda empatiya, hamjihatlik va ijtimoiy mas’uliyatning kamayishiga olib keladi.

Globallashuv sharoitida shaxs shakllanishi — bu faqat ijtimoiy yoki madaniy hodisa emas, balki murakkab psixologik jarayondir. Shaxsning global muhitga moslashuvi, o‘zini anglash, ijtimoiy qadriyatlar tizimida o‘z o‘rnini topa olishi — bu zamonaviy ta’limning asosiy maqsadiga aylanmoqda.

XULOSA

Globallashuv jarayoni zamonaviy inson hayotining barcha jabhalariga chuqur kirib borgan bo‘lib, shaxsning shakllanishi, ijtimoiy moslashuvi va ma’naviy-axloqiy rivojlanishiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, globallashuvning ta’lim-tarbiyaviy jarayonlarga singib borishi natijasida shaxs ongida yangi qadriyatlar tizimi shakllanmoqda, bu esa milliy va umuminsoniy qadriyatlarning o‘zaro uyg‘unlashuvini taqozo etadi.

Pedagogik nuqtayi nazardan, globallashuv sharoitida shaxsni tarbiyalash jarayonida ta’limning insonparvar, innovatsion va integrativ yondashuvlari muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy ta’lim tizimi shaxsni mustaqil fikrlashga, ijtimoiy javobgarlikka, raqamli savodxonlikka va kommunikativ madaniyatga o‘rgatishi lozim. Shuningdek, ta’lim muassasalarida milliy o‘zlikni saqlagan holda, global tafakkurga ega shaxsni shakllantirish strategiyasi ustuvor yo‘nalish sifatida belgilanishi zarur.

Psixologik jihatdan esa, globallashuv insonning o‘zini anglash, o‘zini baholash va ijtimoiy identifikatsiya jarayonlariga bevosita ta’sir etadi. Global madaniyat, ommaviy axborot vositalari va raqamli platformalar yoshlarning psixik holati, hissiy barqarorligi hamda shaxslararo munosabatlariga ijobiy va salbiy yo‘nalishda ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu bois, yosh avlodda axborot immunitetini shakllantirish, emosional intellektni rivojlantirish hamda psixologik barqarorlikni ta’minlash zamonaviy ta’lim psixologiyasining dolzarb vazifalaridan biridir.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, globallashuv sharoitida shaxs shakllanishi quyidagi omillar bilan belgilanadi:

Madaniy integratsiya — shaxsning turli madaniyatlar bilan muloqotda bo‘lishi natijasida dunyoqarashining kengayishi.

Axborot oqimi intensivligi — shaxs tafakkuri, qadriyat tizimi va xulq-atvoriga tezkor axborotning ta’siri.

Ta’limning global standartlari — o‘quv jarayonida xalqaro yondashuvlar va kompetensiyalar tizimining shakllanishi.

Psixologik moslashuv — shaxsning yangi ijtimoiy-madaniy muhitga moslashish qobiliyati va stressga bardoshliligi.

Shunday qilib, globallashuv insonning o‘zini anglash jarayonida yangi psixologik va pedagogik mexanizmlarni yuzaga keltiradi. Shu jihatdan, shaxsni global tafakkurga ega, ammo milliy qadriyatlarni e’zozlovchi barkamol inson sifatida shakllantirish zamonaviy pedagogik-psixologik ilm-fanning asosiy maqsadi bo‘lishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Toffler, A. (1980). The Third Wave. New York: Bantam Books.
2. Bauman, Z. (1998). Globalization: The Human Consequences. New York: Columbia University Press.
3. Giddens, A. (1990). The Consequences of Modernity. Stanford: Stanford University Press.
4. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press.
5. Maslow, A. H. (1954). Motivation and Personality. New York: Harper & Row.
6. Fromm, E. (1994). Escape from Freedom. New York: Henry Holt & Company.
7. Rogers, C. (1961). On Becoming a Person: A Therapist’s View of Psychotherapy. Boston: Houghton Mifflin.
8. Abduqodirov, A. A. (2018). Pedagogik mahorat asoslari. Toshkent: TDPU nashriyoti.
9. Hasanboeva, O., & Saidahmedov, N. (2019). Pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Toshkent: Fan.

10. Quronov, M., & G‘anieva, R. (2021). Globallashuv davrida yoshlar ma’naviyati: muammo va yechimlar. Toshkent: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi nashriyoti.

O‘SPIRINLIK YOSHI DAVRIDA SUITSIDAL XULQ MUAMMOSINING PSIXOLOGIK TADQIQOTLARDA O‘RGANILGANLIK HOLATI

Sadilloyev Odiljon Oripovich
Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘spirinlik yoshi davrida suitsidal xulq muammosining psixologik tadqiqotlarda o‘rganilganlik holati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Suitsidal xulqning psixologik mohiyati, uning shakllanishiga ta’sir etuvchi individual-psixologik, emotsional, oilaviy va ijtimoiy-psixologik omillar yoritilgan. O‘spirinlarda depressiv kechinmalar, umidsizlik, emotsional beqarorlik, impulsivlik, yolg‘izlik, past o‘z-o‘zini baholash, oilaviy nizolar, tengdoshlar bilan munosabatlardagi muammolar, bullying va ijtimoiy izolyatsiyaning suitsidal xavf bilan bog‘liqligi tahlil etilgan. Shuningdek, rezilyentlik, konstruktiv koping strategiyalari, oilaviy va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash kabi himoya omillarining profilaktik ahamiyati asoslangan. Mavjud ilmiy yondashuvlarni umumlashtirish asosida o‘spirinlik davridagi suitsidal xulqni xavf va himoya omillarining o‘zaro ta’siriga asoslangan kompleks biopsixososial hamda sotsioekologik yondashuv doirasida tadqiq etish zarurligi ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: o‘spirinlik davri, suitsidal xulq, suitsidal fikr, suitsidal xavf, psixologik determinantlar, depressiv kechinmalar, umidsizlik, emotsional regulyatsiya, impulsivlik, yolg‘izlik, o‘z-o‘zini baholash, oilaviy munosabatlar, bullying, ijtimoiy izolyatsiya, koping strategiyalari, rezilyentlik, psixologik himoya omillari, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, suitsidal xulq profilaktikasi.

СОСТОЯНИЕ ИЗУЧЕННОСТИ ПРОБЛЕМЫ СУИЦИДАЛЬНОГО ПОВЕДЕНИЯ В ЮНОШЕСКОМ ВОЗРАСТЕ В ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЯХ

Аннотация. В данной статье с научно-теоретической точки зрения проанализировано состояние изученности проблемы суицидального поведения в юношеском возрасте в психологических исследованиях. Раскрыты психологическая сущность суицидального поведения, а также индивидуально-психологические, эмоциональные, семейные и социально-психологические факторы, влияющие на его формирование. Проанализирована взаимосвязь суицидального риска у лиц юношеского возраста с депрессивными переживаниями, безнадёжностью, эмоциональной неустойчивостью, импульсивностью, одиночеством, низкой самооценкой, семейными конфликтами, проблемами во взаимоотношениях со сверстниками,

буллингом и социальной изоляцией. Обосновано профилактическое значение таких защитных факторов, как резильентность, конструктивные копинг-стратегии, семейная и социальная поддержка. На основе обобщения существующих научных подходов показана необходимость исследования суицидального поведения в юношеском возрасте в рамках комплексного биопсихосоциального и социально-экологического подходов, основанных на взаимодействии факторов риска и защитных факторов.

Ключевые слова: юношеский возраст, суицидальное поведение, суицидальные мысли, суицидальный риск, психологические детерминанты, депрессивные переживания, безнадёжность, эмоциональная регуляция, импульсивность, одиночество, самооценка, семейные отношения, буллинг, социальная изоляция, копинг-стратегии, резильентность, психологические защитные факторы, социальная поддержка, профилактика суицидального поведения.

THE STATE OF RESEARCH ON THE PROBLEM OF SUICIDAL BEHAVIOR IN ADOLESCENCE IN PSYCHOLOGICAL STUDIES

Abstract. This article provides a scientific and theoretical analysis of the current state of research on the problem of suicidal behavior in adolescence within psychological studies. It examines the psychological nature of suicidal behavior and the individual psychological, emotional, family, and socio-psychological factors influencing its development. Particular attention is paid to the relationship between suicidal risk among adolescents and depressive experiences, hopelessness, emotional instability, impulsivity, loneliness, low self-esteem, family conflicts, difficulties in peer relationships, bullying, and social isolation. The preventive significance of protective factors such as resilience, constructive coping strategies, family support, and social support is also substantiated. Based on a synthesis of existing scientific approaches, the article emphasizes the need to investigate suicidal behavior in adolescence within comprehensive biopsychosocial and socio-ecological frameworks that consider the interaction between risk and protective factors.

Keywords: adolescence, suicidal behavior, suicidal ideation, suicide risk, psychological determinants, depressive experiences, hopelessness, emotional regulation, impulsivity, loneliness, self-esteem, family relationships, bullying, social isolation, coping strategies, resilience, psychological protective factors, social support, suicide prevention.

KIRISH

O‘spirinlik davri shaxs ontogenezining murakkab va psixologik jihatdan sezgir bosqichlaridan biri bo‘lib, bu davrda biologik yetilish, shaxsiy identifikatsiya, mustaqillikka intilish, ijtimoiy mavqeni belgilash, tengdoshlar bilan munosabatlarning kuchayishi hamda kelajak istiqbollarini anglash jarayonlari bir vaqtda kechadi. Mazkur o‘zgarishlar o‘spirinning emotsional holati, o‘z-o‘zini baholashi, frustratsiyaga chidamliligi va stressli vaziyatlarga munosabatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli o‘spirinlik davrida yuzaga keladigan suitsidal fikrlar va xulq-atvorni faqat alohida psixologik muammo sifatida emas, balki individual, oilaviy, ijtimoiy va vaziyatli omillarning o‘zaro ta’siri natijasida shakllanadigan murakkab biopsixososial hodisa sifatida o‘rganish zarur.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlarida o‘smir va yoshlar ruhiy salomatligiga ta’sir qiluvchi omillarning ko‘pligi ta’kidlanadi. Xususan, zo‘ravonlik va boshqa salbiy hayotiy tajribalar, tengdoshlar bosimi, ijtimoiy chetlanish, ruhiy salomatlik bilan bog‘liq muammolar, yordam so‘rashga nisbatan stigma va zarur xizmatlardan foydalanishdagi to‘siqlar suitsidal xavf bilan bog‘liq omillar qatorida ko‘rsatiladi. Demak, o‘spirinlikdagi suitsidal xulqni tushuntirishda shaxsning ichki psixologik holatini uning ijtimoiy muhitidan ajratib tahlil qilish yetarli emas.

Psixologik adabiyotlarda **suitsidal xulq** insonning o‘z hayotiga qasddan zarar yetkazishga qaratilgan fikr, niyat va xatti-harakatlarning turli ko‘rinishlarini ifodalovchi umumlashtiruvchi tushuncha sifatida qo‘llaniladi. Tadqiqotlarda odatda suitsidal fikrlar (suicidal ideation), suitsidal reja (suicide plan), suitsidal urinish (suicide attempt) va o‘lim bilan yakunlangan suitsid bir-biridan farqlanadi. Shuningdek, o‘ziga qasddan zarar yetkazish holatlarini suitsidal niyat mavjud yoki mavjud emasligiga qarab differensial baholash muhim hisoblanadi.

Suitsidal xulqni ilmiy o‘rganishning rivojlanishi ushbu hodisani yagona sabab bilan tushuntirib bo‘lmasligini ko‘rsatdi. Dastlabki yondashuvlarda ruhiy buzilishlar, depressiv holat yoki og‘ir hayotiy inqirozga ko‘proq urg‘u berilgan bo‘lsa, zamonaviy tadqiqotlarda individual psixologik xususiyatlar, emotsional regulyatsiya, oilaviy munosabatlar, tengdoshlar muhiti, ijtimoiy izolyatsiya, travmatik tajriba va makroijtimoiy sharoitlarning o‘zaro ta’siri tahlil qilinmoqda. 2018–2024-yillardagi tadqiqotlarni umumlashtirgan zamonaviy umbrella-review individual, shaxslararo, ijtimoiy va ekologik darajadagi omillarni birlashtiruvchi **sotsioekologik model**ning istiqbolli ekanligini ko‘rsatadi.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

Suitsidal xulqning psixologik mohiyatini tushuntirishga qaratilgan ilmiy qarashlar uzoq tarixga ega. E. Dyurkgeym suitsidni ijtimoiy integratsiya va ijtimoiy regulyatsiya jarayonlari bilan bog‘lagan bo‘lsa, psixoanalitik yo‘nalishda Z. Freyd suitsidal tendensiyalarni agressiyaning shaxsning o‘ziga yo‘nalishi bilan izohlashga

harakat qilgan. Keyinchalik K. Menninger o‘z-o‘zini destruktiv xulqning ichki psixodinamik mexanizmlarini rivojlantirdi.

Suitsidal xulqni kognitiv nuqtayi nazardan o‘rganishda **Aaron Beck** tadqiqotlari alohida ahamiyatga ega. Uning ilmiy qarashlarida depressiya bilan bir qatorda **umidsizlik** (hopelessness) kelajakni salbiy baholash va muammoning yechimini ko‘ra olmaslik bilan bog‘liq muhim psixologik konstrukt sifatida qaraladi. Bunday yondashuv o‘spirinning “vaziyat o‘zgarmaydi”, “muammodan chiqish yo‘li mavjud emas” kabi qat’iy salbiy kognitiv xulosalari suitsidal xavfni kuchaytirishi mumkinligini tushuntirish imkonini beradi.

Edvin Shneidman suitsidologiyada “psixologik og‘riq” (psychache) konsepsiyasini ilgari surib, chidab bo‘lmas ruhiy iztirobni suitsidal xulqning muhim ichki mexanizmlaridan biri sifatida tavsiflagan. Ushbu yondashuvga ko‘ra, shaxs ko‘pincha hayotning o‘zidan emas, balki subyektiv jihatdan chidab bo‘lmas deb qabul qilinayotgan ruhiy azobdan qutulish yo‘lini izlaydi. Bu g‘oya o‘spirinlar bilan olib boriladigan diagnostik va profilaktik ishda subyektiv emotsional og‘riqni aniqlashning ahamiyatini ko‘rsatadi.

Keyingi nazariyalarda suitsidal xulqning shaxslararo determinantlari ham keng o‘rganildi. Xususan, T. Joinerning shaxslararo-psixologik nazariyasida shaxsning boshqalarga yuk bo‘lib qolganlik hissi, ijtimoiy aloqadorlik ehtiyojining qondirilmasligi va o‘ziga zarar yetkazishdan qo‘rqishning pasayishi kabi mexanizmlar muhim deb qaraladi. O‘spirinlik davrida tengdoshlar tomonidan rad etilish, oilada o‘zini keraksiz his qilish, yolg‘izlik va ijtimoiy izolyatsiya mazkur konsepsiya nuqtayi nazaridan alohida ahamiyat kasb etadi.

Empirik tadqiqotlarning katta qismi suitsidal xulqning **polideterminant**, ya’ni ko‘p omilli tabiatga ega ekanligini tasdiqlaydi. E. Evans, K. Havton va K. Rodham tomonidan amalga oshirilgan klassik tizimli tahlilda o‘spirinlardagi suitsidal hodisalar bilan bog‘liq omillar psixiatrik, psixologik, jismoniy, individual, oilaviy va ijtimoiy sohalarni qamrab olishi ko‘rsatilgan.

Zamonaviy tadqiqotlar bu xulosani yanada kengaytirmoqda. 33 ta sharh va 1149 ta individual tadqiqotni qamrab olgan umbrella-review o‘spirinlarda o‘ziga zarar yetkazish va suitsidallikning individual, munosabatlar, jamoa hamda jamiyat darajasidagi xavf va himoya omillarini umumlashtirgan. Unda, jumladan, **bullying qurboni bo‘lish** muhim ekologik xavf omillaridan biri sifatida ajratilgan.

Psixologik nuqtayi nazardan quyidagi determinantlar ayniqsa muhimdir:

1. **Depressiv kechinmalar va umidsizlik.** O‘z kelajagini salbiy baholash, hayotiy istiqbolning yo‘qolishi, o‘zini qadrsiz his qilish va muammolarni hal qilib bo‘lmaydigan deb qabul qilish suitsidal fikrlarning shakllanishiga zamin yaratishi mumkin.

2. **Emotsional regulyatsiya qiyinchiliklari.** Kuchli salbiy emotsiyalarni boshqarish, qayta ishlash va konstruktiv ifodalash ko‘nikmalarining yetishmasligi affektiv zo‘riqishni kuchaytiradi.

3. **Impulsivlik.** O‘spirinlikka xos emotsional reaktivlik va impulsiv qaror qabul qilish inqirozli vaziyatda xavfli xatti-harakat ehtimolini oshiruvchi omil bo‘lishi mumkin.

4. **Yolg‘izlik va ijtimoiy izolyatsiya.** Shaxslararo munosabatlarning buzilishi, tengdoshlar guruhidan chetlanish va yaqin emotsional aloqalarning yetishmasligi psixologik himoyani zaiflashtiradi.

5. **Past o‘z-o‘zini baholash va o‘zini qabul qilmaslik.** O‘ziga nisbatan barqaror salbiy munosabat, o‘zini muvaffaqiyatsiz yoki keraksiz deb baholash boshqa xavf omillari bilan birgalikda suitsidal vulnerabellikni oshirishi mumkin.

6. **Travmatik va stressogen hayotiy hodisalar.** Oilaviy nizolar, zo‘ravonlik, yo‘qotishlar, tengdoshlar bilan konflikt, bullying va boshqa kuchli stressorlar xavfni kuchaytirishi mumkin.

Bu omillarning ahamiyati meta-analitik tadqiqotlarda ham tasdiqlangan. Masalan, yoshlar orasidagi longitudinal tadqiqotlar meta-tahlilida ruhiy buzilishlarning mavjudligi suitsidal xulq xavfining sezilarli oshishi bilan bog‘langan; psixiatrik komorbidlik esa alohida ahamiyatga ega bo‘lgan. Shuningdek, internalizatsion va eksternalizatsion simptomlar bo‘yicha meta-tahlilda depressiv simptomlar, xavotir va xulqiy muammolarning keyingi suitsidal xatti-harakatlar bilan bog‘liqligi aniqlangan.

O‘spirinning psixologik rivojlanishida oila yetakchi mikromuhit bo‘lib qoladi. Shu sababli suitsidal xulq tadqiqotlarida ota-ona va farzand munosabatlari, emotsional yaqinlik, oiladagi konfliktlar, nazorat uslubi, zo‘ravonlik va psixologik qo‘llab-quvvatlash darajasi muhim tadqiqot obyektlari hisoblanadi.

Zamonaviy tadqiqotlar **bog‘lanish (attachment)** xususiyatlariga ham alohida e’tibor bermoqda. 2026-yilda e’lon qilingan tizimli sharh va meta-tahlil o‘spirinlardagi bog‘lanish xususiyatlari bilan suitsidal fikrlar va urinishlar o‘rtasidagi munosabatlarni 54 ta tadqiqot asosida tahlil qilgan. Natijalar xavfsiz bog‘lanishning suitsidal fikrlar bilan teskari, bog‘lanish xavotirining esa ijobiy bog‘lanishga ega ekanini ko‘rsatgan.

Demak, oiladagi emotsional qo‘llab-quvvatlashni faqat tashqi ijtimoiy omil deb emas, balki o‘spirinning stressga chidamliligi, o‘z qadrini his qilishi, yordam so‘rash xulqi va emotsional regulyatsiyasini shakllantiruvchi **psixologik himoya resursi** sifatida baholash maqsadga muvofiq.

TAHLIL VA NATIJALAR

Suitsidal xulqning shaxsiy determinantlarini o‘rganish zamonaviy psixologiyaning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Tadqiqotlarda impulsivlik, yuqori nevrotizm, emotsional beqarorlik, agressivlik, rigidlik, perfektsionistik tendensiyalar, o‘zini past baholash va frustratsiyaga nisbatan past tolerantlik kabi xususiyatlar o‘rganilgan.

Bolalar va o‘spirinlardagi suitsidallikning psixososial omillariga bag‘ishlangan tizimli sharhda uchta yirik xavf guruhi ajratilgan: **psixologik omillar** (jumladan depressiya, xavotir, avvalgi suitsidal urinish va komorbid ruhiy muammolar), **stressli hayotiy hodisalar** (oilaviy muammolar, tengdoshlar bilan nizolar) hamda **shaxs xususiyatlari** (jumladan nevrotizm va impulsivlik).

Shaxs patologiyasi bo‘yicha tadqiqotlarda ham muhim natijalar mavjud. Tizimli sharhlar o‘spirinlardagi suitsidallik bilan, ayniqsa, chegaraviy shaxs xususiyatlari o‘rtasidagi munosabatga katta ilmiy e’tibor qaratilganini ko‘rsatadi. Biroq bunday bog‘liqliklarni deterministik tarzda talqin qilish mumkin emas: biror shaxs xususiyatining mavjudligi o‘z-o‘zidan suitsidal xatti-harakat sodir bo‘lishini anglatmaydi.

O‘spirin shaxsining psixologik holati uning ijtimoiy munosabatlari bilan chambarchas bog‘liq. Zamonaviy tadqiqotlarda tengdoshlar tomonidan rad etilish, bullying va kiberbullying, ijtimoiy yolg‘izlik, oiladagi nizolar, zo‘ravonlik tajribasi, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning yetishmasligi va ijtimoiy tengsizlik kabi omillar keng tahlil qilinmoqda.

2026-yilda 12–26 yoshli yoshlarning suitsidalligiga ta’sir qiluvchi ijtimoiy determinantlarni o‘rgangan katta tizimli sharh 325 ta tadqiqot va qariyb 6 million ishtirokchini qamrab olgan. Mualliflar demografik, iqtisodiy, mahalla va yashash muhiti, ekologik hamda sotsiomadaniy determinantlarni alohida tahlil qilib, yoshlar suitsidalligini individual psixologik omillar bilangina tushuntirish yetarli emasligini ko‘rsatgan.

Bu holat o‘spirinlik davridagi suitsidal xulqni o‘rganishda **“shaxs – oila – tengdoshlar – ta’lim muhiti – jamiyat”** tizimini yagona tadqiqot maydoni sifatida ko‘rib chiqishni talab etadi.

Suitsidologiyadagi zamonaviy tendensiyalardan biri faqat xavf omillarini aniqlash bilan cheklanmay, **himoya omillari va psixologik resurslarni** tadqiq etishga o‘tishdir. Sistematik tadqiqotlarda o‘spirinning ichki va tashqi resurslarini aniqlash suitsidal xulq profilaktikasining muhim yo‘nalishi sifatida qaralmoqda.

Psixologik himoya mexanizmlariga rezilyentlik, konstruktiv koping strategiyalari, muammoni hal qilish ko‘nikmalari, emotsional o‘zini boshqarish, adekvat o‘z-o‘zini baholash, hayot mazmunini his qilish, kelajak istiqbolining mavjudligi va yordam so‘rashga tayyorlikni kiritish mumkin. Tashqi resurslar esa

oilaviy qo‘llab-quvvatlash, ishonchli kattalar bilan munosabat, tengdoshlar qo‘llab-quvvatlashi, maktab yoki ta’lim muassasasidagi sog‘lom psixologik muhit va professional psixologik yordamdan foydalanish imkoniyatlarini qamrab oladi.

Shu jihatdan **rezilyentlik** tushunchasi muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. Bir xil stressogen yoki travmatik vaziyatga duch kelgan o‘spirinlarning psixologik reaksiyalari bir xil bo‘lmaydi. Demak, ilmiy tadqiqotlarda “nima uchun ayrim o‘spirinlarda suitsidal xavf shakllanadi?” degan savol bilan bir qatorda “nima sababdan boshqa o‘spirinlar xuddi shunday og‘ir sharoitlarda psixologik barqarorligini saqlab qoladi?” degan savol ham o‘rganilishi zarur.

O‘spirinlar suitsidal xulqini tadqiq etishda bir qator metodologik muammolar saqlanib qolmoqda. Birinchidan, tadqiqotlarda “suitsidal fikr”, “o‘ziga zarar yetkazish”, “suitsidal urinish” va “suitsidal xulq” tushunchalarining chegaralari har doim ham bir xil belgilanmaydi. Ikkinchidan, ko‘plab tadqiqotlar ko‘ndalang (cross-sectional) dizaynga asoslanganligi sababli sabab-oqibat munosabatlarini aniq belgilash qiyin. Uchinchidan, xavf omillariga bag‘ishlangan tadqiqotlar himoya omillarini o‘rganuvchi tadqiqotlarga nisbatan ko‘proq.

2018–2024-yillardagi 37 ta yuqori darajadagi sharhni tahlil qilgan tadqiqot ham jamiyat va jamoa darajasidagi omillar hamda ayniqsa himoya omillari bo‘yicha ilmiy ishlarning yetarli emasligini qayd etadi.

Shuningdek, o‘spirinlarning o‘ziga zarar yetkazishi va suitsidal xulqi bo‘yicha 2025-yilgi tizimli tahlilda tadqiqotlarning bir qismi kesimli dizaynga ega ekanligi va ayrim populyatsiyalarning yetarlicha namoyon bo‘lmagani metodologik cheklov sifatida ko‘rsatilgan.

Yuqoridagi ilmiy tadqiqotlar tahlili o‘spirinlik davrida suitsidal xulqni o‘rganishda quyidagi konseptual model istiqbolli ekanini ko‘rsatadi:

Suitsidal xavf = individual-psixologik vulnerabellik + emotsional disregulyatsiya + stressogen/travmatik tajriba + oilaviy va shaxslararo muammolar + ijtimoiy muhit ta’siri – psixologik va ijtimoiy himoya resurslari.

Mazkur formula matematik qonuniyat emas, balki tadqiqot uchun konseptual sxema sifatida tushunilishi kerak. Uning asosiy afzalligi suitsidal xulqni bir omilning bevosita natijasi sifatida emas, balki xavf va himoya omillarining dinamik o‘zaro ta’siri sifatida tushuntirishidadir.

Shu asosda istiqboldagi psixologik tadqiqotlarda o‘spirinlarning depressiv kechinmalari va umidsizlik darajasi; emotsional regulyatsiya xususiyatlari; impulsivlik; o‘z-o‘zini baholash; yolg‘izlik; frustratsion tolerantlik; oilaviy munosabatlar; ota-ona bilan bog‘lanish; bullying va kiberbullying tajribasi; ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash; koping strategiyalari; rezilyentlik hamda hayot mazmuni kabi ko‘rsatkichlarni kompleks ravishda o‘rganish maqsadga muvofiq.

XULOSA

O‘spirinlik davrida suitsidal xulq muammosining psixologik tadqiqotlarda o‘rganilganlik holati tahlili shuni ko‘rsatadiki, mazkur fenomen **ko‘p omilli, ko‘p darajali va dinamik psixologik hodisa** hisoblanadi. Ilmiy qarashlarning evolyutsiyasi suitsidni alohida patologik yoki individual hodisa sifatida tushuntirishdan biopsixososial va sotsioekologik modellarga tomon rivojlangan.

Zamonaviy empirik ma’lumotlar depressiv simptomlar, umidsizlik, emotsional regulyatsiya qiyinchiliklari, impulsivlik, avvalgi o‘ziga zarar yetkazish holatlari, oilaviy nizolar, tengdoshlar bilan muammolar, bullying, yolg‘izlik va ijtimoiy izolyatsiya kabi omillarning muhimligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ushbu omillarning hech biri alohida holda suitsidal xulqni muqarrar ravishda belgilamaydi; xavf ularning o‘zaro birikishi va himoya resurslarining zaiflashuvi sharoitida ortishi mumkin.

Shundan kelib chiqib, o‘spirinlik davrida suitsidal xulqni o‘rganishning zamonaviy metodologiyasi **“xavf omillarini aniqlash” modelidan “xavf + himoya resurslari + ijtimoiy kontekst + rivojlanish xususiyatlari” modeliga** o‘tishi zarur. Ayniqsa, milliy sotsiomadaniy muhitda o‘spirinlarning suitsidal xavfini belgilovchi psixologik determinantlar, oilaviy munosabatlar, emotsional regulyatsiya, rezilyentlik va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning o‘zaro munosabatlarini longitudinal va kompleks tadqiqotlar asosida o‘rganish ilmiy jihatdan dolzarb hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Evans E., Hawton K., Rodham K. Factors associated with suicidal phenomena in adolescents: A systematic review of population-based studies // Clinical Psychology Review. – 2004. – Vol. 24, No. 8. – P. 957–979.
2. Ati N.A.L., Paraswati M.D., Windarwati H.D. What are the risk factors and protective factors of suicidal behavior in adolescents? A systematic review // Journal of Child and Adolescent Psychiatric Nursing. – 2021. – Vol. 34, No. 1. – P. 7–18.
3. Prades-Caballero V., Navarro-Pérez J.J., Carbonell Á. Factors associated with suicidal behavior in adolescents: An umbrella review using the socio-ecological model // Community Mental Health Journal. – 2025. – Vol. 61, No. 4. – P. 612–628.
4. Soto-Sanz V. et al. Internalizing and externalizing symptoms and suicidal behaviour in young people: A systematic review and meta-analysis of longitudinal studies // Acta Psychiatrica Scandinavica. – 2019.
5. Wang X., Pratt D., Zhong Q., Berry K. Attachment concepts and suicidal thoughts and behaviours in adolescents: A systematic review and meta-

analysis // Clinical Psychology & Psychotherapy. – 2026. – Vol. 33, No. 2. – Art. e70251.

6. Bahamondes-Álvarez R. et al. Understanding the social determinants of suicidality among young people aged 12–26 years: A mixed-methods systematic review // Community Mental Health Journal. – 2026.

7. Elov Z.S. O‘smirlik davrida suitsidal xavfni aniqlash va psixologik korreksiya mexanizmlarini tadqiq etish // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences. – 2026. – Vol. 6. – B. 531–533.

8. Elov Z.S. O‘z joniga qasd qilish salbiy ijtimoiy-psixologik holat sifatida // Zamonaviy ta’lim tizimini rivojlantirish va unga qaratilgan kreativ g‘oyalar, takliflar va yechimlar. – 2025. – B. 15–27.

9. Elov Z.S. O‘z joniga qasd qilish holati o‘smirlar orasida psixologik muammo sifatida // IQRO jurnali. – 2025. – T. 1, № 2. – B. 134–142.

10. Elov Z.S. O‘z joniga qasd qilish masalasi jamiyat oldida turgan muhim ijtimoiy-psixologik muammo sifatida // Journal of Pedagogical and Psychological Studies. – 2023. – T. 1, № 12. – B. 50–54.

11. Elov Z.S. Suitsidal xulq-atvor haqida tahlillar va nazariyalar // Pedagogik va psixologik tadqiqotlar. – 2023. – T. 1, № 10. – B. 11–22.

JAZO MUDDATINI O‘TAYOTGAN SHAXSLARGA TA’SIR ETADIGAN IJTIMOIY-PSIXOLOGIK TA’SIRLAR

Manzitov Baxtiyor Tolibovich
Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada jazo muddatini o‘tayotgan shaxslarga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Penitensiar muhit, ijtimoiy izolyatsiya va deprivatsiya, mahkumlar o‘rtasidagi guruhiy munosabatlar, konformlik, guruhiy bosim, stigmatizatsiya hamda institutsionalizatsiyaning shaxs psixologik holati va xulq-atvoriga ta’siri yoritilgan. Shuningdek, oila va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, jazoni ijro etish muassasasi xodimlari bilan munosabatlar, ta’lim va mehnat faoliyatining mahkumlarning psixologik moslashuvi va resotsializatsiyasidagi ahamiyati ochib berilgan. Jazo muddatini o‘tayotgan shaxslarning psixologik barqarorligini ta’minlash, destruktiv ijtimoiy ta’sirlarni kamaytirish va ularni jamiyatga muvaffaqiyatli reintegratsiya qilishda kompleks ijtimoiy-psixologik yondashuv zarurligi asoslangan.

Kalit so‘zlar: jazo muddatini o‘tayotgan shaxs, mahkum, penitensiar psixologiya, penitensiar muhit, ijtimoiy-psixologik ta’sir, ijtimoiy izolyatsiya, deprivatsiya, guruhiy bosim, konformlik, stigmatizatsiya, institutsionalizatsiya, psixologik moslashuv, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, resotsializatsiya, reintegratsiya, psixologik korreksiya.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ЛИЦ, ОТБЫВАЮЩИХ НАКАЗАНИЕ

Аннотация. В данной статье с научно-теоретической точки зрения анализируются социально-психологические факторы, влияющие на лиц, отбывающих наказание. Рассматривается влияние пенитенциарной среды, социальной изоляции и депривации, групповых отношений между осуждёнными, конформности, группового давления, стигматизации и институционализации на психологическое состояние и поведение личности. Раскрывается значение семейной и социальной поддержки, взаимоотношений с сотрудниками учреждений исполнения наказания, образовательной и трудовой деятельности в психологической адаптации и ресоциализации осуждённых. Обоснована необходимость комплексного социально-психологического подхода к обеспечению психологической устойчивости лиц, отбывающих наказание, снижению деструктивных социальных воздействий и их успешной реинтеграции в общество.

Ключевые слова: лицо, отбывающее наказание, осуждённый, пенитенциарная психология, пенитенциарная среда, социально-психологическое воздействие, социальная изоляция, депривация, групповое давление, конформность, стигматизация, институционализация, психологическая адаптация, социальная поддержка, ресоциализация, реинтеграция, психологическая коррекция.

SOCIO-PSYCHOLOGICAL FACTORS AFFECTING INDIVIDUALS SERVING SENTENCES

Abstract. This article provides a scientific and theoretical analysis of the socio-psychological factors affecting individuals serving sentences. It examines the influence of the penitentiary environment, social isolation and deprivation, group relationships among inmates, conformity, group pressure, stigmatization, and institutionalization on individuals' psychological state and behavior. Particular attention is paid to the role of family and social support, relationships with correctional institution staff, as well as educational and work activities in the psychological adaptation and resocialization of inmates. The necessity of a comprehensive socio-psychological approach to maintaining the psychological stability of individuals serving sentences, reducing destructive social influences, and facilitating their successful reintegration into society is substantiated.

Keywords: individuals serving sentences, inmates, penitentiary psychology, penitentiary environment, socio-psychological influence, social isolation, deprivation, group pressure, conformity, stigmatization, institutionalization, psychological adaptation, social support, resocialization, reintegration, psychological correction.

KIRISH

Jazo muddatini o‘tayotgan shaxslarning psixologik holati va xulq-atvorini o‘rganish penitensiar psixologiyaning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Ozodlikdan mahrum qilish sharoiti shaxsning odatiy ijtimoiy muhitdan ajralishi, erkin harakatlanish imkoniyatlarining cheklanishi, ijtimoiy rollarning o‘zgarishi hamda yangi tartib-qoidalarga moslashish zarurati bilan tavsiflanadi. Bunday sharoit mahkumning emotsional holati, o‘z-o‘zini baholashi, shaxslararo munosabatlari, kelajakka munosabati va ijtimoiy identifikatsiyasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli jazo muddatini o‘tayotgan shaxsga ta’sir qiluvchi omillarni individual psixologik xususiyatlar bilangina emas, balki penitensiar muhitning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari bilan o‘zaro bog‘liqlikda tahlil qilish zarur.

Jazoni ijro etish muassasasiga tushish shaxs hayotidagi keskin ijtimoiy o‘zgarish hisoblanadi. Shaxs avvalgi oilaviy, kasbiy va ijtimoiy munosabatlaridan

ma’lum darajada ajralib, qat’iy belgilangan kun tartibi va xulq-atvor me’yorlariga ega bo‘lgan yopiq ijtimoiy muhitga moslashishi kerak bo‘ladi. Natijada xavotir, psixologik zo‘riqish, frustratsiya, yolg‘izlik, kelajakka nisbatan noaniqlik kabi holatlar yuzaga kelishi mumkin.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

Jazo muddatini o‘tayotgan shaxslarga ijtimoiy-psixologik ta’sir masalalari xorijiy va MDH olimlarining tadqiqotlarida keng yoritilgan. E. Goffman yopiq institutsional muhitning shaxs ijtimoiy identifikatsiyasiga ta’sirini, D. Clemmer penitensiar muhitga moslashish va “prizonizatsiya” jarayonini, G. Sykes esa ozodlikdan mahrum qilish sharoitidagi ijtimoiy-psixologik deprivatsiyalarni tadqiq etgan. A. Banduraning ijtimoiy o‘rganish nazariyasi mahkumlar guruhidagi taqlid, identifikatsiya va xulq-atvor modellarini o‘zlashtirish mexanizmlarini tushuntirishda muhim nazariy asos hisoblanadi.

MDH olimlaridan Yu.M. Antonyan, V.F. Pirojkov, A.I. Ushatikov, B.B. Kazak tadqiqotlarida mahkum shaxsining psixologik xususiyatlari, penitensiar muhit, mahkumlar o‘rtasidagi guruhiy munosabatlar, ijtimoiy-psixologik moslashuv hamda resotsializatsiya muammolari o‘rganilgan.

O‘zbekiston psixologiyasida E.G‘. G‘oziyev, G‘.B. Shoumarov, V.M. Karimova tadqiqotlarida shaxsning ijtimoiylashuvi, guruhiy munosabatlar, ijtimoiy ta’sir va xulq-atvorning psixologik mexanizmlari yoritilgan. Mavjud tadqiqotlar tahlili mahkumlarga ta’sir etuvchi penitensiar muhit, guruhiy bosim, ijtimoiy izolyatsiya, stigmatizatsiya, oilaviy qo‘llab-quvvatlash va resotsializatsiya omillarini o‘zaro bog‘liqlikda kompleks tadqiq etish zarurligini ko‘rsatadi.

Moslashuv jarayonining kechishi shaxsning yoshi, avvalgi hayotiy tajribasi, jazo muddati, sodir etilgan huquqbuzarlik xususiyati, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash darajasi, individual koping strategiyalari va muassasadagi ijtimoiy-psixologik muhit bilan bog‘liq. Shuning uchun bir xil penitensiar sharoit turli mahkumlarga turlicha psixologik ta’sir ko‘rsatadi.

Jazo muddatini o‘tayotgan shaxsga kuchli ta’sir qiluvchi omillardan biri ijtimoiy deprivatsiya hisoblanadi. Oila, yaqin insonlar va odatiy ijtimoiy muhitdan uzoqlashish shaxsning mansublik, mehr, qo‘llab-quvvatlash va ijtimoiy tan olinishi kabi ehtiyojlarining qondirilishini cheklashi mumkin.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Uzoq davom etuvchi ijtimoiy izolyatsiya ayrim shaxslarda yolg‘izlik, emotsional bo‘shliq, apatiya, o‘ziga ishonchsizlik yoki aksincha, agressiv-himoyaviy reaksiyalarni kuchaytirishi mumkin. Bunda mahkumning oilasi bilan barqaror aloqalarni saqlashi muhim himoya omili sifatida namoyon bo‘ladi. Oila bilan konstruktiv munosabatlarning mavjudligi nafaqat jazo davridagi psixologik

holatga, balki ozodlikka chiqqandan keyingi reintegratsiya jarayoniga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Penitensiar muassasa o‘ziga xos guruhiy munosabatlar tizimiga ega. Mahkumlar o‘rtasida norasmiy guruhlar, statuslar, guruhiy me’yorlar va o‘zaro ta’sir mexanizmlari shakllanishi mumkin. Bunday muhitda konformlik, guruhiy bosim, taqlid, identifikatsiya va ijtimoiy o‘rganish jarayonlari shaxs xulq-atvoriga ta’sir ko‘rsatadi.

Ayrim mahkumlar guruh tomonidan qabul qilinish ehtiyoji tufayli norasmiy guruh me’yorlariga moslashishi mumkin. Agar bunday me’yorlar konstruktiv bo‘lmasa, shaxsda kriminal qadriyatlar va antisotsial xulq stereotiplarining mustahkamlanish xavfi yuzaga keladi. Aksincha, ijobiy yo‘nalishga ega guruhiy faoliyat, ta’lim, mehnat, sport va psixologik dasturlar prosotsial xulq shakllarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Uzoq muddat davomida qat’iy tartibga asoslangan muhitda yashash institutsionalizatsiya hodisasini yuzaga keltirishi mumkin. Bunda shaxs kundalik hayotini mustaqil rejalashtirish va qaror qabul qilish imkoniyatlarining cheklanishiga moslashib boradi. Natijada tashabbuskorlik, mustaqil qaror qabul qilish va shaxsiy javobgarlikni amalga oshirish bilan bog‘liq qiyinchiliklar yuzaga kelishi ehtimoli mavjud.

Bu holat ayniqsa ozodlikka chiqish arafasida muhim ahamiyat kasb etadi. Muassasa sharoitiga haddan tashqari moslashgan shaxs ochiq jamiyatdagi ko‘plab ijtimoiy talablar, kasbiy vazifalar va mustaqil tanlov zarurati oldida qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Shu sababli jazoni ijro etish tizimida resotsializatsiya faqat intizomga rioya qilishni emas, balki shaxsning mustaqilligi va ijtimoiy mas’uliyatini rivojlantirishni ham ko‘zda tutishi lozim.

Mahkumlik maqomi shaxsning o‘zini idrok etishi va jamiyat bilan munosabatiga ham ta’sir qiladi. Stigmatizatsiya, ya’ni shaxsni uning sodir etgan huquqbuzarligi yoki mahkumlik maqomi asosida bir tomonlama salbiy baholash unda ijtimoiy rad etilish hissini shakllantirishi mumkin.

Agar shaxs “jinoyatchi” identifikatsiyasini o‘z shaxsiyatining asosiy xususiyati sifatida qabul qilsa, prosotsial identifikatsiyani qayta shakllantirish murakkablashadi. Shu sababli psixologik va tarbiyaviy ishda huquqbuzarlik sodir etgan xatti-harakat bilan shaxsning umumiy qadri o‘rtasida farq mavjudligini hisobga olish muhimdir. Resotsializatsiya shaxsda yangi ijtimoiy rollar — oila a’zosi, mutaxassis, mehnat qiluvchi fuqaro va jamiyatning mas’uliyatli a’zosi sifatidagi identifikatsiyani rivojlantirishga yo‘naltirilishi kerak.

Mahkumlarning psixologik holatiga muassasa xodimlari bilan munosabatlar ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Xodimlarning kommunikativ uslubi, adolatli

munosabati, talablarning izchilligi va shaxsiy qadr-qimmatga hurmat mahkumning muassasaga munosabati hamda tuzatish jarayonida hamkorlik qilishiga ta’sir qilishi mumkin.

Haddan tashqari konfliktli kommunikatsiya qarshilik, agressiya va ishonchsizlikni kuchaytirishi mumkin. Professional, aniq chegaralarga ega va hurmatga asoslangan munosabat esa psixologik xavfsizlikni ta’minlash hamda konstruktiv xulqni qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi. Shu nuqtayi nazardan penitensiar muassasa xodimlarining psixologik va kommunikativ kompetentligi resotsializatsiyaning muhim shartlaridan hisoblanadi.

Oila bilan munosabatlar mahkumning psixologik barqarorligini saqlashda asosiy ijtimoiy resurslardan biridir. Yaqinlari bilan aloqalarning davom etishi shaxsda jamiyatga mansublik hissini saqlash, kelajakka ijobiy munosabatni shakllantirish va ozodlikdan keyingi hayot uchun maqsadlarni belgilashga yordam beradi.

Aksincha, oilaviy aloqalarning butunlay uzilishi ijtimoiy izolyatsiyani kuchaytirishi va ozodlikdan keyingi moslashuv imkoniyatlarini kamaytirishi mumkin. Shuning uchun mahkum bilan ishlashda uning oilaviy munosabatlarini diagnostika qilish, konstruktiv aloqalarni qo‘llab-quvvatlash va zarur hollarda oilaviy psixologik maslahatlarni tashkil etish muhim hisoblanadi.

Jazo muddatini o‘tayotgan shaxsning ta’lim va mehnat faoliyatiga jalb etilishi uning vaqtini mazmunli tashkil etish bilangina cheklanmaydi. Mehnat va ta’lim shaxsda kompetentlik, mas’uliyat, o‘ziga ishonch va kelajak istiqbolini shakllantiruvchi ijtimoiy-psixologik vosita hisoblanadi.

Kasbiy ko‘nikmalarni egallash ozodlikdan keyingi bandlik imkoniyatlarini kengaytiradi. Ta’lim esa shaxsning dunyoqarashi va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishi mumkin. Shu sababli penitensiar tizimdagi ta’lim va mehnat faoliyati resotsializatsiyaning psixologik mexanizmi sifatida ham baholanishi lozim.

Jazo muddatini o‘tayotgan shaxslar bilan olib boriladigan psixologik ishning strategik maqsadi shaxsning jamiyatga qayta moslashuvini ta’minlashdir. Bunda psixodiagnostika, individual psixologik maslahat, guruhiy treninglar, konfliktlarni konstruktiv hal qilish, agressiyani boshqarish, emotsional regulyatsiya, ijtimoiy ko‘nikmalar va muammoni hal qilish kompetensiyalarini rivojlantirish muhimdir.

Psixologik ta’sirning samaradorligi faqat salbiy xususiyatlarni korreksiya qilish bilan belgilanmasligi kerak. Zamonaviy yondashuv mahkumning psixologik resurslari, kuchli tomonlari, prosotsial motivlari va kelajak istiqbollarini rivojlantirishga ham asoslanadi. Shaxs o‘z kelajagini real rejalashtira boshlashi, jamiyatda qonuniy vositalar orqali o‘z ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlarini ko‘ra olishi resotsializatsiyaning muhim psixologik ko‘rsatkichidir.

XULOSA

Jazo muddatini o‘tayotgan shaxslarga ta’sir etadigan ijtimoiy-psixologik omillar murakkab va ko‘p darajali tizimni tashkil etadi. Ular qatoriga ijtimoiy izolyatsiya va deprivatsiya, penitensiar muhit, guruhiy bosim, konformlik, norasmiy guruh me’yorlari, institutsionalizatsiya, stigmatizatsiya, xodimlar bilan munosabatlar, oilaviy aloqalar, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, ta’lim va mehnat faoliyati kiradi.

Mazkur omillarning ta’siri har bir shaxsning individual psixologik xususiyatlari va mavjud ijtimoiy resurslariga qarab turlicha namoyon bo‘ladi. Shu bois penitensiar muassasalarda psixologik faoliyatni “shaxs – penitensiar muhit – mahkumlar guruhi – oila – jamiyat” tizimi asosida tashkil etish maqsadga muvofiq. Bunday yondashuv mahkumning psixologik barqarorligini ta’minlash, destruktiv ijtimoiy ta’sirlarni kamaytirish, prosotsial qadriyatlarni shakllantirish va ozodlikka chiqqandan keyingi muvaffaqiyatli reintegratsiya uchun zarur psixologik resurslarni rivojlantirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Goffman E. Asylums: Essays on the Social Situation of Mental Patients and Other Inmates. – New York: Anchor Books, 1961.
2. Clemmer D. The Prison Community. – New York: Holt, Rinehart and Winston, 1958.
3. Sykes G.M. The Society of Captives: A Study of a Maximum Security Prison. – Princeton: Princeton University Press, 1958.
4. Bandura A. Social Learning Theory. – Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall, 1977.
5. Haney C. The psychological impact of incarceration: Implications for post-prison adjustment // Prisoners Once Removed: The Impact of Incarceration and Reentry on Children, Families, and Communities. – Washington, DC: Urban Institute Press, 2003. – P. 33–66.
6. Andrews D.A., Bonta J. The Psychology of Criminal Conduct. – 6th ed. – New York: Routledge, 2017.
7. Liebling A., Maruna S. (Eds.). The Effects of Imprisonment. – Cullompton: Willan Publishing, 2005.
8. Maruna S. Making Good: How Ex-Convicts Reform and Rebuild Their Lives. – Washington, DC: American Psychological Association, 2001.
9. Антонян Ю.М. Психология преступника и расследования преступлений. – М.: Юристъ, 1996.
10. Еникеев М.И. Юридическая психология. – М.: Норма, 2005.

11. Васильев В.Л. Юридическая психология. – СПб.: Питер, 2009.
12. Пирожков В.Ф. Криминальная психология. – М.: Ось-89, 2007.
13. Ушатиков А.И., Казак Б.Б. Пенитенциарная психология. – Рязань: Академия права и управления Минюста России, 2003.
14. Реан А.А. Психология личности: социализация, поведение, общение. – СПб.: Прайм-ЕВРОЗНАК, 2004.
15. G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010.
16. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012.
17. Shoumarov G‘.B. (tahriri ostida). Oila psixologiyasi. – Toshkent: Sharq, 2008.
18. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksi. – Toshkent: Adolat.
19. United Nations. United Nations Standard Minimum Rules for the Treatment of Prisoners (the Nelson Mandela Rules). – New York: United Nations, 2015.

BIOLOGIYA TA’LIMIDA O‘QUVCHILARNING BILIM VA KOMPETENSIYALARINI BAHOLASHNI PEDAGOGIK KVALIMETRIYA VA ZAMONAVIY PSIXOMETRIK YONDASHUVLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Boyxonov Islomjon Abduqaxxor o‘g‘li
O‘zbekiston respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bilim va malakalarni baholash agentligi huzuridagi Ilmiy-o‘quv amaliy markazi
islombekboykhonov@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada biologiya ta’limida o‘quvchilarning bilim, amaliy ko‘nikma va kompetensiyalarini baholash tizimini takomillashtirishning nazariy va metodologik asoslari tahlil qilingan. Tadqiqotning maqsadi biologiya fanining mazmuniy va kognitiv xususiyatlarini hisobga olgan holda pedagogik kvalimetriya, klassik test nazariyasi hamda zamonaviy psixometrik yondashuvlarni, xususan, Rasch modelini integratsiyalashgan baholash tizimida uyg‘unlashtirishdan iborat. Tadqiqotda ilmiy-metodik adabiyotlarni o‘rganish, qiyosiy va testologik tahlil hamda psixometrik yondashuvlardan foydalanilgan. Tahlil natijalari biologiya fanidan baholash amaliyotida topshiriqlarning mazmuniy reprezentativligi, kognitiv murakkabligi, diskriminatsion xususiyatlari, distraktorlarning samaradorligi hamda o‘lchash natijalarini interpretatsiya qilish bilan bog‘liq muammolar mavjudligini ko‘rsatgan.

Maqolada biologik kompetensiyalarni diagnostika qilishga yo‘naltirilgan ko‘p bosqichli kvalimetrik-psixometrik baholash modeli taklif etilgan. Mazkur model baholash konstruktini aniqlash, test spetsifikatsiyasini ishlab chiqish, Bloom taksonomiyasi asosida topshiriqlarni loyihalash, ekspert baholash, pilot sinovni o‘tkazish, klassik test nazariyasi asosida dastlabki tahlil, Rasch modeli yordamida psixometrik kalibrlash hamda natijalarni diagnostik interpretatsiya qilish bosqichlarini qamrab oladi. Taklif etilgan yondashuv biologiya fanidan baholashni faqat to‘g‘ri javoblar sonini aniqlash vositasi sifatida emas, balki o‘quvchilarning biologik kompetensiyalarini valid va ishonchli diagnostika qilish tizimi sifatida rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: biologiya ta’limi, pedagogik baholash, pedagogik kvalimetriya, testologiya, psixometriya, klassik test nazariyasi, Item Response Theory (IRT), Rasch modeli, biologik kompetensiya, validlik, ishonchlilik, test topshirig‘i.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОЦЕНИВАНИЯ ЗНАНИЙ И КОМПЕТЕНЦИЙ УЧАЩИХСЯ В ОБУЧЕНИИ БИОЛОГИИ НА ОСНОВЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ КВАЛИМЕТРИИ И СОВРЕМЕННЫХ ПСИХОМЕТРИЧЕСКИХ ПОДХОДОВ

Аннотация. В статье анализируются теоретические и методологические основы совершенствования системы оценивания знаний, практических умений и компетенций учащихся в процессе обучения биологии. Цель исследования заключается в интеграции педагогической квалиметрии, классической теории тестов и современных психометрических подходов, в частности модели Раша, в единую систему оценивания с учетом содержательных и когнитивных особенностей биологии как учебного предмета. В исследовании использованы методы анализа научно-методической литературы, сравнительного и тестологического анализа, а также психометрические подходы. Результаты анализа свидетельствуют о наличии в практике оценивания по биологии проблем, связанных с содержательной репрезентативностью заданий, их когнитивной сложностью, дискриминативными характеристиками, эффективностью дистракторов и интерпретацией результатов измерения.

В статье предложена многоэтапная квалиметрическо-психометрическая модель оценивания, ориентированная на диагностику биологических компетенций учащихся. Данная модель включает определение конструкта оценивания, разработку спецификации теста, проектирование заданий на основе таксономии Блума, экспертное оценивание, проведение пилотного тестирования, первичный анализ на основе классической теории тестов, психометрическую калибровку с использованием модели Раша и диагностическую интерпретацию полученных результатов. Предложенный подход позволяет рассматривать оценивание по биологии не только как средство определения количества правильных ответов, но и как систему валидной и надежной диагностики биологических компетенций учащихся.

Ключевые слова: биологическое образование, педагогическое оценивание, педагогическая квалиметрия, тестология, психометрия, классическая теория тестов, теория ответов на задания (Item Response Theory, IRT), модель Раша, биологическая компетентность, валидность, надежность, тестовое задание.

IMPROVING THE ASSESSMENT OF STUDENTS' KNOWLEDGE AND COMPETENCIES IN BIOLOGY EDUCATION BASED ON PEDAGOGICAL QUALIMETRY AND MODERN PSYCHOMETRIC APPROACHES

Abstract. This article analyzes the theoretical and methodological foundations for improving the assessment system of students' knowledge, practical skills, and competencies in biology education. The purpose of the study is to integrate pedagogical qualimetry, Classical Test Theory (CTT), and modern psychometric approaches, particularly the Rasch model, into a comprehensive assessment system that takes into account the content-specific and cognitive characteristics of biology as a school subject. The study employs an analysis of scientific and methodological literature, comparative and testological analysis, as well as psychometric approaches. The findings indicate that current biology assessment practices involve a number of challenges related to the content representativeness of test items, cognitive complexity, item discrimination, distractor effectiveness, and the interpretation of measurement results.

The article proposes a multi-stage qualimetric-psychometric assessment model designed to diagnose students' biological competencies. The model comprises the identification of the assessment construct, development of test specifications, design of assessment items based on Bloom's taxonomy, expert evaluation, pilot testing, preliminary analysis using Classical Test Theory, psychometric calibration through the Rasch model, and diagnostic interpretation of the results. The proposed approach contributes to transforming biology assessment from a mechanism focused solely on determining the number of correct responses into a valid and reliable diagnostic system for assessing students' biological competencies.

Keywords: biology education, educational assessment, pedagogical qualimetry, testology, psychometrics, Classical Test Theory (CTT), Item Response Theory (IRT), Rasch model, biological competence, validity, reliability, test item.

KIRISH

Ta'lim sifatini ta'minlash masalasi zamonaviy pedagogik tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Biroq ta'lim sifatini baholash faqat o'quvchining ma'lum miqdordagi savollarga to'g'ri javob berishini aniqlash bilan cheklanmaydi. Ayniqsa, biologiya kabi murakkab va ko'p komponentli o'quv fanida o'quv natijasini baholash biologik tushunchalarni eslab qolish, ularning mazmunini tushunish, biologik qonuniyatlarni amaliy vaziyatlarda qo'llash, tajriba natijalarini tahlil qilish, dalillarga asoslangan xulosalar chiqarish va muammoli biologik vaziyatlarga yechim topish kabi turli darajadagi faoliyatlarni qamrab olishi lozim.

Biologiya fanining mazmuni o‘ziga xos xususiyatga ega. Unda hujayra va molekula darajasidagi jarayonlardan tortib organizm, populyatsiya, ekotizim va biosfera darajasigacha bo‘lgan hodisalar o‘rganiladi. O‘quvchi biologik obyekt va jarayonlarni nafaqat tavsiflashi, balki ular o‘rtasidagi sabab-oqibat bog‘lanishlarini aniqlashi, jadval, grafik va sxemalarni tahlil qilishi, tajriba ma’lumotlarini interpretatsiya qilishi hamda ilmiy dalillarga asoslangan qaror qabul qilishi talab etiladi.

Xalqaro baholash tizimlarida ham tabiiy-ilmiy ta’lim natijalarini baholash mazmuni tobora kompetensiyaviy xarakter kasb etmoqda. Masalan, PISA 2025 fanlar bo‘yicha konseptual asosida tabiiy-ilmiy ta’lim natijalari hodisalarni ilmiy jihatdan tushuntirish, ilmiy tadqiqotni loyihalash va baholash hamda ilmiy ma’lumot va dalillarni tanqidiy talqin qilish bilan bog‘liq kompetensiyalar orqali tavsiflanadi. Shuningdek, ilmiy axborotni izlash, baholash va undan qaror qabul qilishda foydalanish ham muhim yo‘nalish sifatida ajratilgan.

Bu holat biologiya ta’limidagi baholash tizimini ham qayta ko‘rib chiqishni talab qiladi. Agar baholash vositasi asosan faktologik bilimlarni aniqlashga yo‘naltirilgan bo‘lsa, u o‘quvchining haqiqiy biologik kompetensiyasi haqida to‘liq tasavvur bera olmaydi. Shu sababli baholash mazmuni, topshiriq shakli, kognitiv darajasi va o‘lchash sifati o‘zaro uyg‘un tizim sifatida qaralishi zarur.

Biologiya ta’limi bo‘yicha zamonaviy tadqiqotlarda ham aynan shu muammo dolzarb ekanligi qayd etilmoqda. Biologik tushunchalarni baholash vositalarini ishlab chiqish va validatsiya qilishda klassik test nazariyasi bilan bir qatorda Rasch tahlili va boshqa zamonaviy psixometrik yondashuvlarning qo‘llanilishi kengayib bormoqda. Biroq mavjud biologiya baholash instrumentlarining ayrimlari muayyan ta’lim muhiti yoki cheklangan tanlanmaga asoslanganligi sababli, natijalarni kengroq kontekstda umumlashtirish masalasi murakkabligicha qolmoqda.

Mazkur maqolaning asosiy ilmiy muammosi shundan iboratki, biologiya fanidan o‘quvchilar bilimini baholash amaliyotida ko‘pincha yakuniy ball asosiy natija sifatida qabul qilinadi, biroq ushbu ballning qanday konstruktni o‘lchashi, topshiriqlarning mazmuniy jihatdan qanchalik reprezentativligi, ularning psixometrik sifati va olingan natijalardan qanday pedagogik xulosalar chiqarish mumkinligi har doim ham yetarli darajada asoslanmaydi.

Shu nuqtayi nazardan tadqiqotning maqsadi biologiya ta’limida o‘quvchilarning bilim va kompetensiyalarini baholashning mavjud nazariy va amaliy yondashuvlarini tahlil qilish hamda pedagogik kvalimetriya, klassik test nazariyasi va Rash modelini integratsiyalashgan holda biologiya fanidan baholashning takomillashtirilgan modelini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. biologiya ta’limida baholashning nazariy-metodologik asoslarini tahlil qilish;
2. biologik kompetensiyalarni baholashning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash;
3. klassik test nazariyasi va zamonaviy psixometrik yondashuvlarning imkoniyatlarini qiyoslash;
4. biologiya faniga oid topshiriqlarning sifatini baholash mezonlarini aniqlash;
5. biologiya ta’limi uchun kvalimetrik-psixometrik baholash modelini ishlab chiqish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi biologiya fanidan baholashni alohida test topshirig‘i yoki yakuniy ball bilan cheklangan jarayon sifatida emas, balki biologik kompetensiyalarni aniqlash → topshiriqlarni loyihalash → kvalimetrik ekspertiza → empirik sinov → CTT tahlili → Rash kalibrlashi → diagnostik interpretatsiya → teskari aloqa ketma-ketligida tashkil etiladigan integratsiyalashgan tizim sifatida asoslash bilan belgilanadi.

MAVZUNING O‘RGANILGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

Pedagogik baholash nazariyasida muhim metodologik o‘zgarishlardan biri validlik tushunchasining testning alohida xususiyati sifatidagi tor talqinidan baholash natijalariga asoslangan xulosalarning asoslanganligi sifatidagi kengroq yondashuvga o‘tishdir.

Zamonaviy validlik nazariyasida testning o‘zi “valid” yoki “invalid” deb baholanmaydi. Asosiy masala test natijalaridan chiqarilayotgan xulosa va qabul qilinayotgan qarorlarning ilmiy dalillar bilan qay darajada asoslanishidir. Biologiya ta’limi sohasidagi tadqiqotlarda ham validlik dalillari mazmun, javob jarayoni, ichki tuzilma va boshqa omillar bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqilishi ta’kidlanadi.

Mazkur yondashuv biologiya fanidan baholash uchun ayniqsa muhimdir. Chunki, masalan, genetik masalani to‘g‘ri yechgan o‘quvchi haqiqatan ham genetik qonuniyatlarni tushunganligi yoki faqat ma’lum algoritmni yodlab olganligi o‘rtasida farq mavjud. Demak, faqat yakuniy javobning to‘g‘riligini aniqlash har doim ham baholash konstruktini to‘liq ochib bermaydi.

Shunday qilib, biologiya fanidan validlikni ta’minlash kamida uch savolga javob berishni talab qiladi:

- topshiriq biologik mazmunni to‘g‘ri va yetarli darajada aks ettiradimi?
- o‘quvchi topshiriqni bajarishda aynan o‘lchanishi kerak bo‘lgan biologik bilim yoki ko‘nikmadan foydalanadimi?
- olingan natijadan chiqarilgan pedagogik xulosa asoslimi?

Biologiya ta’limi bo‘yicha integrativ tadqiqotlar biologik bilimlarni alohida faktlar yig‘indisi sifatida emas, balki o‘zaro bog‘langan konseptual tizim sifatida ko‘rish zarurligini ko‘rsatadi. Shu sababli biologik ta’lim natijalarini baholashda faqat termin va ta’riflarni eslab qolishga asoslangan topshiriqlar yetarli emas.

So‘nggi sistematik sharhlarda biologiya ta’limidagi baholash tadqiqotlarida formativ baholash, texnologiyalardan foydalanish, tanqidiy fikrlash va ilmiy tadqiqotchilik ko‘nikmalarini baholashga e’tibor ortib borayotgani qayd etiladi. Shu bilan birga, biologik tushunchalarning murakkabligi hamda texnologik vositalarni baholash jarayoniga integratsiya qilish muammosi saqlanib qolmoqda.

Bu holat biologiya fanidan baholashning ikki darajasini birlashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Birinchi daraja – baholash nimani o‘lchashi kerakligi, ya’ni biologik konstruktni aniqlash. Ikkinchi daraja esa – ushbu konstrukt qanchalik sifatli o‘lchanayotganligi, ya’ni psixometrik sifatni aniqlashdir.

Mazkur ikki daraja o‘zaro bog‘liq bo‘lmasa, ikki xil muammo yuzaga keladi. Mazmunan mukammal tuzilgan topshiriq psixometrik jihatdan samarasiz bo‘lishi mumkin. Aksincha, statistik ko‘rsatkichlari yaxshi bo‘lgan topshiriq biologiya fanining muhim kompetensiyasini yetarli darajada aks ettirmasligi mumkin.

Klassik test nazariyasi va Rasch modelining biologiya ta’limidagi o‘rni

Test topshiriqlarini tahlil qilishda klassik test nazariyasi uzoq yillar davomida asosiy metodologik vosita bo‘lib kelgan. Ushbu yondashuv testning umumiy ishonchliligini, topshiriq qiyinligini, diskriminatsion xususiyatini va topshiriq bilan umumiy test natijasi o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash imkonini beradi.

CTTning asosiy afzalligi uning nisbatan sodda va amaliyotda qulay ekanligidadir. Masalan, test topshirig‘ining qiyinlik indeksi orqali savolga to‘g‘ri javob bergan o‘quvchilar ulushi aniqlanadi. Diskriminatsion ko‘rsatkich esa yuqori va past natijali o‘quvchilarni topshiriq qanchalik farqlay olishini ko‘rsatadi.

Biroq klassik test nazariyasining muhim cheklovlaridan biri shundaki, topshiriq parametrlarining qiymati ma’lum darajada aynan shu topshiriqni bajargan tanlanmaga bog‘liq bo‘ladi. Shu sababli bir xil topshiriq turli qobiliyat tarkibiga ega guruhlarda turlicha statistik tavsifga ega bo‘lishi mumkin.

Zamonaviy test nazariyasi, jumladan, Item Response Theory ushbu muammoni yanada chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi. Rasch modeli shaxs qobiliyati va topshiriq qiyinligini umumiy logit shkalasida ifodalashga asoslanadi.

Rasch modelida asosiy savol:

Ma’lum qobiliyat darajasiga ega o‘quvchining ma’lum qiyinlik darajasidagi topshiriqni to‘g‘ri bajarish ehtimoli qanday?

Bu yondashuv biologiya fanidagi topshiriqlarni faqat “oson” yoki “qiyin” deb tavsiflashdan ko‘ra, ularni o‘quvchilar qobiliyati bilan bir shkalada joylashtirish imkonini beradi.

Rasch tahlilining instrument ishlab chiqishdagi imkoniyatlari, xususan, konstruktni aniq belgilash, topshiriqlar sifatini monitoring qilish, o‘lchash vositasini takomillashtirish va alternativ test shakllarini yaratishdagi ahamiyati ta’kidlangan.

Biologiya faniga oid empirik tadqiqotlarda ham CTT va Rasch modelining birgalikda qo‘llanishi test topshiriqlari sifatini yanada kengroq baholash imkonini berishi ko‘rsatilgan. Ayrim tadqiqotlarda aynan biologiya fanidan tuzilgan test topshiriqlari qiyinlik, diskriminatsiya, distraktorlar samaradorligi, validlik va ishonchlilik ko‘rsatkichlari bo‘yicha klassik va Rasch yondashuvlari asosida taqqoslangan.

Demak, CTT va Rasch modelini bir-biriga qarama-qarshi metodlar sifatida emas, balki turli darajadagi diagnostik ma’lumot beruvchi o‘zaro to‘ldiruvchi yondashuvlar sifatida ko‘rish maqsadga muvofiqdir.

Mazkur maqola nazariy-metodologik va konseptual tadqiqot xarakteriga ega. Tadqiqotda:

- ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish;
- qiyosiy tahlil;
- biologik kompetensiyalarni mazmuniy modellashtirish;
- testologik tahlil;
- ekspert baholash tamoyillarini konseptual asoslash;
- psixometrik tahlilning nazariy asoslarini umumlashtirish metodlaridan foydalanildi.

Maqolada keltiriladigan sonli misollar, agar alohida real empirik ma’lumot bilan ko‘rsatilmagan bo‘lsa, gipotetik misol yoki taklif etilayotgan baholash modeli sifatida talqin qilinadi. Ular haqiqiy eksperimental tadqiqot natijasi sifatida taqdim etilmaydi.

Taklif etilayotgan modelda biologik ta’lim natijasi yagona “bilim” ko‘rsatkichi bilan cheklanmaydi. U quyidagi komponentlardan tashkil topadi:

TAHLIL VA NATIJALAR

Nazariy va metodologik tahlil biologiya fanidan baholashda quyidagi muammolar mavjudligini ko‘rsatadi.

1. Faktologik bilimlarning ustunligi

Ko‘plab testlarda “qaysi?”, “nima?”, “kim?” kabi eslab qolishga asoslangan topshiriqlar ustunlik qilishi mumkin. Bunday topshiriqlar ma’lum biologik bilimlarni aniqlash uchun zarur, biroq ular o‘quvchining biologik jarayonlarni tahlil qilish yoki ilmiy dalillar asosida xulosa chiqarish qobiliyatini to‘liq baholamaydi.

2. Kognitiv darajalar o‘rtasidagi nomutanosiblik

Baholash spetsifikatsiyasida Bloom taksonomiyasining yuqori darajalari yetarli darajada aks etmasa, test yuqori ball olgan o‘quvchi bilan murakkab biologik muammoni mustaqil hal qila oladigan o‘quvchini farqlashda cheklangan bo‘ladi.

3. Mazmuniy validlikning yetarli asoslanmasligi

Biologiya fani keng mazmunli bo‘lgani sababli 30 yoki 40 ta topshiriq butun fan mazmunini teng darajada qamrab ololmaydi. Shu sababli test topshiriqlari oldindan ishlab chiqilgan spetsifikatsiyaga asoslanishi lozim.

Biologiya bo‘yicha yirik baholash instrumentlarini ishlab chiqish tadqiqotlarida ham mazmunni ekspertlar tomonidan aniqlangan asosiy biologik konsepsiyalar bilan bog‘lash va topshiriqlarni mutaxassislar ekspertizasidan o‘tkazish validlik dalillarini shakllantirishning muhim qismi sifatida ko‘riladi.

4. Distraktorlarning samarasizligi

Ko‘p variantli testda noto‘g‘ri javob variantlari tasodifiy yoki biologik jihatdan mutlaqo asossiz tuzilsa, yuqori va past qobiliyatli o‘quvchilarni farqlash imkoniyati kamayadi.

Samarali distraktor noto‘g‘ri tushuncha yoki tipik xatoni aks ettirishi kerak. Masalan, genetika bo‘yicha topshiriqda noto‘g‘ri variantlar o‘quvchilarning dominantlik, segregatsiya yoki mustaqil kombinatsiyalanish qonuniyatlarini noto‘g‘ri qo‘llashi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Biologiyaga oid namunaviy topshiriq

No‘xat o‘simligida urug‘ rangi bo‘yicha sariq belgi yashil belgiga nisbatan dominant. Geterozigot sariq urug‘li o‘simliklar o‘zaro chatishtirilganda 160 ta avlod olindi.

Savol: Nazariy jihatdan yashil urug‘li o‘simliklarning kutilayotgan sonini aniqlang.

A) 40

B) 80

C) 120

D) 160

Bu topshiriqning biologik mazmuni oddiy dominantlik va Mendel qonuniyatlari bilan bog‘liq. Biroq uni faqat to‘g‘ri javob asosida baholash cheklangan ma’lumot beradi.

Topshiriq quyidagi diagnostik imkoniyatlarga ega:

- **A varianti** – 3:1 nisbatini to‘g‘ri qo‘llagan o‘quvchi;
- **B varianti** – dominant va retsessiv belgilarni teng nisbatda deb hisoblash bilan bog‘liq ehtimoliy noto‘g‘ri tushuncha;
- **C varianti** – dominant fenotip ulushini noto‘g‘ri tanlash;
- **D varianti** – barcha avlodlarda dominantlik kuzatiladi, degan xato tasavvur.

Shunday qilib, distraktorlar faqat “noto‘g‘ri javoblar” emas, balki o‘quvchilarning noto‘g‘ri konseptual tasavvurlarini diagnostika qilish vositasi sifatida ishlab chiqilishi mumkin.

Maqolaning asosiy ilmiy taklifi biologiya fanidan baholashning quyidagi integratsiyalashgan modelidir.

I-bosqich. Baholash konstruktini aniqlash

Avvalo “o‘quvchi nimani bilishi kerak?” degan savol emas, balki:

“O‘quvchi biologik bilimlardan foydalangan holda nimalarni bajara olishi kerak?”degan savol asosiy metodologik nuqtaga aylantiriladi.

II-bosqich. Baholash spetsifikatsiyasini ishlab chiqish

Har bir topshiriq quyidagi koordinatalar bo‘yicha joylashtiriladi:

Biologik mazmun → Kompetensiya → Kognitiv daraja → Topshiriq formati

Masalan:

Genetika → Muammoni yechish → Qo‘llash → Ochiq yoki ko‘p variantli topshiriq

III-bosqich. Mazmuniy ekspertiza

Biologiya mutaxassislari va metodistlar topshiriqlarni quyidagi mezonlar asosida baholaydilar:

1. biologik jihatdan to‘g‘riligi;
2. o‘quv dasturiga mosligi;
3. kompetensiyani aks ettirishi;
4. kognitiv darajaning mosligi;
5. til va ifodaning aniqligi;
6. konstruktga aloqador bo‘lmagan omillarning mavjud emasligi.

IV-bosqich. Pilot sinov

Topshiriqlar o‘quvchilar guruhida sinovdan o‘tkaziladi va dastlabki empirik ma’lumotlar olinadi.

V-bosqich. Klassik test nazariyasi asosida tahlil

Bu bosqichda:

- testning umumiy ishonchliligi;
- topshiriq qiyinligi;
- diskriminatsiya;
- item-total correlation;
- distraktorlarning ishlashi tahlil qilinadi.

VI-bosqich. Rash modeli asosida kalibrlash

Rash tahlili yordamida:

- person ability – o‘quvchi qobiliyati;
- item difficulty – topshiriq qiyinligi;
- logit shkalasi;
- infit va outfit statistikasi;
- item-person map (Rayt xaritasi);

- test targeting;
- unidimensionality;
- local independence tahlil qilinadi.

Bu bosqichning asosiy afzalligi shundaki, o‘quvchi qobiliyati va topshiriq qiyinligi bir xil metrik shkalada taqqoslanadi.

XULOSA

Biologiya fanidan baholashning asosiy muammosi o‘quvchi tomonidan to‘plangan ball miqdorini aniqlash bilan biologik kompetensiyalarni haqiqiy o‘lchash o‘rtasidagi metodologik tafovutda namoyon bo‘ladi. Yuqori test natijasi har doim ham biologik hodisalarni tahlil qilish, ilmiy dalillarni baholash yoki yangi biologik vaziyatlarda bilimlarni qo‘llash qobiliyatini to‘liq ifodalayvermaydi.

Tadqiqotning nazariy tahlili biologiya fanidan baholashni takomillashtirish uchun mazmuniy, kvalimetrik va psixometrik yondashuvlarni yagona tizimga birlashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Shu asosda quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi:

1. biologiya fanidan baholash spetsifikatsiyasi mazmun × kompetensiya × kognitiv daraja modeli asosida ishlab chiqilishi;
2. topshiriqlar Bloom taksonomiyasining barcha tegishli darajalarini muvozanatli qamrab olishi;
3. har bir test topshirig‘i biologik mazmuni va psixometrik sifati bo‘yicha alohida ekspertizadan o‘tkazilishi;
4. testning dastlabki sifat nazorati CTT ko‘rsatkichlari asosida amalga oshirilishi;
5. yuqori sifatli baholash instrumentlarini shakllantirishda Rasch modeli yordamida topshiriqlar kalibrlanishi;
6. o‘quvchi natijalari faqat umumiy ball sifatida emas, balki biologik kompetensiyalar profili sifatida interpretatsiya qilinishi;
7. psixometrik tahlildan o‘tgan topshiriqlar asosida biologiya fanidan doimiy yangilanib boradigan topshiriqlar banki shakllantirilishi lozim.

Taklif etilgan kvalimetrik-psixometrik model biologiya ta’limida baholashni “natijani qayd etish” jarayonidan “o‘quvchining biologik rivojlanishini diagnostika qilish va ta’lim jarayonini boshqarish” vositasiga aylantirish imkonini beradi.

Kelgusidagi tadqiqotlarda ushbu modelni umumiy o‘rta ta’lim maktablarida real empirik ma’lumotlar asosida sinovdan o‘tkazish, turli biologiya bo‘limlari uchun topshiriqlar bankini shakllantirish, Rasch modeli yordamida topshiriqlarni kalibrlash hamda parallel test shakllarini umumiy topshiriqlar asosida bog‘lash istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. American Educational Research Association, American Psychological Association, & National Council on Measurement in Education. (2014). Standards for educational and psychological testing. American Educational Research Association.
2. Campbell, C. E., & Nehm, R. H. (2013). A critical analysis of assessment quality in genomics and evolution education research. CBE–Life Sciences Education, 12(1), 92–105.
3. Cary, T., & Branchaw, J. (2017). The BioCore Guide: A tool for interpreting the core concepts of Vision and Change for biology majors. CBE–Life Sciences Education, 16(1), ar7.
4. Crocker, L., & Algina, J. (1986). Introduction to classical and modern test theory. Holt, Rinehart and Winston.
5. Herman, J. L., & Linn, R. L. (2013). On the road to assessing deeper learning: The status of Smarter Balanced and PARCC assessment consortia. CBE–Life Sciences Education, 12(4), 517–524.
6. Kane, M. T. (2013). Validating the interpretations and uses of test scores. Journal of Educational Measurement, 50(1), 1–73.
7. Messick, S. (1995). Validity of psychological assessment: Validation of inferences from persons’ responses and performances as scientific inquiry into score meaning. American Psychologist, 50(9), 741–749.
8. OECD. (2023). PISA 2025 Science Framework. OECD.
9. Priyani, T., & Sugiharto, B. (2024). Analysis of biology midterm exam items using a comparison of the classical theory test and the Rasch model. Jurnal Pendidikan Biologi Indonesia, 10(3). https://doi.org/10.22219/jpbi.v10i3.34345
10. Rahmi, S. N., Megawati, Alberida, H., & Fadilah, M. (2025). Assessment of biology learning outcomes in education: A systematic literature review. Biosfer: Jurnal Pendidikan Biologi. https://doi.org/10.21009/biosferjpb.47179
11. Reeves, T. D., & Marbach-Ad, G. (2016). Contemporary test validity in theory and practice: A primer for discipline-based education researchers. CBE–Life Sciences Education, 15(1), rm1.
12. Rasch, G. (1960). Probabilistic models for some intelligence and attainment tests. Danish Institute for Educational Research.
13. Shi, J., Wood, W. B., Martin, J. M., Guild, N. A., Vicens, Q., & Knight, J. K. (2010). A diagnostic assessment for introductory molecular and cell biology. CBE–Life Sciences Education, 9(4), 453–461.
14. Wilson, M., & Scalise, K. (2016). Assessment to improve learning in higher education: The BEAR Assessment System. Higher Education, 72, 1–17.

15. Kartikasari, R., & Sugiharto, B. (2026). Analysis of biology multiple-choice questions using classical test theory and Rasch model. Edubiotik: Jurnal Pendidikan, Biologi dan Terapan, 11(1). https://doi.org/10.33503/ebio.v11i01.1816

TALABALARDA INFORMATSION-ANALITIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL-METODOLOGIK ASOSLARI: TIZIMLI, KOMPETENSIYAVIY VA FAOLIYATLI YONDASHUVLAR

Baydjanov Bekzod Xaitboyevich
Farg‘ona davlat universiteti dotsenti,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: baybekzod@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0000-0002-1580-8569

Annotatsiya. Maqolada talabalarda informatsion-analitik kompetentlikni (IAK) rivojlantirishning konseptual-metodologik asoslari yoritilgan. Tadqiqotning maqsadi tizimli, kompetensiyaviy va faoliyatli yondashuvlarni yagona metodologik o‘zakda integratsiyalovchi konseptual modelni ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotda ilmiy-pedagogik adabiyotlarni nazariy tahlil qilish, qiyoslash, umumlashtirish, tizimlashtirish va modellashtirish metodlaridan foydalanildi. Natijada IAK tushunchasining mazmuni aniqlashtirildi, uch yondashuvning metodologik funksiyalari qiyosiy tahlil qilindi hamda to‘rt komponent (motivatsion-qadriyatli, kognitiv-informatsion, operatsional-analitik, refleksiv-baholovchi) va 16 indikatordan iborat tuzilmaviy-funksional model asoslandi. Mazkur yondashuvlar integratsiyasi IAKni yaxlit, natijaga yo‘naltirilgan va talabaning faol subyektligi asosida rivojlantirish imkonini beradi. Taklif etilgan modeldan oliy ta’limda diagnostika, o‘quv jarayonini loyihalash va baholashda metodik asos sifatida foydalanish mumkin.

Kalit so‘zlar: informatsion-analitik kompetentlik, tizimli yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv, faoliyatli yondashuv, metodologik asos, tuzilmaviy-funksional model, tanqidiy fikrlash, axborot savodxonligi, oliy ta’lim, indikator, diagnostika, refleksiya.

ОНЦЕПТУАЛЬНО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ИНФОРМАЦИОННО-АНАЛИТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У СТУДЕНТОВ: СИСТЕМНЫЙ, КОМПЕТЕНТНОСТНЫЙ И ДЕЯТЕЛЬНОСТНЫЙ ПОДХОДЫ

Аннотация. В статье раскрываются концептуально-методологические основы развития информационно-аналитической компетентности (ИАК) студентов. Цель исследования – разработать концептуальную модель, объединяющую системный, компетентностный и деятельностный подходы в единое методологическое ядро. В качестве методов использованы

теоретический анализ научно-педагогической литературы, сравнение, обобщение, систематизация и моделирование. В результате уточнено содержание понятия ИАК, проведён сравнительный анализ методологических функций трёх подходов и обоснована структурно-функциональная модель, включающая четыре компонента (мотивационно-ценностный, когнитивно-информационный, операционально-аналитический, рефлексивно-оценочный) и шестнадцать индикаторов. Сделан вывод о том, что интеграция названных подходов позволяет развивать ИАК целостно, с ориентацией на результат и опорой на активную субъектную деятельность студента. Модель может быть использована для диагностики, проектирования учебного процесса и оценивания в высшей школе.

Ключевые слова: информационно-аналитическая компетентность, системный подход, компетентностный подход, деятельностный подход, методологическая основа, структурно-функциональная модель, критическое мышление, информационная грамотность, высшее образование, индикатор, диагностика, рефлексия.

CONCEPTUAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR DEVELOPING STUDENTS' INFORMATION-ANALYTICAL COMPETENCE: SYSTEMIC, COMPETENCY-BASED, AND ACTIVITY-BASED APPROACHES

Abstract. The article examines the conceptual and methodological foundations for developing students' information-analytical competence (IAC). The study aims to develop a conceptual model that integrates systemic, competency-based, and activity-based approaches within a unified methodological core. The methods include theoretical analysis of scientific and pedagogical literature, comparison, generalization, systematization, and modelling. The study clarifies the content of IAC, comparatively analyses the methodological functions of the three approaches, and substantiates a structural-functional model comprising four components (motivational-value, cognitive-informational, operational-analytical, and reflexive-evaluative) and sixteen indicators. The integration of these approaches enables IAC to be developed holistically, with a focus on outcomes and students' active agency. The proposed model can serve as a methodological basis for diagnostics, instructional design, and assessment in higher education.

Keywords: information-analytical competence, systemic approach, competency-based approach, activity-based approach, methodological basis, structural-functional model, critical thinking, information literacy, higher education, indicator, diagnostics, reflection.

KIRISH

Raqamli transformatsiya, ochiq axborot muhitlari va generativ sun’iy intellekt vositalarining jadal rivojlanishi zamonaviy oliy ta’lim oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Bugungi talaba axborot tanqisligidan ko‘ra, axborot oqimining haddan tashqari ko‘pligi, turli sifat darajasi va ishonchlilik muammosi bilan ko‘proq to‘qnashadi. Shu bois axborotni izlash va o‘zlashtirishning o‘zi yetarli bo‘lmay, uni tanqidiy baholash, tahlil qilish, sintezlash hamda dalillarga asoslangan qaror qabul qilish qobiliyati, ya’ni informatsion-analitik kompetentlik (IAK), mutaxassis tayyorlashning muhim natijalaridan biriga aylanmoqda. Zamonaviy tadqiqotlarda axborot ehtiyojini aniqlash, ma’lumotni topish, baholash, tartibga solish va undan mas’uliyatli foydalanish axborot savodxonligining asosiy tarkibiy jihatlari sifatida qayd etiladi [12].

O‘zbekistonda ta’lim, ilm-fan va raqamli transformatsiyani yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan davlat siyosati, xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF–21-son Farmoni bilan yangilangan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida oliy ta’lim bilan qamrovni kengaytirish va mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish, oliy ta’lim muassasalarida ilmiy tadqiqotlar samaradorligini kuchaytirish, kutubxona fondlaridan elektron foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektni rivojlantirish bo‘yicha aniq maqsadli ko‘rsatkichlar belgilangan [13]. Mazkur ustuvor vazifalar talabalarning axborotni izlash, saralash, ishonchliligini baholash, tahlil qilish, tizimlashtirish va undan asoslangan xulosalar chiqarishda foydalanish qobiliyatlarini rivojlantirish zaruratini kuchaytiradi. Biroq amaliyotda IAKni rivojlantirish ko‘pincha ayrim ko‘nikmalarni, masalan, kompyuter savodxonligi yoki axborot manbalarini izlash malakasini shakllantirish bilan cheklanib, kompetentlikning yaxlit va ko‘p komponentli tabiati yetarli darajada e’tiborga olinmaydi.

Ilmiy adabiyotlarda IAKning ayrim tarkibiy qismlari – axborot savodxonligi, tanqidiy fikrlash va raqamli kompetentlik yetarlicha yoritilgan bo‘lsa-da, tizimli, kompetensiyaviy va faoliyatli yondashuvlarni yagona metodologik asos sifatida integratsiyalash masalasi yetarli darajada tadqiq etilmagan. Ko‘p hollarda ushbu yondashuvlar bir-biridan ajratilgan holda qo‘llanadi, natijada IAK modeli tuzilmaviy yaxlitlik, natijaviylik va subyekt faoliyatini bir vaqtning o‘zida to‘liq qamrab olmaydi.

Tadqiqot maqsadi – tizimli, kompetensiyaviy va faoliyatli yondashuvlarni integratsiyalagan holda talabalarda IAKni rivojlantirishning konseptual-metodologik asoslarini nazariy jihatdan asoslash va uning tuzilmaviy-funksional modelini ishlab chiqish.

Maqsaddan kelib chiqib, quyidagi vazifalar belgilandi:

1) “informatsion-analitik kompetentlik” tushunchasining mohiyatini aniqlashtirish;

2) tizimli, kompetensiyaviy va faoliyatli yondashuvlarning metodologik funksiyalarini qiyosiy tahlil qilish;

3) uch yondashuv integratsiyasiga asoslangan konseptual model va uning komponent-indikator tuzilmasini asoslash;

4) modelning oliy ta’lim amaliyotida qo‘llanish yo‘nalishlarini belgilash.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

Tadqiqot muammosining nazariy asoslari uch yo‘nalishda o‘rganildi. Birinchidan, metodologik yondashuvlarning fundamental manbalari tahlil qilindi. Tizimli yondashuvning umumnazariy asoslari L.fon Bertalanfining umumiy tizimlar nazariyasi hamda I.V.Blauberg va E.G.Yudinning tizimli tadqiqot metodologiyasiga oid ishlarida ishlab chiqilgan [1; 2]. Ushbu yondashuv pedagogik obyektni o‘zaro bog‘liq elementlardan tashkil topgan va yaxlit sifatga ega tizim sifatida ko‘rishni taqozo etadi.

Kompetensiyaviy yondashuv doirasida “kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalari, ularning tuzilmasi hamda ta’lim natijasi sifatidagi maqomi A.V.Xutorskoy, I.A. Zimnyaya, V.A. Bolotov, V.V.Serikov va E.F.Zeer kabi olimlar tomonidan asoslangan [3–6]. I.A.Zimnyaya kompetensiyalarni shaxsning ichki, potensial psixologik tuzilmalari bilim, tasavvur, harakat dasturlari va qadriyatlar tizimi sifatida talqin qilib, ular faoliyatda namoyon bo‘ladigan kompetentlikka aylanishini ta’kidlaydi [4]. V.A. Bolotov va V.V.Serikov kompetentlik tayyor bilimni o‘zlashtirishning bevosita natijasi emas, balki shaxsning faoliyat va o‘z-o‘zini rivojlantirish tajribasi bilan bog‘liq sifat ekanligini asoslaydi [5]. Faoliyatli yondashuv L.S.Vigotskiyning madaniy-tarixiy nazariyasi, A.N.Leontyevning faoliyat nazariyasi hamda P.Ya. Galperinning aqliy harakatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish konsepsiyasiga tayanadi [7–9]. Ushbu yondashuvga ko‘ra, shaxs kompetentligi tayyor bilimlarni uzatish orqali emas, balki maqsadli va mazmunli faoliyat jarayonida, tashqi harakatlarning ichki aqliy harakatlarga aylanishi orqali shakllanadi [8; 9].

Ikkinchidan, bevosita informatsion-analitik kompetentlik muammosiga bag‘ishlangan zamonaviy tadqiqotlar ko‘rib chiqildi. Adabiyotlarda IAK axborot ehtiyojini aniqlash, axborotni izlash, saralash, qayta ishlash, tahlil qilish, ishonchliligini baholash va natijalar asosida asoslangan qaror qabul qilish bilan bog‘liq integrativ qobiliyat sifatida talqin etiladi [11; 12]. O‘qituvchining raqamli kompetentligi talabalarning informatsion-analitik kompetentligini rivojlantirishga ta’sir qiluvchi muhim pedagogik omillardan biri sifatida ko‘rsatiladi [10].

Shuningdek, tanqidiy fikrlash axborotni tahlil qilish, dalillarni baholash va asoslangan xulosaga kelish jarayonini ta’minlaydigan IAKning muhim kognitiv mexanizmi sifatida qaraladi [12].

Uchinchidan, tadqiqotlar tahlili aksariyat ishlarda mazkur yondashuvlar alohida qo‘llanishini, ularni yagona metodologik asos doirasida funksional jihatdan birlashtirishga qaratilgan konseptual ishlanmalar esa yetarli emasligini ko‘rsatdi. Mazkur ilmiy bo‘shliq tadqiqotning konseptual yo‘nalishi va ilmiy yangiligini belgilaydi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. IAKni rivojlantirishda tizimli, kompetensiyaviy va faoliyatli yondashuvlar bir model doirasida funksional taqsimot asosida integratsiyalandi; IAKning to‘rt komponenti va ularni ifodalovchi 16 indikator o‘zaro bog‘liq tizim sifatida asoslandi. Taklif etilgan yechim metodologik yondashuvlarni alohida qo‘llashdan farqli ravishda tuzilma, natija va faoliyat mexanizmini yagona konseptual o‘zakda birlashtiradi.

Ish nazariy tadqiqot xususiyatiga ega bo‘lib, unda ilmiy-pedagogik, psixologik va uslubiy adabiyotlarni nazariy tahlil qilish; qiyosiy tahlil (uch yondashuvning metodologik funksiyalarini solishtirish); umumlashtirish va tizimlashtirish (IAK tuzilmasini aniqlash); modellashtirish (konseptual-metodologik va tuzilmaviy-funksional modelni loyihalash) metodlaridan foydalanildi. Modelning ichki izchilligi mantiqiy-tuzilmaviy tahlil asosida ta’minlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Nazariy tahlil natijasida IAK quyidagicha ta’riflandi: informatsion-analitik kompetentlik — bu shaxsning axborot ehtiyojini aniqlash, tegishli axborotni izlash va tanlash, uning ishonchliligini tanqidiy baholash, tahlil va sintez qilish, natijalarni asoslangan qaror va mahsulotga aylantirish, shuningdek, o‘z axborot faoliyatini refleksiv boshqarish qobiliyati va tayyorligini ifodalovchi integrativ shaxsiy sifat. Ushbu ta’rif kompetentlikning bilim (kognitiv), harakat (operatsional) hamda shaxsiy-qadriyatli (motivatsion-refleksiv) jihatlarini yaxlit holda birlashtiradi. Har bir yondashuv IAKni rivojlantirish jarayonida o‘ziga xos va bir-birini to‘ldiruvchi metodologik funksiyani bajaradi. Ularning qiyosiy tahlili 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval


Tizimli, kompetensiyaviy va faoliyatli yondashuvlarning IAKni rivojlantirishdagi metodologik funksiyalari

Yondashuv	Yetakchi vakillari	Metodologik funksiyasi	IAKni rivojlantirishga hissasi
Tizimli	L.Bertalanfi; I.V.Blauberg, E.G.Yudin	Obyektni yaxlit, o‘zaro bog‘liq elementlar tizimi sifatida ko‘rish; “butun–qism” munosabatlarini aniqlash	IAKni ajralmas komponentlar tizimi sifatida modellashtirish; tuzilmaviy yaxlitlik va ichki aloqalarni ta’minlash
Kompetensiyaviy	A.V.Xutorskoy; I.A.Zimnyaya; V.A.Bolotov, V.V.Serikov; E.F. Zeer	Ta’lim natijasini “kompetensiya/kompetentlik” kategoriyalarida belgilash; nazariy bilimdan amaliy qobiliyatga o‘tish	IAKni o‘lchanadigan natija sifatida ifodalash; indikatorlar va daraja mezonlarini asoslash
Faoliyatli	L.S.Vigotskiy; A.N.Leontyev; P.Ya.Galperin	Kompetentlikni faoliyat jarayonida shakllantirish; talabani faol subyekt sifatida ko‘rish	IAKni real analitik topshiriqlar va loyihalar jarayonida rivojlantirish; nazariy bilimni faol amaliyot bilan bog‘lash

1-jadvaldan ko‘rinadiki, tizimli yondashuv IAK modelining tuzilmaviy yaxlitligini ta’minlaydi, kompetensiyaviy yondashuv uni o‘lchanadigan ta’lim natijasi sifatida ifodalaydi, faoliyatli yondashuv esa kompetentlikni real faoliyat jarayonida shakllantirish mexanizmini belgilaydi. Uchala yondashuv bir-birini istisno qilmaydi; aksincha, IAKning tuzilma, natija va jarayon kabi o‘zaro bog‘liq qirralarini qamrab olib, yaxlit metodologik asosni tashkil etadi.

Uch yondashuv sintezi asosida IAKni rivojlantirishning konseptual-metodologik o‘zagi shakllantirildi (1-rasm). Modelning mantiqiy izchilligi quyidagicha: yondashuvlar integrativ metodologik o‘zakni hosil qiladi; ushbu o‘zak IAKning to‘rt komponentini belgilaydi; har bir komponent to‘rtta indikator orqali operatsionallashtiriladi; refleksiv qayta aloqa esa rivojlantirish jarayonining uzluksiz takomillashuvini ta’minlaydi.

Informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishning konseptual-metodologik o‘zagi



1-rasm. Talabalarda IAKni rivojlantirishning konseptual-metodologik modeli

Tizimli yondashuv talabiga muvofiq IAK to‘rtta o‘zaro bog‘liq komponentga ajratildi; kompetensiyaviy yondashuv talabiga muvofiq har bir komponent o‘lchanadigan indikatorlar bilan ta’minlandi; faoliyatli yondashuv talabiga muvofiq esa indikatorlar aniq analitik harakatlar shaklida ifodalandi. Model 2-jadvalda batafsil keltirilgan.

2-jadval

IAKning tuzilmaviy-funksional modeli: komponentlar, indikatorlar va yetakchi metodologik asos

Komponent	Indikatorlar (4 ta)	Yetakchi metodologik asos
Motivatsion-qadriyatli	Axborot bilan ishlashga qiziqish va ichki motivatsiya Akademik halollik va axborot etikasiga sadoqat Informatsion mustaqillik va tashabbuskorlik O‘z-o‘zini rivojlantirishga yo‘naltirilganlik	Kompetensiyaviy yondashuv (qadriyat–motiv ustuvorligi)
Kognitiv-informatsion	Axborot ehtiyojini aniqlash va aniq ifodalash Axborotni izlash va manbalarni maqsadli	Tizimli yondashuv (tuzilma va aloqalar)

	tanlash Manbalar ishonchliligi va dolzarbligini baholash Axborotni tizimlashtirish va tuzilmalash	
Operatsional-analitik	Ma’lumotlarni tahlil va sintez qilish Tanqidiy baholash va faktlarni tekshirish (faktcheking) Dalilga asoslangan xulosa va qaror qabul qilish Raqamli va analitik vositalardan foydalanish	Faoliyatli yondashuv (analitik harakat)
Refleksiv-baholovchi	Faoliyatni rejalashtirish va o‘z-o‘zini nazorat qilish Natija va jarayonni refleksiv baholash Xatolarni aniqlash va tuzatish Axborotni etik va mas’uliyatli taqdim etish	Faoliyatli + kompetensiyaviy yondashuv (refleksiya)

Taklif etilayotgan 4×4 tuzilma (jami 16 indikator) IAKni nazariy jihatdan yaxlit va amaliy jihatdan o‘lchanadigan tizim sifatida ifodalaydi. Har bir indikatorni keyingi bosqichlarda 0–4 balli analitik rubrika asosida baholash mumkin; bu talabaning rivojlanish darajasini miqdoriy va sifat jihatidan aniqlash imkonini beradi. Bunday operatsionallashtirish diagnostikadan individual rivojlanish trayektoriyasini loyihalashgacha bo‘lgan pedagogik qarorlar uchun metodik asos yaratadi. Taklif etilgan model IAKni axborot savodxonligi va tanqidiy fikrlash bilan bog‘laydigan zamonaviy yondashuvlar [11; 12] hamda kompetensiyaviy va faoliyatli metodologiyaning fundamental qoidalari [3–9] bilan uyg‘unlashadi. Modelning yangiligi shundaki, uch yondashuv ketma-ket emas, balki funksional taqsimot tamoyili asosida integratsiyalangan: tizimli yondashuv tuzilmaviy yaxlitlikni, kompetensiyaviy yondashuv natijaning o‘lchanuvchanligini, faoliyatli yondashuv esa kompetentlikning shakllanish mexanizmini ta’minlaydi. Shu tariqa tuzilma, natija va jarayon o‘rtasidagi metodologik uzviylik ta’minlanadi. Modelning asosiy cheklovi uning hozircha nazariy asoslash bosqichida ekanligidir; uning validligi, ishonchliligi va diagnostik aniqligi empirik hamda psixometrik tekshiruvni talab qiladi.

Modelning nazariy ahamiyati IAKni uch metodologik yondashuv integratsiyasida izohlash hamda uning komponent-indikator tuzilmasini aniqlashtirish bilan belgilanadi. Amaliy ahamiyati esa 16 indikator asosida

diagnostik vositalar, analitik rubrikalar va individual rivojlanish trayektoriyalarini ishlab chiqish uchun metodik asos bo‘la olishida namoyon bo‘ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘tkazilgan nazariy tadqiqot quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini berdi:

1. Informatsion-analitik kompetentlik integrativ shaxsiy sifat bo‘lib, axborot ehtiyojini aniqlash, axborotni izlash, baholash, tahlil va sintez qilish, dalillarga asoslangan qaror qabul qilish hamda mazkur faoliyatni refleksiv boshqarish qobiliyatlarini birlashtiradi. Uni alohida ko‘nikmalar yig‘indisiga qisqartirish metodologik jihatdan yetarli emas.

2. Tizimli, kompetensiyaviy va faoliyatli yondashuvlar bir-birini istisno qilmaydi, balki IAKning tuzilma, natija va jarayon jihatlarini qamrab oluvchi yagona metodologik asosni tashkil etadi.

3. Uch yondashuv integratsiyasi asosida to‘rt komponent (motivatsion-qadriyatli, kognitiv-informatsion, operatsional-analitik, refleksiv-baholovchi) va 16 indikatordan iborat tuzilmaviy-funksional model asoslandi. Model yaxlit va o‘lchanadigan tizim sifatida 0–4 balli analitik rubrika orqali operatsionallashtirilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Bertalanffy L. von. General System Theory: Foundations, Development, Applications. - New York: George Braziller, 1968. – 289 p.
2. Блауберг И.В., Юдин Э.Г. Становление и сущность системного подхода. - М.: Наука, 1973. - 270 с.
3. Хуторской А.В. Методологические основания применения компетентностного подхода к проектированию образования // Высшее образование в России. - 2017. - № 12 (218). - С. 85-91.
4. Зимняя И.А. Ключевые компетенции - новая парадигма результата образования // Высшее образование сегодня. - 2003. - № 5. - С. 34-42.
5. Болотов В.А., Сериков В.В. Компетентностная модель: от идеи к образовательной программе // Педагогика. - 2003. - № 10. - С. 8-14.
6. Зеер Э.Ф. Компетентностный подход к образованию // Образование и наука. - 2005. - № 3 (33). - С. 27-40.
7. Выготский Л.С. Педагогическая психология / под ред. В.В. Давыдова. - М.: Педагогика, 1991. - 480 с.
8. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. - М.: Политиздат, 1975. - 304 с.
9. Гальперин П.Я. Психология как объективная наука / под ред. А.И. Подольского. - М.: Институт практической психологии; Воронеж: НПО «МОДЭК», 1998. - 480 с.

10. Baydjanov B.X. Teacher’s Digital Competences as a Factor in the Development of Students’ Information-Analytical Competence // American Journal of Social and Humanitarian Research. - 2025. - Vol. 6, No. 3. - P. 499-506.

11. Fomkina E., Koshova O., Shurduk A. Peculiarities of Formation of Information and Analytical Competence of Students of Higher Education Establishment in the Study of Natural Sciences. - Zenodo, 2020.

12. Tripon C. Information Literacy in Engineering Education // Digital Equity and Literacy. - London: IntechOpen, 2025. - P. 1-24.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son «Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi (Lex.uz).

O‘QUVCHILARDA KREATIV KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI

Axmedova Gavhar Faxriddinovna
Buxoro davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchilarda kreativ kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari hamda amaliy mexanizmlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Kreativ kompetensiya shaxsning nostandart fikrlash, muammolarga yangicha yondashish, innovatsion g‘oyalar yaratish va ularni amaliy faoliyatga tatbiq eta olish qobiliyatlari majmui sifatida talqin etiladi. Maqolada pedagogik, psixologik, didaktik hamda raqamli mexanizmlarning o‘zaro integratsiyasi kreativ kompetensiyalarni rivojlantirishning samarali omili sifatida asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: kreativlik, kreativ kompetensiya, ijodiy fikrlash, innovatsion ta’lim, pedagogik mexanizmlar.

МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ КРЕАТИВНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ У УЧАЩИХСЯ

Аннотация. В статье с научной точки зрения анализируются теоретико-методологические основы и практические механизмы формирования и развития креативных компетенций у учащихся в условиях современной системы образования. Креативная компетенция рассматривается как совокупность способностей к нестандартному мышлению, инновационному подходу к решению проблем, генерации новых идей и их практической реализации. Обоснована значимость интеграции педагогических, психологических, дидактических и цифровых механизмов в развитии креативных компетенций обучающихся.

Ключевые слова: креативность, креативная компетенция, творческое мышление, инновационное образование, педагогические механизмы.

MECHANISMS FOR DEVELOPING CREATIVE COMPETENCIES IN STUDENTS

Abstract. This article provides a scientific analysis of the theoretical and methodological foundations and practical mechanisms for developing creative competencies in students within the modern education system. Creative competence is interpreted as a set of abilities related to non-standard thinking, innovative problem-solving, generation of original ideas, and their practical implementation.

The study substantiates the importance of integrating pedagogical, psychological, didactic, and digital mechanisms as an effective factor in fostering students' creative competencies.

Keywords: creativity, creative competence, creative thinking, innovative education, pedagogical mechanisms.

KIRISH

Zamonaviy jamiyatning intellektual va innovatsion rivojlanishi bevosita ta'lim tizimining sifati hamda unda shakllantirilayotgan kompetensiyalar bilan uzviy bog'liqdir. XXI asrda bilimlarning tez yangilanishi, texnologik taraqqiyot va globallashuv jarayonlari o'quvchilardan nafaqat akademik bilimlarni, balki kreativ fikrlash, muammolarga noodatiy yondashish va yangi g'oyalar ishlab chiqish qobiliyatlarini ham talab etmoqda. Shu bois, ta'lim jarayonida o'quvchilarda kreativ kompetensiyalarni rivojlantirish masalasi dolzarb ilmiy-pedagogik muammo sifatida maydonga chiqmoqda.

Hozirgi vaqtda an'anaviy ta'lim modellari ko'proq reproduktiv faoliyatga yo'naltirilgan bo'lib, o'quvchilarning ijodiy salohiyatini to'liq namoyon etish imkonini cheklab qo'ymoqda. Ta'lim mazmuni va metodlarining standartlashuvi, baholash tizimining natijaga yo'naltirilganligi kreativlikni rivojlantirishda muayyan to'siqlarni yuzaga keltirmoqda. Natijada, ta'lim amaliyotida kreativ kompetensiyalarni shakllantirishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish va ularni ilmiy asosda joriy etish zarurati ortib bormoqda.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, kreativ kompetensiyalar o'quvchilarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishida muhim omil bo'lib, ularning kelajakdagi ijtimoiy moslashuvi, raqobatbardoshligi va innovatsion faoliyatga tayyorgarligini belgilab beradi. Shu nuqtayi nazardan, kreativ kompetensiyalarni rivojlantirish mexanizmlarini pedagogik, psixologik va didaktik jihatdan kompleks tahlil qilish ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqotning maqsadi o'quvchilarda kreativ kompetensiyalarni rivojlantirishning samarali mexanizmlarini aniqlash va ularning ta'lim jarayonidagi pedagogik imkoniyatlarini asoslab berishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: kreativ kompetensiya tushunchasining nazariy asoslarini tahlil qilish; kreativ kompetensiyalarni rivojlantirish mexanizmlarini tasniflash; ularning ta'lim jarayonidagi amaliy ahamiyatini ochib berish.

MAVZUNING O'RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

O'quvchilarda kreativ kompetensiyalarni rivojlantirish muammosi zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlarida dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri sifatida keng tadqiq etilgan. Ushbu masalaning o'rganilganlik darajasi xorijiy va mahalliy ilmiy manbalar tahlili asosida quyidagi asosiy yo'nalishlarda shakllanganini ko'rsatadi.

Xorijiy tadqiqotlarda kreativlik shaxsning intellektual va psixologik xususiyati sifatida talqin etilib, uning kognitiv mexanizmlari, divergent tafakkur bilan bog‘liqligi hamda ijodiy fikrlashni rivojlantirish omillari chuqur tahlil qilingan. Xususan, J. Guilford, E. Torrance, T. Amabile, R. Sternberg kabi olimlar ishlarida kreativlikning nazariy asoslari, uning tarkibiy komponentlari va baholash mezonlari yoritilgan. Ushbu tadqiqotlarda kreativlik ko‘proq individual psixologik qobiliyat sifatida o‘rganilgan bo‘lib, ta’lim jarayonida uni rivojlantirish mexanizmlariga metodik tavsiyalar berilgan.

Pedagogik yo‘nalishdagi tadqiqotlarda esa kreativlik va kreativ kompetensiya tushunchalari kompetensiyaviy yondashuv doirasida talqin qilinadi. I.A. Zimnyaya, A.V. Khutorskoy, K. Robinson, shuningdek OECD va UNESCO hujjatlarida kreativ kompetensiyalar zamonaviy ta’lim natijasi sifatida asoslab berilgan. Ushbu ishlarda kreativ fikrlashni rivojlantirishning didaktik shart-sharoitlari, interfaol metodlar va innovatsion ta’lim texnologiyalarining samaradorligi ko‘rsatib o‘tilgan.

MDH mamlakatlari va mahalliy olimlar tadqiqotlarida kreativ kompetensiyalarni shakllantirish masalasi asosan pedagogik texnologiyalar, ta’lim mazmunini modernizatsiya qilish va o‘qituvchi kompetentligini rivojlantirish bilan bog‘liq holda yoritilgan. Jumladan, N.A. Muslimov, U.Sh. Begimkulov, N.S. Saidahmedov va boshqa tadqiqotchilar ishlarida ta’lim jarayonida innovatsion va kreativ yondashuvlarni joriy etish masalalari tahlil qilingan. Biroq ushbu tadqiqotlarda kreativ kompetensiyalarni rivojlantirish mexanizmlarining tizimli modeli hamda ularning psixologik-pedagogik integratsiyasi yetarli darajada yoritilmagan.

Shu bilan birga, mavjud ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarda kreativ kompetensiyalarni rivojlantirish muammosi ko‘proq nazariy va metodik jihatdan o‘rganilgan bo‘lib, uni amaliy-pedagogik mexanizmlar, baholash mezonlari va rivojlanish darajalari asosida kompleks tadqiq etishga ehtiyoj mavjud. Ayniqsa, ta’lim jarayonida kreativ kompetensiyalarni rivojlantirishning didaktik, psixologik va tashkiliy mexanizmlarini yagona tizim sifatida asoslash dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

Mazkur holat ushbu tadqiqotning dolzarbligini belgilab, o‘quvchilarda kreativ kompetensiyalarni rivojlantirish mexanizmlarini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan yanada chuqurroq o‘rganish zaruratini taqozo etadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlarida kreativlik shaxsning yangicha fikrlash, noodatiy g‘oyalar ilgari surish, muammolarga nostandart yondashish hamda mavjud bilimlarni yangi kontekstda qo‘llay olish qobiliyati sifatida talqin etiladi. Kreativlik nafaqat intellektual faoliyat mahsuli, balki shaxsning motivatsion,

emotsional-irodaviy va ijtimoiy jihatlari bilan uzviy bog‘liq murakkab psixik hodisa hisoblanadi.

Kreativ kompetensiya esa kreativlikning amaliy va barqaror namoyon bo‘lish shakli bo‘lib, u o‘quvchining bilim, ko‘nikma, malaka, shaxsiy tajriba va qadriyatlar tizimini integratsiyalashgan holda yangi pedagogik vaziyatlarda samarali faoliyat yurita olish qobiliyatini ifodalaydi. Kompetensiyaviy yondashuv nuqtayi nazaridan kreativ kompetensiya - bu o‘quvchining muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish, tanqidiy va divergent fikrlash, refleksiya va o‘zini-o‘zi rivojlantirishga tayyorlik darajasidir.

Ilmiy manbalarda kreativ kompetensiya quyidagi tarkibiy komponentlar orqali izohlanadi:

kognitiv komponent (bilimlar, tasavvurlar, kreativ tafakkur);

operatsion-faoliyat komponenti (ijodiy usullarni qo‘llash, muammo yechish strategiyalari);

motivatsion-qiymat komponenti (ijodga qiziqish, ichki motivatsiya);

refleksiv komponent (o‘z faoliyatini tahlil qilish va baholash).

O‘quvchilarda kreativ kompetensiyalarni shakllantirish masalasi zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan bevosita bog‘liqdir. Xususan, quyidagi yondashuvlar nazariy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi:

Kompetensiyaviy yondashuv - ta’lim jarayonini bilim berishdan ko‘ra, o‘quvchilarda hayotiy va kasbiy vaziyatlarda qo‘llaniladigan kreativ faoliyat tajribasini shakllantirishga yo‘naltiradi.

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv - o‘quvchining individual qobiliyatlari, ehtiyojlari va qiziqishlarini inobatga olib, uning ijodiy salohiyatini ochishga xizmat qiladi.

Faoliyatga asoslangan yondashuv - kreativ kompetensiyalarni faqat faol ijodiy faoliyat (loyiha, muammoli topshiriqlar, tadqiqot ishlari) orqali rivojlantirish mumkinligini asoslaydi.

Konstruktivistik yondashuv - o‘quvchining bilimni tayyor holatda emas, balki mustaqil izlanish, muhokama va refleksiya orqali qurishini ta’kidlaydi.

Mazkur yondashuvlar o‘zaro integratsiyada qo‘llangandagina kreativ kompetensiyalar barqaror va tizimli rivojlanadi.

Psixologik nuqtayi nazardan kreativ kompetensiyalarni rivojlantirish mexanizmlari shaxsning ichki imkoniyatlarini faollashtirishga qaratilgan. Bunda quyidagi mexanizmlar alohida ahamiyatga ega:

motivatsion mexanizm - o‘quvchida ijodiy faoliyatga nisbatan ichki ehtiyoj va qiziqishni shakllantirish;

divergent tafakkurni rivojlantirish mexanizmi - muammoni bir nechta yechimlar orqali ko‘ra olish qobiliyatini rivojlantirish;

emotsional qo‘llab-quvvatlash mexanizmi - ijodiy xatolarga nisbatan tolerant munosabatni shakllantirish;

refleksiv mexanizm - o‘quvchining o‘z ijodiy faoliyatini tahlil qilish va baholash ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Mazkur mexanizmlar ta’lim muhitida psixologik xavfsizlik, erkinlik va qo‘llab-quvvatlovchi iqlim mavjud bo‘lgandagina samarali ishlaydi. Pedagogik mexanizmlar o‘quv jarayonining tashkiliy-metodik jihatlari bilan belgilanadi. Ular quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

muammoli va tadqiqotga yo‘naltirilgan topshiriqlarni qo‘llash;

loyiha va interfaol ta’lim metodlaridan foydalanish;

fanlararo integratsiyani ta’minlash;

raqamli va kreativ ta’lim texnologiyalarini joriy etish;

baholashning rivojlantiruvchi (formativ) turlarini qo‘llash.

Ushbu mexanizmlar o‘quvchilarning faolligini oshirib, ularni mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlovchi shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

O‘quvchilarda kreativ kompetensiyalarni samarali rivojlantirish, avvalo, ta’lim jarayonida zarur bo‘lgan didaktik shart-sharoitlarning yaratilishini taqozo etadi. Bunday shart-sharoitlar o‘quv faoliyatining mazmuni, shakli, metodlari hamda pedagog va o‘quvchi o‘rtasidagi subyekt-subyekt munosabatlari bilan belgilanadi.

Didaktik jihatdan kreativ kompetensiyalar quyidagi sharoitlarda muvaffaqiyatli shakllanadi:

o‘quv jarayonining muammoli va izlanishga yo‘naltirilgan bo‘lishi;

o‘quv materialining ochiq, ko‘p variantli va muhokamaga asoslangan tarzda taqdim etilishi;

mustaqil fikrlashni rag‘batlantiruvchi topshiriqlar ulushining oshirilishi;

o‘quvchilarning individual va jamoaviy ijodiy faoliyatini uyg‘unlashtirish.

Mazkur shart-sharoitlar ta’lim jarayonini reproduktiv emas, balki ijodiy faoliyat maydoniga aylantirib, o‘quvchilarning kreativ kompetensiyalarini faollashtiradi.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar kreativ kompetensiyalarni rivojlantirishning muhim mexanizmi hisoblanadi. Xususan, interfaol va innovatsion metodlar o‘quvchilarning tafakkur jarayonini faollashtirib, ularda yangi g‘oyalar yaratish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Amaliyotda samaradorligi isbotlangan metodlarga quyidagilar kiradi:

muammoli ta’lim metodi - o‘quvchilarda muammoli vaziyatni tahlil qilish va yechim ishlab chiqish qobiliyatini rivojlantiradi;

loyiha metodi - mustaqil izlanish, rejalashtirish va ijodiy mahsulot yaratishga yo‘naltiradi;

aqliy hujum (brainstorming) - divergent fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi;

keys-stadi metodi - real hayotiy vaziyatlar asosida kreativ qaror qabul qilish ko‘nikmasini shakllantiradi;

rolli o‘yinlar va simulyatsiyalar - ijodiy tasavvur va empatiya rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Mazkur metodlarning tizimli qo‘llanilishi o‘quvchilarning nafaqat bilim darajasini, balki kreativ kompetensiyalarining sifat jihatdan rivojlanishini ta’minlaydi.

Fanlararo integratsiya kreativ kompetensiyalarni rivojlantirishning muhim pedagogik mexanizmlaridan biridir. Turli fanlar mazmunining o‘zaro uyg‘unlashuvi o‘quvchilarda hodisa va jarayonlarga kompleks, tizimli va kreativ yondashuvni shakllantiradi.

Integrativ ta’lim:

o‘quvchilarning bilish faoliyatini kengaytiradi;

turli bilim sohalarini uyg‘unlashtirish asosida yangi g‘oyalar yaratishga imkon beradi;

ijodiy tafakkurning moslashuvchanligini oshiradi.

Natijada o‘quvchilar bilimni alohida faktlar majmui sifatida emas, balki ijodiy faoliyatda qo‘llaniladigan yaxlit tizim sifatida o‘zlashtiradilar.

An’anaviy baholash tizimi asosan bilimlarni reproduktiv tekshirishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, kreativ kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida rivojlantiruvchi baholash (formativ assessment) alohida ahamiyat kasb etadi.

Rivojlantiruvchi baholash:

o‘quvchilarning ijodiy jarayonini rag‘batlantiradi;

xatolarni rivojlanish manbai sifatida talqin etadi;

refleksiya va o‘z-o‘zini baholash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Baholash mezonlarining ochiq va tushunarli bo‘lishi o‘quvchilarda o‘z imkoniyatlarini real baholash va kreativ o‘sishga intilish motivatsiyasini kuchaytiradi.

O‘qituvchi kreativ kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonining asosiy subyekti hisoblanadi. Uning pedagogik pozitsiyasi nazoratchidan ko‘ra, maslahatchi, fasilitator va hamkor rolida namoyon bo‘lishi muhimdir.

O‘qituvchi faoliyatida quyidagi strategik yo‘nalishlar ustuvor bo‘lishi zarur:

o‘quvchilar tashabbusini qo‘llab-quvvatlash;

ijodiy muhitni shakllantirish;

erkin fikrlash va xato qilish huquqini tan olish;

individual yondashuvni ta’minlash.

Bunday pedagogik strategiya o‘quvchilarni passiv bilim oluvchidan faol va ijodiy fikrlovchi shaxsga aylantiradi.

XULOSA

Mazkur maqolada o‘quvchilarda kreativ kompetensiyalarni rivojlantirish muammosi zamonaviy pedagogik va psixologik yondashuvlar asosida har tomonlama tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari kreativ kompetensiyalar shaxsning intellektual, motivatsion, faoliyat va refleksiv komponentlari integratsiyasida shakllanadigan murakkab pedagogik hodisa ekanligini ko‘rsatdi.

Tahlillar shuni tasdiqladiki, o‘quvchilarda kreativ kompetensiyalarni rivojlantirish jarayoni tasodifiy emas, balki maqsadli, tizimli va uzluksiz pedagogik mexanizmlar orqali amalga oshirilgandagina samarali natija beradi. Xususan, ta’lim jarayonida muammoli vaziyatlarni yaratish, interfaol va innovatsion metodlardan foydalanish, fanlararo integratsiyani ta’minlash hamda rivojlantiruvchi baholash mexanizmlarini joriy etish o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini faollashtiruvchi asosiy omillar sifatida namoyon bo‘ldi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, o‘qituvchining pedagogik pozitsiyasi va strategik faoliyati kreativ kompetensiyalarni rivojlantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. O‘qituvchining fasilitator, hamkor va motivator sifatidagi roli o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, tashabbuskorlik va ijodiy faollikni shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, psixologik xavfsiz va qo‘llab-quvvatlovchi ta’lim muhitining mavjudligi o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini to‘liq namoyon etish imkonini beradi.

Umuman olganda, maqolada ishlab chiqilgan nazariy xulosalar va amaliy umumlashmalar o‘quvchilarda kreativ kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik tizimni takomillashtirish, ta’lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarni joriy etish hamda ta’lim sifatini oshirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqot natijalari kelgusida kreativ kompetensiyalarni baholash mezonlarini aniqlashtirish, ularni rivojlantirish modellarini ishlab chiqish va empirik tadqiqotlar o‘tkazish uchun mustahkam metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Guilford J.P. The Nature of Human Intelligence. – New York: McGraw-Hill, 1967.
2. Torrance E.P. Creativity in the Classroom. – Washington: National Education Association, 1977.
3. Amabile T.M. Creativity in Context. – Boulder: Westview Press, 1996.

4. Abduqodirov A.A. Ta’lim jarayonida kreativ yondashuvlar. – Toshkent: Ma’naviyat, 2020.
5. Vygotsky L.S. Imagination and Creativity in Childhood. – New York: Routledge, 2004.
6. Begimkulov U.Sh. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
7. Muslimov N.A. Pedagogik kompetentlik asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2016.
8. Saidahmedov N.S. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. – Toshkent: Fan, 2019.

QASHQADARYO VOHASI HUNARMANDCHILIGI BILAN BOG‘LIQ QO‘SHIQLAR VA ULARNING ANTROPOLOGIK TAHLILI

Davlatova Saodat Tilovberdiyevna
O‘zbekiston Respublikasi Millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar masalalari bo‘yicha qo‘mitasi bo‘lim boshlig‘i
Tarix fanlari doktori, professor
saodatdavlatova70@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada Qashqadaryo vohasi hunarmandchiligi bilan bog‘liq xalq qo‘shiqlari etnologik va antropologik nuqtayi nazardan tahlil qilingan. Hunarmandchilik qo‘shiqlarining shakllanishi, ularning mehnat jarayoni, xalqning kundalik turmush tarzi, moddiy va ma’naviy madaniyati hamda urf-odat va marosimlar bilan o‘zaro bog‘liqligi yoritilgan. Xususan, urchuq va charx yigirish, bo‘z va gilam to‘qish, kashtachilik, tikuvchilik hamda boshqa an’anaviy hunar turlari bilan bog‘liq qo‘shiqlarning mazmuni va funksional xususiyatlari tahlil etilgan. Shuningdek, hunarmandchilikka oid marosimlar, ustoz-shogird an’analari, xalqning e’tiqodiy tasavvurlari, ramziy qarashlari hamda ayollarning an’anaviy hunarmandchilikdagi o‘rni ochib berilgan. Hunarmandchilik qo‘shiqlari xalqning tarixiy tajribasi, mehnat madaniyati, ijtimoiy hayoti va etnomadaniy qadriyatlarini o‘zida mujassam etgan muhim nomoddiy madaniy meros namunasi ekanligi asoslangan.

Kalit so‘zlar: Qashqadaryo vohasi, hunarmandchilik, xalq qo‘shiqlari, mehnat qo‘shiqlari, etnologiya, antropologiya, charx, urchuq, to‘qimachilik, kashtachilik, gilamdo‘zlik, marosim, urf-odat, nomoddiy madaniy meros.

ПЕСНИ, СВЯЗАННЫЕ С РЕМЕСЛЕННИЧЕСТВОМ КАШКАДАРЬИНСКОГО ОАЗИСА, И ИХ АНТРОПОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

Аннотация. В статье с этнологической и антропологической точек зрения анализируются народные песни, связанные с ремесленными традициями Кашкадарьинского оазиса. Рассматриваются процесс формирования ремесленных песен, их взаимосвязь с трудовой деятельностью, повседневным образом жизни, материальной и духовной культурой народа, а также обычаями и обрядами. Особое внимание уделяется содержанию и функциональным особенностям песен, связанных с прядением с помощью веретена и прялки, ткачеством, ковроделием, вышивкой, швейным делом и другими традиционными ремёслами. Раскрываются также ремесленные

обряды, традиции «устоз–шогирд» («мастер–ученик»), народные верования и символические представления, а также роль женщин в традиционном ремесленном производстве. Обосновывается, что ремесленные песни являются важным образцом нематериального культурного наследия, отражающим исторический опыт, культуру труда, социальную жизнь и этнокультурные ценности народа.

Ключевые слова: Кашкадарьинский оазис, ремесло, народные песни, трудовые песни, этнология, антропология, прялка, веретено, ткачество, вышивка, ковроделие, обряд, обычай, нематериальное культурное наследие.

SONGS ASSOCIATED WITH THE CRAFT TRADITIONS OF THE KASHKADARYA OASIS AND THEIR ANTHROPOLOGICAL ANALYSIS

Abstract. This article provides an ethnological and anthropological analysis of folk songs associated with the traditional crafts of the Kashkadarya oasis. It examines the formation of craft-related songs and their interrelationship with labor activities, everyday life, the material and spiritual culture of the people, as well as customs and rituals. Particular attention is paid to the content and functional characteristics of songs associated with spindle and spinning-wheel work, weaving, carpet making, embroidery, sewing, and other traditional crafts. The article also discusses craft-related rituals, master–apprentice traditions, folk beliefs and symbolic representations, as well as the role of women in traditional craftsmanship. It is argued that craft-related songs constitute an important element of intangible cultural heritage, reflecting the historical experience, labor culture, social life, and ethnocultural values of the people.

Keywords: Kashkadarya oasis, craftsmanship, folk songs, labor songs, ethnology, anthropology, spinning wheel, spindle, weaving, embroidery, carpet making, ritual, customs, intangible cultural heritage.

KIRISH

O‘zbek xalqi juda boy, xilma-xil an’analarga ega bo‘lib, o‘ziga xos iqlimi, aholining mashg‘uloti, xo‘jalik faoliyatidagi an’analar avloddan-avlodga o‘tib kelgan. Ularni ijtimoiy munosabatlar turlariga qarab shartli ravishda tabiat, geografik muhit, mehnat turlari, milliy turmush va madaniyatga doir an’analarga bo‘lish mumkin.

Qo‘shiqlar mehnatkash xalqni moddiy va ma’naviy hayotining hamma tomonlari bilan mahkam bog‘langan bo‘lib, ular muayyan tarixiy taraqqiyotda insoniyat tafakkuri darajasiga qarab turmushni o‘ziga xos obrazlarida badiiy aks ettiradi. Qo‘shiqlar o‘zida eng qadimiy tushunchalardan tortib turli davrlarning turlicha qatlamlarini saqlagan hamda boy tasviriy vositalarda ifodalangan, serqirra

mavzu, janrlarning turli-tumanligi bilan xarakterlanuvchi qadimiy ijrochilik usullariga ham ega.

Insoniyat aydo bo‘libdiki, o‘z his-tuyg‘ularni ifodalash vositasi sifatida qalb ohanglarini qo‘shiqlarda ifodalagan. Qadimdan qo‘shiq deb atayotgan janr adabiyotlarda ko‘rsatilishicha, «shlok», «takshut», «ir» (yir), «kug» kabi atamalar bilan atalgan. Masalan, Mahmud Koshg‘ariy bunday asarlarni «qoshug‘» - qo‘shiq, qasida, she’r tarzida beradi.

Xalq qo‘shiqlari esa to‘liq ravishda lirik ijod sifatida belgilangan. Taniqli olima, xalq qo‘shiqlarining yirik tadqiqotchisi, butun umrini xalq qo‘shiqlarini yozib olish, o‘rganish, nashr qilishga bag‘ishlagan fidoyi inson Muzayyana Alaviya mazkur asarlarga: «...oddiy hayot hodisalari tug‘dirgan hissiyotni ifodalagan, kuyga solishga qulay, qisqa, esda qoladigan qofiya, vaznga ega bo‘lgan she’r qo‘shiq bo‘la oladi» , - deb ta’rif beradi.

Haqiqatan ham, qo‘shiqning paydo bo‘lishiga bosh sabab inson kayfiyatidagi chuqur iztirob yoki to‘satdan paydo bo‘lgan ko‘tarinki ruhdir. Inson noxush damlarda ko‘proq sukut saqlaydi, xayolda vaziyat yechimini topishga urinadi. Bunday daqiqalarda mungli kuy tasalli beradi, ko‘ngilni bir oz bo‘lsa-da yozadi. Xursandchilik onlarida esa sho‘x qo‘shiq, raqs hamroh bo‘ladi. Ayni ana shunday manfiy va musbat holatlar shaxs qalbida lirik kechinmalarning paydo bo‘lishiga zamin hozirlaydi: oqibatda qo‘shiqning yaratilishiga sabab bo‘ladi. Xalqimizda «Kuygan – qo‘shiqchi, suygan – baxshi» hikmati bejiz aytilmaydi.Qo‘shiqlar dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik qo‘shiqlariga bo‘linadi

Hozirgi kunda dunyo miqyosida kechayotgan globallashuv jarayonlari etnik xususiyatlarni saqlab qolish omillari va milliy marosimlarni ilmiy asoslashga sabab bo‘lmoqda. Bugun zamonaviy etnologiyada tadqiqot mavzusi yanada chuqurlashtirilgan holda eng yirik etnoslardan tortib kam sonli xalqlarni ham izchil o‘rganishga, ularning turmush tarzi bilan bog‘liq urf-odat va marosimlarni tadqiq qilishga e’tibor qaratilmoqda.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

Xalq hunarmandchiligida mahalliy aholining urf-odat, marosim, bayram, diniy va dunyoviy dunyoqarashlari bilan bevosita bog‘langan tasvirlar doimo ramziy ohangda, yetakchi mavzu sifatida talqin etib kelingan. Hududlar hunarmandchiligi bilan bog‘liq an’ana, urf-odat va marosimlarda asosiy qahramonlar – inson, tabiat va koinot bo‘lgan. Chunonchi, urf-odat va marosimlarda dastlab dunyoning paydo bo‘lishi, tabiat hodisalarini ilohiylashtirish tarannum etilsa, davrlar osha ular orasidagi bog‘liqlik avval diniy, keyin falsafiy mushohada tarzida namoyon bo‘ladi. Bugungi kungacha yetib kelgan milliy hunarmandchiliki o‘zining ishlab chiqarish uslubi va texnologiyasini saqlab qolgan bo‘lsa-da, mazmunan va shakl jihatidan

ancha o‘zgargan.

Xalq amaliy bezak san’atida tasvirlangan naqshlarda ma’lum etnos vakillarining estetik dunyosi ifodalanishi bilan birga, unda dunyoviy va zamonaviy tasavvurlar ham o‘rin olgan. Bunday semantik-semiotik ramz, timsollar hunarmandchilikning barcha sohalarida aks etishi nafaqat islom an’analari, balki milliy madaniy-tarixiy jarayonni ko‘rsatib turuvchi abadiy manba ham hisoblanadi.

Hunarmandchilik ishlarini bajarish jarayonida kuylanadigan qo‘shiqlar hunarmandchilik kasb-kori bilan bog‘liq qo‘shiqlari hisoblanadi. O‘zbek xalq hunarmandchilik qo‘shiqlari orasida charx yigirish, o‘rmak o‘rish, kashta, to‘n tikish, gilam, bo‘z to‘qish bilan bog‘liq qo‘shiqlar asosiy o‘rin tutadi.

Masalan, hunarmandchilik qo‘shiqlaridan:

a) 44 misra o‘tov tikishga;

b) 28 misra gilam to‘qishga;

v) 40 misra esa so‘zana, zardevol, ro‘molcha, bug‘joma, yostiq, ko‘rpa, qalpoq, belbog‘ tikishga bag‘ishlanganlarni keltirib o‘tish mumkin [4].

To‘qimachilik hunarmandchiligining eng yirik tarkibiy qismlaridan biri tikuvchilik hunari qo‘shiqlari xalqimizning uzoq asrlar davomida shakllangan tikish-bichishga aloqador an’analarini ifoda etadi. Ular askar hollarda, tikiladigan kiyimlarning turlari va ularga daxldor e’tiqodlarga qarab ichki xilma xillik hosil qilgan. Shu sababli bir kiyimga atalgan qo‘shiq namunasini boshqa bir kiyim tikish jarayonida aytib bo‘lmaydi. Shu zaylda bir-biridan farq qiluvchi kashtachilik, do‘ppido‘zlik, to‘ndo‘zlik, zardo‘zlik va boshqa turkumga mansub qo‘shiqlar paydo bo‘la boshlagan.

To‘quvchilik hunarmandchiligida ip yigirish bilan bog‘liq urchuq qo‘shiqlari hunarmandchilik bilan bog‘liq qo‘shiqlar sirasida katta o‘rin egallaydi. Chunki u yoki bu matoni to‘qish uchun zarur bo‘lgan ipni mustahkam eshishda qo‘llaniladigan maxsus dastgohlar yo‘q paytlarda kishilar ipni urchuq vositasida yigirganlar. Urchuq qo‘lda ip yigirish uchun ishlatiladigan, ikki tomoni uchli, o‘rtasi yo‘g‘onroq tayoqcha, yigirish quroli hisoblangan [5].

Qo‘l mehnati bilan bajariladigan bu mehnat turi ham uzoq vaqt talab etadigan zerikarli jarayon bo‘lib, ip yigiruvchi ayollar ish paytida urchuqqa murojaat qilishib, ishning ishning unumli va samarali bo‘lishini tilaganlar:

Tez-tez aylan urchug‘im,
Tezlab bo‘layin kechka.
Burayin qo‘lim bilan,
Gurillab aylan, urchug‘im [6].

https://fanlararotadqiqotlar.uz/ ISSN-L: 3093-9240

Urchuq yigirish ham ayollardan mahorat, epchillik talab etadi. Shuning uchun o‘rmakchi xotinlarning o‘z ishini puxta bajarish haqidagi istaklari aks etganligi muhim ahamiyatga ega.

Dostonlarda aks etgan hunarmandchilikka oid qo‘shiqlar ichida charx qo‘shiqlari katta o‘rin egallaydi. Mehnat e’tibori bilan charx urchuqdan keyin yuzaga kelgan ip yigiruvchi mukammallashgan asbob bo‘lib, uning ish unumi ancha yuqori. Charx… ip yigiradigan dukli dastali asbob [5]. Bundan ko‘rinib turibdiki, charx maxsus dastakni burash orqali aylantiriladi, shu bois u kishini tez charchatadi.

Charx yigirib, charx yigirib,
Shul qo‘lginam toladur.
Agar shuni yigirmasam,
Bolalar och qoladur [6].

Charx urchuqqa nisbatan ancha qulaylikka ega bo‘lishiga qarmay, ish unumi jihatidan hozirgi dastgohlar darajasida emas. Ip yigiruvchilar bir hafta mobaynida qilgan ishlari evaziga oilani boqishga yetadigan ip tayyorlay olmasliklaridan shikoyat qiladilar.

TAHLIL VA NATIJALAR

Marosimlar millatning o‘ziga xosligi va tarixiy tajribasini saqlash va kelajakka yetkazish vositasi sifatida milliy hayotning ulkan belgili (semiotik) hodisasidir. Ayni paytda, ma’naviy qadriyatga aylangan urf-odat va rasm-rusumlar zamon talablari asosida qayta baholanib boradi. Ushbu etnosemiotik jarayon ham an’anaviylikning ustuvorligidan kelib chiqadi.

Marosim qo‘shiqlari musiqa folklorining murakkab va muhim masalalaridan hisoblanib, urf-odatlar qo‘shiqlar bilan bir butunlikda olinadi. Zero, marosimning tarixiy taqomilini ko‘rish uchun qo‘shiqlarning badiiy obrazi muhim o‘rin tutadi. Marosimlarda xatti-harakat va so‘z vositalari qatorida musiqa muhim o‘rin tutadi. Biz birorta marosimni qo‘shiq yoki aytim-yo‘qlovlarsiz tasavvur eta olmaymiz.

Qashqadaryo vohasining Qarshi va Shahrisabz tumanlarida metallga ishlov beruvchilar katta boboga atab ma’lum davr oralig‘ida sannongarlik /sannonpazlik marosimini o‘tkazib turishgan. Sannonpozlik– bu arvohi pir marosimining o‘zi bo‘lib, unda Qashqadaryoning barcha metallga ishlov beruvchilari, ya’ni temirchilar, misgarlar, zargarlar ishtirok etishgan. Bu marosim Rossiya imperiyasi bosqiniga qadar Qarshi va Shahrisabzda 2–3 yilda bir marta o‘tkazilinib, unda asosan hunarmandlarning jamoaviy ishlari borasidagi masalalar ko‘rilgan. Sannonpazlik marosimida Qur’on va risoladan parchalar o‘qilgan, qo‘y va echki so‘yilib, qurbonlik qilingan. Bu marosim uchun salqin va so‘lim joylar tanlanib, ba’zan temirchilarning qo‘rg‘oni yoki masjid hovlilarida ham o‘tkazilgan. Marosim tayin qilingan kunda taklif qilinganlardan kimgadir temir-tersak, ko‘mir va boshqa

mahsulotlar kerak bo‘lsa, marosim kuni tortiq va shirinliklar bilan birga yetkazilgan. Bundan tashqari, oqsoqolga barcha harajatlar uchun ma’lum miqdorda bir qism pul ham berilgan. Kelgan mehmonlar yuqorida o‘tirgan imom, bobo, oqsoqol va katta ustalar bilan salomlashishgan. Hamma yig‘ilgandan so‘ng Qur’ondan oyatlar o‘qilib, hunar pirlariga sajda qilingan. Keyin ustaxonalarni ta’mirlash boshlanib, bu jarayon bir necha kun davom etgan.

Dehqonchilik kabi hunarmandchilik sohasida ham kayvoni atamasi uchraydi. Kayvoni Qashqadaryo vohasining tog‘li tojiklari orasida katta oilalardan tayinlangan ayol bo‘lib, barcha ayollarga ishni ta’minlab beruvchi hisoblangan. Vohaning turkiy tilli aholisi orasida kayvoni atamasi faqat ayollarga nisbatan emas, balki hunarmandchilik masalalari bilan shug‘ullanuvchi qishloqning katta yoshdagi erkaklariga nisbatan ham qo‘llangan. U Farg‘ona vodiysida – xodim, Buxorada – kayvoni, Toshkentda dasturxonchi deb atalib, barcha oilaviy marosimlarni o‘tkazish, mehmonlarga yeguliklar tortish va sovg‘a berishda o‘z maslahatini bergan.

Surxon vohasida olib borilgan dala etnografik tadqiqotlardan ma’lum bo‘lishicha, xalq dostonlarida aks etgan o‘zbek xalq qo‘shiqlari orasida hunarmandchilik kasbu-koriga oid qo‘shiqlar anchagina salmoqli o‘rin egallaydi. Bunday qo‘shiqlarda hunarmand yoki kosibning uzoq tarixiy sharoitlardagi moddiy va ma’naviy hayoti, ichki ruhiy kayfiyati, mehnat mashaqqatlari bilan qo‘shilib tasvirlanadi:

Bo‘z to‘qiymiz qirg‘og‘ini o‘xshatib,
Moki otaman dastginamni qaqshatib,
Bozordagi shoyilardan yaxshi etib
Nafsdan o‘xshagan bo‘zim yaxshidir [9].

Ayollar tilidan aytiladigan bunday qo‘shiqlar charx yigirishda (“Charxim tonib tashlaydi”), olacha, gilam to‘qishda, so‘zana, palak, do‘ppi tikish va shunga o‘xshagan ish jarayonlarida yaratilgan hamda tildan tilga o‘tib kuylanib kelmoqda. Demak, bo‘zchi aytgan qo‘shiqda jafoli, unumsiz mehnat bo‘zchilik hunarining g‘oyat og‘irligi, buning ustiga to‘kilgan bo‘zi sotilmay, bozori kasod bo‘lib, oilasidan muhtojlik arimaganligi singari motivlar ravshan ko‘rinib turibdi. Xalqda “bo‘zchi belboqqa yolchimas” degan maqol behuda bo‘lmagan. Haqiqatda bo‘zchi bor yo‘g‘ini bozorga olib chiqqan, bir parcha nonga almashtirgan. Ana shu hayotiy detallar, kosibning ruhini qo‘rquv, g‘amginlik, shikoyat motivlar orqali beriladi:

Do‘kondan uyga kirsam tanam qaqshaydi,
Sovuqlarda o‘lmay qolsam yaxshiyda
Qarisi tilladan ketsa yaxshiydi,
Shunday mening bo‘zim arzon ketarmi [10].

https://fanlararotadqiqotlar.uz/ ISSN-L: 3093-9240

Mehnat jarayonini aks ettiradigan an’anaviy qo‘shiqlarning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, bajariladigan mehnat ritmi qo‘shiq ohangi bilan ichki bog‘liqlikka egaligin ko‘rsatadi. Kosib-hunarmandning kelini yoki qizini charxda ip yigira turib, qo‘l harakati ritmiga muvofiq ohangda mos kuylaganda, uning yoshligi, ichki zavqi, shu topda ishdan ko‘ra o‘yinga mayli ko‘proq ekani sezilib turadi:

Elak ichida kepak,
Mening eshganim ipak,
Mening ipimday qilib
Esholmaydi o‘rgimchak.

Bu kabi qo‘shiqlarda aholining halol mehnat qilib yashashi, tiriklik uchun kurashi, kundalik turmush tarzi, xo‘jalik faoliyati va mehnatga muhabbati uning azaliy odati ekanligi chuqur hayotiy aytimlarida ko‘rish mumkin.

Bo‘zchi dastgohining har bir zaruriy qismi haqida fikr yuritilishi va ularning bir-biri bilan uzviy bog‘liqlikning qo‘shiqqa solinishi tasodifiy emas. Bo‘zchi o‘z qo‘shiqlarida mehnat sharoitining og‘irligi, zax, qorong‘i, do‘konda ishlash jarayoni quyidagicha tasvirlanadi.

Gulladan ilgari dastgoh,
Poshpurtlarni urdim pastga,
Siring aytma yoru do‘stga,
O‘tgin, qora mokim endi[9].

Hunarmandchilik qo‘shiqlarida mehnat ahlining moddiy qiyinchiliklari, turmush kechirishning og‘irligi va ijtimoiy hayotdagi tengsizlik sabablarini ochiq ravshan tushunib olish mumkin.

Tarixiy manbalardan ma’lumki, Qashqadaryo vohasida yashovchi turkman xalqining yabani urug‘i, hamda Qamashi va Jeynov qishloqlaridagi arablar bilan birga yashovchi aholi o‘rtasida gilamdo‘zlik vohaning boshqa hududlariga qaraganda juda rivojlangan. Yabani urug‘i ersari qavmiga mansub bo‘lib, XVIII asrning o‘rtalarida Qashqadaryo vohasiga Turkmanistonning Burdaliq qishlog‘i atroflaridan ko‘chib kelishganligi to‘g‘risida ma’lumotlar uchraydi [8]. Lekin bu fikr bilan vohada gilamdo‘zlikning rivojlanishida turkman urug‘lari muhim o‘rin tutgan ekan degan xulosaga kelmaslik kerak. Vohada gilamdo‘zlik qadimdan mavjud bo‘lib, bu kasb qo‘shni urug‘ va qavmlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar natijasida takomillashib, rivojlanib kelgan.

Dostonda gilamdo‘zlik va tikuvchilik bilan bog‘liq qo‘shiqlar Zebo va uning onasi obrazi talqini orqali beriladi. Tikuvchilik o‘zbek xotin-qizlarining barchasi bilishi shart bo‘lgan hunar hisoblansa-da, bu sohaning ham o‘z ustalari, elda nom qozongan chevarlari bo‘lgan. Qo‘shiqda aytilganidek: «Jomovni jonli tikadi, tugmani egri tikadi, to‘p tikish, ko‘rpa tikish, uni ko‘r ham tikadi [4].

https://fanlararotadqiqotlar.uz/ ISSN-L: 3093-9240

Dunyoning ko‘pchilik xalqlarida o‘ziga xos kashtado‘zlik hunari mavjud bo‘lib, ularda har bir xalqning didi, dunyoqarashi, olam va odam haqidagi mifologik tasavvurlari, go‘zallik va nafosatni anglashdagi didi kabilar aks etadi. Shuning uchun kashtado‘zlik amaliy san’atning eng muhim ko‘rinishi sifatida alohida e’zozlanadi. Shuningdek, kashtachilik hunari, matoga turli naqshlar solib, kashta tikish san’ati qiz bola uchun oddiy bichish-tikishni emas, turli usulda kashta tikishni o‘rganish zarur degan qarash mavjudligi oila uchun yozilmagan o‘ziga xos odatlardan hisoblangan.

Hozirgi kunda vohaning G‘uzor, Dehqonobod, Qamashi, Chiroqchi tumanlari qishloqlarida oilada qiz bola kashta tikish hunarini bilishi, gulli yostiq, bolish, qo‘lro‘mollar, sochiqlar, zardevorlar, so‘zana va boshqalar tikishi shart hisoblanadi [4]. Chiroqchi, Qamashi va G‘uzor tumanlarida istiqomat qiluvchi aholi o‘rtasida chimildiq va sochiqlar, parda va joynamozlar, zarchapon va do‘ppilar tikilgan bezaklar, gullar, hayratomuz shakllar nozikligi va ramziy ma’nolar anglatishi bilan kishini o‘ziga maftun etadi degan g‘oya ustunlik qiladi [9].

Sanamani sardor tikar,
Sanab-sanab ko‘zin tikan.
Sanama tamom bo‘lguncha,
Gap eshitmay bo‘ladi kar [10].

Markaziy Osiyo xalqlarida, xususan, o‘zbeklarda kashta tikishning qadimiyligi, tikilayotgan shakllarning betakrorligi bilan kashtalar bir necha turlarga ajratiladi va ular barqaror an’anaviylikka ega.

Dostonda tikuvchilik-kashtado‘zlik bilan bog‘liq qo‘shiqlar ko‘p uchraydi. Zeboning Yozi uchun sirg‘a, javdar munchoqli qo‘lro‘molcha, sachoqli belbog‘, har guli naqshli qalpoq, ikkalasi uchun chevarligini bildirib, yostiq parchasini mullatib ko‘rpa, uy bezashga zardevol, ipak gulli bo‘g‘joma, paxtagulli, tovusgulli uy jihozlari tikadi.

Belbog‘ tikay sochoqli,
Sachoqlari munchoqli,
Yor beliga bog‘lansin,
Yozim tog‘day quchoqli.. [4].

Bu yerda ko‘rinib turibdiki, kuyov uchun tayyorlangan belbog‘ atrofiga sachoqlar tikish va munchoqlar tikib qo‘yish odati tasvirlangan. Munchoqlar taqilgan taqinchoq ofat va kulfatlarning yo‘lini to‘so‘vchi go‘zallik timsoli hisoblangan. Ma’lumki, qadimgi davrlardan O‘rta Osiyo taqinchoqlarida ziynat, nafosat, bezak vazifalaridan tashqari marosimiy irimlar bilan bog‘liq xususiyatlar ham mujassamlashgan [11].

Boysun tumanida istiqomat qiluvchi o‘zbek qizlari turli matolarga kashta tikib, o‘zlariga sep tayyorlashadi. Ular kashtalarning go‘zal va nafis bo‘lishi uchun ko‘proq sanama usulida tikishga harakat qiladilar. Ba’zan kashtaning bu og‘ir turini tikishga erinadi yoki undan qochishga urinadi. Shunday vaqtda onalari ularni koyib, sanama tikishga da’vat qilganligi ma’lumotlari ko‘rinadi. Mana shu kabi oddiy hayotiy holatlar ham sanama qo‘shiqlarida o‘z ifodasin topgan:

Kashta tikdim sanama,
O‘tlar yondi tanama.
Tikmay desam urinar,
Uyda turgan enama [6].

Qashqadaryo va Surxondaryo vohalarida kashtaning yana bir turi ham borki, u «ilma» deb ataladi. Ilma tikish ham tikuvchi qizlardan alohida mehnat, qunt-e’tibor hamda ustalik talab etadi. Elshunos K.Shoniyozovning yozishicha, turkiy xalqlar kashtado‘zchiligida ayniqsa, kiyimlarni bezashda ko‘pincha turli xildagi va rangdagi munchoqlardan foydalanishgan. Shuningdek, yupqa va yassi qilib oltindan, kumushdan yasalgan bargaklar bilan ishlangan zirak, sirg‘a, uzuk, bilakuzuk, ko‘krak va bo‘yin taqinchoqlari ham mavjud bo‘lgan. Axborotchi Yangiboyeva Tursun momoning aytishicha, kiyimlarni har xil munchoq va taqinchoqlar bilan bezash ikki ma’noga ega bo‘lgan:

Birinchidan, bu nafosat, go‘zallik va ulug‘lik;

Ikkinchidan, turli xil tashqi ta’sirdan saqlanish [9].

Bu holatni ifodalovchi lavhalar tarixiy-etnologik asarlarda ham uchraydi [12]. Dala tadqiqotlaridan ma’lum bo‘lishicha, Qashqadaryo vohasi (jumladan, G‘uzor tumani Zangibobo, Zangtepa, Kerait va Cho‘michli qishloqlari) aholisi nikoh marosim bilan bog‘liq marosimlarda kuyov tomonidan kelinga atab jo‘natilgan sarpolar ichiga taqinchoqlar, sirg‘a, uzuk, munchoq, oynalar ham solingan. Bu odat asosan, ikki yoshning bir-biriga sadoqati oynadek yorug‘, uvali–juvali, baxtli va saodatli oila bo‘lish ma’nosini anglatgan [9].

XIX asrning oxiri- XX asr boshlarida voha ayollarining an’anaviy turmush tarzida taqinchoqlar o‘ziga betakror bezak beruvchi (estetik) vosita vazifasini bajarishdan tashqari diniy-afsungarlik funksiyasini, ijtimoiy farqlarni va mintaqa aholisining lokal-hududiy xususiyatlarini ham anglatgan [16].

Qashqadaryo vohasida mehnat qo‘shiqlari ichida do‘ppi tikishga bag‘ishlangan to‘rtliklar ham borki, ularda mehnatning bu turi o‘ziga xos qiyinchiliklarga egaligi alohida ta’kidlangan.

XULOSA

O‘zbek xalqi milliy kiyimlarining qulay va afzalliklari bilan faxrlansa arziydi. Bu kiyimlar ichida to‘n alohida tahsinga sazovor. To‘nning yengilligi, kiyishga

qulayligi, issiq-sovuqqa mosligi diqqatga loyiq. Shuning uchun to‘n bichish va tikishga bag‘ishlangan qo‘shiqlar ancha ko‘p yaratilgan. Dala tadqiqotlaridan ma’lumki, O‘zbekistonning janubiy vohalarida to‘n har kun emas, faqat chorshanba va juma kunlari bichilgan xolos. Bu kunlar esa xalqning e’tiqodik tasavvurlariga ko‘ra xayrli, muborak kunlar hisoblanadi.

O‘zbeklar qadimiy madaniyatga ega xalqlardan biri bo‘lib, yashash sharoiti, iqlimi, tuproq unumdorligi, mo‘l-ko‘l suv havzalariga egaligi bilan dunyo xalqlari hayotida muhim o‘rin tutgan yetakchi mehnat turlari bilan shug‘ullanishga imkon bergan. Shu bois o‘zbek xalqi qadim-qadimdan chorvachilik, dehqonchilik va hunarmandchilik bilan shug‘ullanib kelgan.

Dostonlarda aks etgan mehnat qo‘shiqlarining aksariyati qo‘l mehnatiga asoslangan davrlarda yaratilganligi, mehnat unumdorligining pastligi, mehnat ahlining o‘z mahsulidan yetarlicha foydalana olmasligidan nolish motivlari ushbu qo‘shiqlarda yorqin aks etgan. Yuqorida qayd etilgan mehnat turlari bilan bog‘liq qo‘shiqlar hozir deyarli ijro etilmay qoldi. Chunki ana shu mehnat turlari hozir zamonaviy texnika yoki asbob-uskunalar yordamida amalga oshiriladi.

Janubiy hududlar dostonlarida ta’riflangan hunarmandchilik sohasida gilam to‘qish odatlari, oilada ayol yoki qizlar taqadigan taqinchoq va munchoqlar, turli xil kiyim-kechaklarni bezash muhim o‘rin tutadi.

Hunarmandchiligiga oid urf-odat va marosimlar ajdodlar kulti bilan bog‘liq bo‘lib, ustaning shogirdiga fotiha berishi va ajdodlar ruhiga minnatdorchilik bildirishi ko‘rinishida yaxshi saqlangan. Shuningdek, bu urf-odat va marosimlar hunarmandchilikning shakllanishi, unga turli davrlardagi ijtimoiy-iqtisodiy omillarning ta’siri, ishlab chiqarish jarayonlarini yanada yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Qolaversa, ular diniy-falsafiy qarashlar bilan ham uzviy bog‘liq bo‘lib, o‘simlik, hayvonot olami, koinot, inson va tabiatning abadiyligi ifodalangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Alaviya M. O‘zbek xalq qo‘shiqlari. – Toshkent, 1959.
2. Alaviya M. O‘zbek xalq marosim qo‘shiqlari. – Toshkent: Fan, 1974.
3. Sarimsoqov B. Mehnat qo‘shiqlari // O‘zbek folklori ocherklari. – Toshkent: Fan, 1988. – B. 223–244.
4. Yozi bilan Zebo: doston, qo‘lyozma / aytuvchilar Qodir va Qahhor baxshi Rahimovlar; yozib oluvchi A. Ergashev // Qarshi DU arxivi. – Inv. № 16. – 1-sahifa.
5. O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 2 tomlik. – 2-tom. – Moskva, 1981. – B. 281.
6. Boychechak. O‘zbek xalq ijodi: ko‘p tomlik. – Toshkent, 1984. – B. 308.
7. Dala yozuvlari. Boysun tumani, Munchoq qishlog‘i. Shoberdi baxshidan 2019-yil 22-martda yozib olingan.

8. Мошкова В.Г. Ковры народов Средней Азии конца XIX – начала XX вв. – Ташкент: Фан, 1970. – С. 230.

9. Dala yozuvlari. Xo‘jamahmud (Dehqonobod), Apardi, Zangtepa, Zangibobo, Kerait, Savbog‘, Saroy, Cho‘michli (G‘uzor), Mang‘it, Mirzadala, Karvon, Olmazor, Paxtaobod, Qizilgul (Qamashi), Lolobuloq, Sarson, Umaqay, Sho‘rquduq, Chuvulloq (Chiroqchi) qishloqlari. – 2008-yil avgust.

10. Dala yozuvlari. Zangibobo, Kerait, Savbog‘, Saroy, Cho‘michli (G‘uzor), Karvon, Olmazor, Paxtaobod, Qizilgul (Qamashi), Umaqay, Sho‘rquduq, Chuvulloq (Chiroqchi) qishloqlari. – 2014.

11. Faxriddinova D.A. O‘zbekiston zargarligi // Ma’danga bitilgan qo‘shiq. – Toshkent, 1986. – B. 141.

12. Пугаченкова Г.А., Рempель Л.И. История искусства Узбекистана. – М.: Искусство, 1965.

13. Аскаров А. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистана. – Ташкент: Фан, 1977.

14. Пугаченкова Г.А. Художественные сокровища Дальверзинтепе. – Л.: Искусство, 1978.

15. Ibragimova M. Ayollarning an’anaviy taqinchoqlari bilan bog‘liq magik qarashlar // O‘zbekiston etnologiyasi: yangicha qarashlar va nazariy-metodologik yondashuvlar: to‘plam. – Toshkent, 2004. – B. 176.

16. Davlatova S. Qashqadaryo milliy kiyimlari. – Toshkent, 2006. – B. 92.

YALDO KECHASI ANANAVIY TAQVIM MAROSIMINING ETNOLOGIK TAHLILI

Qurbonova Manzila
Buxoro davlat universiteti professori,
tarix fanlari nomzodi

Bobojonov Shavkat
O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi
huzuridagi Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot
instituti, Etnofolklor laboratoriya mudiri,
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dosent

Annotasiya: Maqolada Turon va Eron xalqlarining qadimiy bayramlaridan biri hisoblangan eng uzun tun - Yaldo kechasini o‘tkazish bilan bog‘liq marosimlar, aholining yaldoga doir tasavvurlari, etiqodiy qarashlari, yaldoning sodir bo‘lishi bilan bog‘liq astronomik hodisalar, uning o‘tmish tarixi va bugungi kundagi holati tarixiy manbalar, ilmiy adabiyotlar asosida etnografik nuqtai nazardan tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: eng uzun tun, quyosh xudosi – Mitra, qish bayrami, qish inqilobi, dehqonchilik taqvimi, yaldo dasturxoni, anor, tarvuz, hofizxonlik, sevishganlar kechasi, qor xat.

ЭТНОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ТРАДИЦИОННОГО КАЛЕНДАРНОГО ОБРЯДА «НОЧЬ ЯЛДО»

Аннотация: В статье с этнографической точки зрения проанализированы обряды, связанные с празднованием самой длинной ночи — ночи Ялда, которая считается одним из древнейших праздников народов Турана и Ирана. Рассмотрены представления населения о Ялде, религиозные воззрения, астрономические явления, связанные с её происхождением, её историческое прошлое и современное состояние, на основе исторических источников и научной литературы.

Ключевые слова: самая длинная ночь, бог солнца - Митра, зимний праздник, зимная революция, земледельческий календарь, дастархан Ялда, гранат, арбуз, хофизхонлик, ночь влюбленных, снежное письмо.

ETHNOLOGICAL ANALYSIS OF THE TRADITIONAL CALENDAR RITUAL “YALDA NIGHT”

Abstract. The article explores, from an ethnographic perspective, the rituals associated with the celebration of the longest night of the year - Yalda Night, regarded as one of the most ancient festivals of the peoples of Turan and Iran. It examines the population's perceptions of Yalda, their religious beliefs, astronomical phenomena linked to its origins, as well as its historical background and present-day significance, drawing on historical sources and scholarly literature.

Key words: the longest night, god of sun – Mitra, winter festival, winter solstice, agricultural calendar, Yalda tablecloth, pomegranate, watermelon, Hafiz poetry, lovers' night, snow letter.

KIRISH

Dunyo yaralibdiki u o‘z qonuniyatlari asosida boshqariladi. Tunu kun, oy va fasllar almashinuvi barchasi koinot jismlari harakati asosida amalga oshadi. Aslida bularning hammasi taqvim bilan bog‘lib bo‘lib, xronologiya va astronomiya fanlarida chuqur tadqiq etiladi. Vaqt bilan bog‘liq ana shunday muhim sanalardan biri, qishning eng uzun va eng qorong‘u tuni Yaldo kechasidir.

Yilning eng uzun va qorong‘u kechasi yaldo kechasi hisoblanadi[10:414]. Bunday hodisa yilda bir marta kuzatiladi. Avvalo bu astronomik hodisa qanday ro‘y berishi haqidagi aniq faktlarga to‘xtalsak. Tabiatning mazkur ajoyib hodisasi 21 dekabrdan 22 dekabrga o‘tar kechasi kuzatiladi. Bilamizki, Yerning ekvator chizig‘i bo‘lgani kabi, osmonning ham ekvatori bor. Yer ikki qismga bo‘linadi: janubiy yarim shar va shimoliy shar. Quyoshning osmon ekvatoridan janubiy yarim sharga eng uzoqlashgan paytida Yerda eng uzun tun kuzatiladi va bu 21 dekabrga to‘g‘ri keladi. Mazkur eng uzun tun qariyb 17 soat davom etadi. Quyosh osmon ekvatoridan uzoqlashsa Yerda tunlar uzayadi, aksincha bo‘lsa kunlar uzadi. Agarda ekvator chizig‘iga kelib, 0 ga tenglashsa tengkunlik bo‘ladi. Shuning uchun, bahorgi tengkunlik 21 mart, kuzgi tengkunlik 22-23 sentyabr, eng uzun kun 23 iyun, eng uzun tun esa 21 dekabrga to‘g‘ri keladi.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

Yaldo kuzning eng so‘nggi kuni va qishning boshlanishi hisoblanadi. Yaldo so‘zi suryoniy tildan olingan bo‘lib, “tug‘ilish”, “yangilanish” manosini bildiradi. Qishning birinchi kunida quyosh chiqqanidan keyin kechalar davomiyligi asta-sekin qisqaradi va kunlar esa uzayadi. Malum manoda yer qayta tiklanadi.

Arxeologlar Yaldoning tarixi bundan yetti ming yil oldingi uzoq davrlarga borib taqalishini taxmin qilishgan. Mutaxassislarning fikriga ko‘ra esa, Yaldo kechasi miloddan avvalgi 500-yil va uning Doro I davrida qadimgi forslarning rasmiy taqvimiga kiritilgan sanasi bilan bog‘liq.

Yilning eng uzun tunini qadimgi oriylar kechki bayram qilishgan. Zardushtiylardan davom etib kelayotgan yaldo tunini nishonlash marosimini qadimiy eronliklarning quyosh xudosi Mitra (Mexra)ning tug‘ilishiga atab o‘tkazishgan. Qadimgi xalqlar tasavvurida tun soat 12 da quyosh xudosi – Mitra duyonga kelgan va uning sharafiga bayram qilingan.

Hamma narsaning buyuk yaratuvchisi Ahuramazda uyg‘unlik va adolatning asl umumbashariy qonuni – Ashani o‘rnatdi. Har bir inson u bilan hamjihatlikka yashashga intilishi kerak. Dunyoda Anxra Maynyu boshqaradigan qora kuchlar ham bor. Zardushtiylik talimotiga ko‘ra, bir kuni, yilning eng uzun va qorong‘u tunida, Anxra Manyyu va uning devlari misli ko‘rilmagan kuchga ega bo‘lganda, Mitra dunyoga keladi. Axuramazdaning o‘g‘li ming qulog‘i, ko‘zi bor Ashuning o‘zgarmas qonunini himoya qilish uchun o‘rnidan turadi va dunyo zulmatga cho‘kmaydi.

Yaxshi va kechirimli xudo Mitra oltin aravada yugurib, vahshiylik va illatlarni yo‘qotib, odamlarni haqiqat va adolat sari yetaklaydi. Qadimgi Forsda Mitra xudosining tug‘ilgan kuni Xorramruz deb atalgan. Keyin Ashur Mazda va Quyosh xudosi Mitra sharafiga madhiyalar aytilgan. Quyosh kultiga etiqod keng tarqalgani uchun yaldo tunida shamlar va ko‘plab chiroqlar yoqilgan. Katta gulxanlar orqali zulmat ustidan g‘alaba qozonishga harakat qilingan. Qish zahrini daf etish uchun olov alangalaridan foydalanilgan, tutatqilar tutatilgan[2:268]. Tun davomida rizq-baraka so‘rab, duolar qilingan.

Odamlar tong otguncha qo‘shiqlar kuylashgan, raqsga tushishgan, kambag‘allar uchun xayr-ehsonlar yig‘ilgan. Uylarda folbinlik mantlari yashiringan javdari nonlar pishirilgan. Fors tarixchisi Mahmud Gardiziyning qayd etishicha, zardusht kohinlari yaldo tunida loydan turli bayram timsollarini yasab, uylarining darvozalariga yopishtirishgan[16]. III-VII asrlarda Mitra kultiga etiqod Sosoniylar imperiyasida kuchli bo‘lgan. Keyinchalik imperiya qulab, Eronda islom dini keng tarqalgach, Yaldo bayramining mazmuni diniy bayramdan oilaviy, milliy bayramga aylanadi.

Ushbu tun “qishki quyosh bayrami” deb nomlangan. Qishning eng uzun tunini fors-tojiklar yaldo deb atashsa, turkiy xalqlar tilida nardurg‘on deb nomlashgan. Nardurg‘on turkiycha.nar/nor – anor, baraka va hayot daraxti manosini anglatgan. Yaldo turkiy va mo‘g‘ul xalqlarning mushtarak bayramidir. Aslida bu bayram dastlab shumerliklar, hindlar, so‘ngra eronlik va turonliklarga o‘tgan deb qaraladi. Mesopotamiyadagi ildizlariga qaraydigan bo‘lsak, eng uzun tun atrofida turli miflar yaratilgan. Qadimiy turklarning diniy ishonchlariga ko‘ra, kecha va kunduz o‘rtasida doimo kurash bo‘lib, eng uzun tun 21 dekabr bo‘lib, undan keyin kunlar uzayadi. Bu davrdan keyin chiqqan to‘linoy yangi yilning birinchi oyi deb atalgan[6].

Yaldo kechasi Abulqosim Firdavsiyning Shoxnomasida[14], Sadiy Sheroziyning “Bo‘stoni”da, Umar Hayyomning “Navro‘znoma” va Abu Rayhon Beruniyning “Qadimgi halqlardan qolgan yodgorliklar” asarlarida tilga olingan. Masalan, XII asr oxirlarida Sheroziy “Bo‘ston” asarida: “haqiqiy tong, Yaldo kechasidan keyin keladi”, - deb yozib qoldirgan. Dunyo tarixidagi eng mukammal xaritalardan biri sanalgan Umar Xayyom taqvimi (Malikshoh sharafiga “Jaloliy kalendari” deb ham yuritiladi)da ham bu kun aniq belgilab berilgan.

X asrda yashab ijod etgan donishmand va tarixshunos Masudiy “Al-tanbeh val-ashrof” kitobda yilni to‘rt faslga ajratdi va yilning uchinchi faslining oxirgi kechasini qish inqilobidan oldingi kecha yoki suryonlik “Konunul avval” oyning 22 kuni (dekabr oyning 22 yoki dey oyning 1 kuni) bilan to‘g‘ri kelishini bayon etadi.

Beruniy day oyining birinchi kunini “Xur” unvonida eslatib, ayrim manbalarda buni “Xurramro‘z” deb tilga olinadi. Bu bayramning kelib chiqish tarixi qish fasli yoki qish inqilobining boshlanishini ulug‘lash ananasi yoki “Xurramro‘z”, yani xursandchilik kechasi bilan tug‘ri keladi.

Abulqosim Firdavsiy manbalarga tayanib “Xurro‘z” va Yaldo kechasining nishonlashini eron podshohlaridan bo‘lmish Hushang nomiga nisbat beradi.

Yaldo tuni turli xalqlar va madaniyatlar vakillari, yani, tatar, ruslar, eroniylar, tojiklar, afg‘onlar, turkmanlar, qozoq va azarbayjonlarni birlashtiradigan marosimdir[4]. Umuman olganda, marosim sharq xalqlari ijtimoiy-manaviy hayotida muhim o‘rin tutgan.

Yaldo tuni “Milodi Akbar”, “Quyoshning tug‘ilishi” deb ham nomlanadi. Eronliklar, tojiklarda bu tunni “shabi Yaldo”, “shabi chilla”, yani “chilla kechasi” deb ham aytiladi. Sababi, bu tundan keyin qishning birinchi qirq kuni - “katta chilla”si (chillai buzurg, chillai kalon), undan keyin esa ikkinchi yigirma kunlik “kichik chilla”si (chillai xurd) boshlangan. Xalq tajribasida qishning eng sovuq kunlari ham ayni shu davrda aniqlangan. Yani 30 yanvar kunidan boshlab Sada bayramiga tayyorgarlik ko‘rilgan. Sada fors tilida yuz manosini anglatuvchi bayram Navro‘zga 50 tun va 50 kun qolganini bildirgan. Beruniy “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida eronlik oylaridagi hayitlar va mashhur kunlar haqida so‘z yuritib, baxman moh oyida nishonlanadigan Sada(ro‘zi obon)ni xayit bayrami deb takidlaydi[2:268].

Yaldo kechasini bazi xalqlar Navro‘z, Mehrjon va Sada bayramlari sifatida jamoa bo‘lib nishonlagan. Sada eronliklarning quyosh taqvimi bo‘yicha o‘n birinchi oyi – braxmaning uchinchi kunida bayram qilingan[1:16] Sada Navro‘zdan 50-55 kun oldin kelgani uchun xalq orasida “Iydi day” (Qish bayrami) deb ham yuritilgan[15:76]. Eron xalqlari turmushida yaldo Navro‘zdan keyingi muhim va qadimiy bayram sifatida nishonlangan.

Yaldo kechalarini insonlar zoriqib kutishgan. Qish kezlari hafta sayin gap-gashtak tashkil etilgan, davraga to‘planganlar shirin suxbatlar qurishgan, sandal atrofida jam bo‘lib palov yoki norin tanovvul qilishgan. Yaldo dasturxoniga alohida hozirlik ko‘rilib, u “sufrai yaldo”, “sufrai chilla”, “dasturxoni yaldo” deb atalgan. Yaldo kechalarida gap-gashtak o‘tkazilgan xonadon sohiblari mehmonlarni to‘kin dasturxon tuzab, kutib olishgan. Qo‘y so‘yilib, tandir nonlar yopilgan. Hayvon va parranda go‘shtidan tansiq taomlar tayyorlangan. Marosim uchun sabzi palov (guruch va baliq ko‘kat bilan aralashtirilgan) hamda oshi rishta (halim, mo‘g‘ul halim deyilgan) maxsus pishirilgan[17]. Qishga asralgan qovun-tarvuzlar, uzum-anorlar omborlardan olib chiqilib, dasturxonga peshma-pesh tortib turilgan. Shuningdek, dasturxondan xurmo, asal, turshak, jiyda, yong‘oq, bodom va xashbarg (quruq mevalar) ham o‘rin olgan. Bularning hammasi baraka, sog‘lomlik va xursandchilik timsoli sanalgan. Dasturxonda mevalardan albatta anorning bo‘lishi shart edi. Chunki anor quyoshga qiyoslanib, unumdorlik, hosildorlik, farovonlik, to‘kin-sochinlik ramzini ifodalagan. Zardushtiylik mabudalaridan Anaxita ham qo‘lida anor shoxchasini ushlab turgan holda tasvirlangan bo‘lib, bu holat anorning hosildorlik ramzi sanalishiga ishoradirp[3:277].

Sheriyatda anor haqida juda ko‘plab chistonlar yaratilgan. Chistonlar kishini o‘ylashga, fikrlashga, hayotda hushyor bo‘lishga undaydi. Odamning aqlini charxlaydi, fikr va bilim doirasini kengaytiradi. Chistonlardan birida anor quyidagicha tariflanadi:

Eshiksiz bir xona – ichida xor on
Yuzlari pardali go‘zallar pinhon
Lali lablar uchun munosib laldir
Ko‘rgan deydi: “Qarang ajoyib marjon”[9:81]

Xalq etiqodida Yaldo tunini “Quyoshning tundagi vakili” deb tasavvur qilishgan. Tun soat 12 da tarvuz teng ikkiga bo‘lingan va uni quyoshga qiyoslashgan. Qizil rangga ega tarvuz va anorni istemol qilish ramziy odatga aylangan. Dasturxondagi nozu nematlarning har biri o‘z ramziy manosiga bo‘lgan. Tarvuzning aylana shakli va qizil rangi orqali mitraizm ananalariga hurmat ifoda etilgan[5]. Shuningdek, tarvuz hosil paytidagi issiqlikni eslatsa, anor va uning donalari nasl davomiyligi, serfarzandlikni bildirgan. Anor donalari serfarzandlikka ishora deb tushunilgan. Qizil rang tong shafaqi, hayot yorqinligi ramzi ekan, shu sabab quyosh nurlariga murojaat qilishgan. Shuning uchun ushbu tun yorug‘lik va nurga talpinish, quyoshni ulug‘lash kechasi sifatida qabul qilingan.

Qishning sovuq va rutubatli kunlarida anorni istemol qilish natijasida inson tanasida quyilib qolgan qonlar suyilib, vujudda qon aylanishi yaxshilanadi va o‘zini tetik, sog‘lom his etadi. Buyrakdagi toshu qumlarni tushirish uchun esa miriqib

https://fanlararotadqiqotlar.uz/ ISSN-L: 3093-9240

tarvuzxo‘rlik qilishgan. Payg‘ambarimiz (s.a.v.) anor fazilati haqida gapirib: “Har kim anor yesa, ko‘ngli ravshan bo‘lur. Alloh taolo qirq kungacha shaytonning vasvasidan omon tutur”[8:19], deganlar. Bundan tashqari, sog‘lik uchun eng foydali bo‘lgan qovun istemol qilishga alohida etibor qaratilgan. Dasturxondagi yog‘li holvalar va shirinliklar qish kunlarida inson tanasiga issiq haroratni baxsh etadi.

Professor Maxmud Hasaniy xotiralarida otasi Maxdum Vosiliy (Mulla Hasanjon ibn Mulla Muhammad Ibrohim, 1898–1979) Buxoroda Mir Arab madrasasida o‘qib yurgan kezlari (1920 yillar) talabalar bilan tarvuzxo‘rlik qilganini takidlaydi. Yaldo tunida tarvuz istemol qilish odatiga hozirgacha amalga qilingan.

Sharqshunos, shoir va tarjimon Maxmud Hasaniy sherlaridan birida Yaldo tunidagi tarvuzxo‘rlikni quyidagicha tasvirlaydi:

Tarvuzning bag‘rida yoquti ahmar*,
Quyoshdek charog‘on Yaldo tunida.

Tarvuz bilan kirib keladi do‘stlar,
Tarvuz misoli kon Yaldo tunida.

Tomog‘i sog‘larga deymiz, tarvuz ye,
Sog‘liqqa imtihon Yaldo tunida.

Qonimiz suyular tarvuz suvidan,
Tomirda qon ravon Yaldo tunida.

Buyrakni tark etar qum ila toshlar,
Deydilar "al-amon"** Yaldo tunida.

Toshlarni yanchadi tarvuz sharbati,
Go‘yoki tegirmon Yaldo tunida.

Tarvuzga qo‘rqmayin pichoq solar do‘st,
Misoli qahramon Yaldo tunida.

Yaldo qorong‘ulik ustidan yorug‘likning, yovuzlik ustidan ezgulikning g‘alabasi kuni hisoblanadi. Qadim zardushtiylik etiqodida ham ezgulik kuchlari quyosh nuri va olov bilan, yovuzlik kuchlari esa tun va zulmat bilan gavdalanadi. Shuning uchun yaldo kechasida ig‘vo, g‘iybat, gina-qudrat qilishga mutlaqo yo‘l

* Ёқути аҳмар – қизил ёқут, бу ерда тарвузнинг қизил эти назарда тутиляпти.
** Ал-амон – омонлик беринг, қутқаринг, деб дод солиш.

qo‘yilmagan. Ahil-inoq ulfatlar kecha davomida iqtisodiy jihatdan qiynalgan oilalarga yordam qilish, to‘y va marakalarni tashkil etish haqida maslahatlashishgan. Yaldo kechasida keksalar, o‘rta yoshlilar va yoshlar alohida yig‘ilishib, suhbat qilishgan. Xotin-qizlar ham o‘z tengqurlari bilan ko‘ngil ochishgan. Ular g‘azalxonlik qilishgan, bahru-bayt aytib, mushoiralar o‘tkazishgan. Bu tun qissaxonlik, Hofizxonlik, Sadiyxonlik, Bedilxonlik, Rumiyxonliklar bilan o‘tkazilgan. Shuningdek, raqs tushishib, qo‘shiqlar xirgoyi qilishgan, dutor-doira chalib, o‘yin-kulguni qizitishgan. Mahalla choyxonalarida ham Yaldo kechasi o‘tkazilib, gap-to‘qma tashkil etilgan. Bunday gap-to‘kmalarga sayyoxlar, boshqa yurtdan kelgan musofirlar, olimu fozillar, shoiru qalandarlar qatnashgan. Kishilar ularning suhbatlaridan dunyoda ro‘y berayotgan yangiliklarni bilib olishgan. Xalq ashulachilari “Gulyoraxon-gulyora” kabi qo‘shiqlarni aytib, o‘yinga tushishgan. Beruniyning malumot berishicha, yaldo kechasida yoqilgan olovlarda yovvoyi hayvonlarni tashlash, alangalar ichiga parrandalarni uchirish va olov atrofida ichimliklar ichib, o‘yin kulgi qilish podshohlar marosimiga aylangan edi[2:269].

TAHLIL VA NATIJALAR

Yaldo kechasi hozirgacha eronliklar orasida alohida o‘rin tutadi. Ushbu uzoq tunni qarindoshlari va oila azolari davrasida juda quvnoq o‘tkazishadi. Ular Chor darvesh, Abulqosim Firdavsiy “Shohnoma”sini o‘qish, Hofiz Sheroziy devoni bilan fol ochish, doston va ertaklar aytish bilan tunni tongga ulashadi. Bundan tashqari, kitob mutolaasini odatga aylantirish uchun kimdir kitobni qo‘lga olganda, ko‘zni yumib turib, nimadir istab go‘yo niyat qilib, kitobni ochib ko‘rsatkich barmoqni biror baytga bosgan. Uning mag‘zini chaqishgan va ezgu niyat qilishgan. Bu anana hozirgacha eronliklar orasida saqlanib qolgan. Shuningdek, marosim ishtirokchilari yong‘oqni tanlab, uning ichi puch yoki to‘liq bo‘lgani bilan o‘z kelajaklarini bashorat etishgan.

Yaldo kechasi eng uzoq tun bo‘lgani uchun “Sevishganlar kechasi”, “Oshiqlar kechasi” ham deyilgan[12:459]. Yaldo kechasi sharq sheriyatida ham alohida takidlagan. Bu kecha oshiqlar o‘z yorlariga sovg‘a-salomlar, shirinliklar hadya etishgan. Buyuk fors shoiri Sadiy Sheroziy aytganidek:

“hanuz bo hama dardam umedi darmon ast,
Ki oxire buvad oxir shaboni yaldoro”.

tarjimasi: “shunchalik dardim ko‘p, ammo darmon umididaman, Zero, yaldo tuni ham oxir-oqibat tongga ulanadi”. Yoki yana bir joyda “yuzingga qarash – Navro‘z, sen bilan o‘tgan oxirgi kecha - Yaldo”, - deb takidlagan. Mumtoz sheriyatida bazan fors go‘zallarining sochlari Yaldo bilan qiyoslanadi va shoirni sehrlab qo‘yadi.

Qish faslining ushbu bayramini dehqon va chorvadorlar ham keng nishonlashgan. Bayram “inqilobi zimiston” (qish inqilobi) deb nomlangan. Ayni bu davrda dehqonchilik taqvimiga muvofiq chilla davriga to‘g‘ri keladi va yer uxlab, dam oladi. Yaxshi muzlab dam olgan yer, erta bahorda unumdor va serhosil bo‘ladi. Yetishtiriladigan hosil barakasi, chorvachilik rivoji ko‘p jihatdan chilla ob-havosiga bog‘liq. Zero, yomg‘ir – baraka, qor – rizq, demakdir. Kuzatuvlarga qaraganda, yurtimizda ayni shu pallada yog‘ingarchilik ko‘p bo‘lar ekan. Zero, shu kunlarda yoqqan qor dehqonlarimiz uchun ayni muddao. Chunki u kuzgi bug‘doy maysalari ustini ko‘rpadek qoplab, ekinni qahratonning izg‘irinlaridan asrarkan. Shudgor qilingan yerlarda qorning singuvchan suvlari nam saqlab, ozuqa vazifasini o‘taydi. Eng muhimi, qishlovchi zararkundalarga qiron keltiradi. Keksalarimiz duoga qo‘l ochganda bekorga “Qish qishday bo‘lsin” deyishmagan. Xalq etiqodida yaldo kechasi “Rizq va baraka” bo‘lib, Allohning izni bilan maloyikalar rizq va nasibalar taqsimlashar ekan.

Yaldo tunida birinchi qor yog‘sa, hamma bir biriga qor xatlar yozgan. Qishda birinchi qor yog‘ishini xalqimiz etibor bilan qarshilagan. Chunki bu tabiat hodisasi faslda keskin o‘zgarish ro‘y berishi va sovuq kunlar boshlanishidan darak beribgina qolmay, inson ruhiyatida ham muayyan evrilishlar mavsumini boshlab bergan. “Qor xatda” maktub mo‘ljallangan kishining oilasiga sog‘lik-omonlik, tinchlik-totuvlik va baraka tilangan[7:66]. Qorxatlarning birida shunday keltiriladi:

Hazonrez bog‘larda sovuq uvullar,
Qish elchisi sepib ketibdi shakar.
Yuzlari burishib, titraydi gullar,
Daraxtda chumchuqlar izillar sahar.
Yaproqlar yerbirin to‘kilar duv-duv,
Huddi mening ko‘nglim singari nisor.
Marjondek ilingan anor, xurmolar,
Shoxlarni quchoqlab, osilar zor-zor.
Archalar shoxida kibor va viqor,
Sumalak ko‘zida qator-qator yosh.
Kuzni kuzatmoqda bu birinchi qor,
Ko‘kda jilmayadi shashti past quyosh.
Qorxatimda tiladim omonlik-omon,
Qordan qog‘oz qildim, qalamim tuproq.
Odamzot yasharkan niyat-la har on,
Fasllar almashmog‘in ko‘ray deb ko‘proq.

Yaldo kechasini turli davr shoirlari, xususan, Xo‘jai Kirmoniy, Abid Zokoniy, Fayz Koshoniy, Vaxshi Vofqiy, Furug‘i Bastomiy, Amir Xusrav Dehlaviy, Iqbol

Lohuriy va boshqalar go‘zal misralar orqali tasvirlashgan. Masalan, Abdurahmon Jomiy:

Ey xush on otashi raxshanda k-az oinai subh,
Mebarat shulai on zangi shabi yaldoro

Tarjimasi:

Ey o‘shal porlovchi nurki, tong ko‘zgusi shulasi orqali yaldo kechasi zangi (g‘ubori)ni oladi.

XII asrda yashagan shoir Hoqoniy shunday deydi:

Gar on Kayxusrav ayvoni nur ast,
Charo Bejan shud andar chohi yaldo

Tarjimasi:

Gar o‘shal Kayxusrav nur ayvonidir,
Nega Bejan[1] yaldo qudug‘iga tushib qoldi.

Yoki yana tariflashicha,

Hama shabhoi g‘am obistani ro‘zi tarab ast,
Yusufi ro‘z ba chohi shabi Yaldo binand.

Tarjimasi:

G‘amgin kechalar ortidan faraxbaxsh kunlar keladi
Yusufga o‘xshash chiroyli kun Yaldo tunidan keyin keladi.

Shoir Hidoyat esa yilning uzun tunini go‘zal pariga qiyoslaydi:

Gar soli agar shabi est yaldo,
Dar yak mahi on sanam du yaldost.

Tarjimasi:

Gar yilda bir kecha yaldo bo‘lsa,
Sanamimning oy yuzida ikki yaldo bor.

Mazkur sherda shoir yaldoni yorining go‘zalligiga qiyoslagan. Yani yuzidagi ikki yanog‘ini yaldoga o‘xshatib, birmas ikkita ekanligi bilan zavqlanadi. Yaldo kelishini kutib turishim shartmas, u mening doim yonimda deb, o‘z yoriga ishora qiladi.

Forslarning shoiri Sadiy Sheroziy tariflashicha:

Nazar ba ro‘yi tu har bomdod Navro‘zest,
Shabi firoqi tu har shab, ki hast, Yaldoyest.

Tarjimasi:

Sening jamolingga tong otar payti nazar solish Navro‘zdir
Firoqing kechasi Yaldo kechasiday qora va uzundir.

[1] Бежан Афросиёбнинг Манижа исмли қизига уйланган куёви. Афросиёбнинг 2 қизи, 5 ўғли бўлган

https://fanlararotadqiqotlar.uz/ ISSN-L: 3093-9240

XVI asrning yirik shoiri Ubaydi Zokoniy buni o‘zgacha tasvirlaydi:

Bo zulfi tu qissa est moro mushkul,
Xamchun shabi yaldo ba darozi mashhur.

Tarjimasi:

Sening soching haqinda uzun bir qissa borkim,
Yaldo kechasining uzunligiday mashhur[13:634].

Ushbu misralarda suluvlarning qop-qora va uzun sochlari yaldoga qiyoslanadi. Sochning go‘zalligi, maftunkorligi sehrli yaldo tuniga o‘xshatiladi.

Bugungi kunda asosan Eron, Afg‘oniston, Tojikiston va Ozarbayjonda yaldo tuni bayram qilinadi. 2008 yildan buyon Yaldo tuni Eronning milliy bayram sifatida qabul qilingan. Tehron shahridagi Guliston saroy muzeyining Ayaz qasrida joylashgan Etnologiya muzeyida Yaldo kechasiga bag‘ishlangan alohida ekspozisiya mavjud **(1-rasm)**. Ekspozisiyada to‘kin dasturxon atrofida yaldoni nishonlab turgan eronliklar oilasi tasvirlangan[2].

2022 yilning 28 noyabr – 3 dekabr kunlari Marokkoning Rabot shahrida bo‘lib o‘tgan YuNESKOning 17-sessiyasida 48 ta yangi elementlar qatorida yaldo kechasi bilan bog‘liq qadriyatlar insoniyatning nomoddiy merosi ro‘yxatiga kiritilgan[11].

Yaldo tuni insonlarga qish qahratonlaridan saqlanish, unga tayyor va hushyor turishni o‘rgatgan. Tuni bilan yoqilgan gulxanlar, shamlar orqali havo haroratini yaxshilashga, zax va sovuq kunlardan sog‘-omon qutulishga ishonchni oshirgan. Inson tabiatning ajralmas bir bo‘lagi. Shunday ekan, tabiat injiqliklariga sabr qilish, uni yengish barobarida, u bilan kelishib, murosa qilishga majbur.

Avesto talimotiga ko‘ra ezgu niyat, ezgu so‘z, ezgu amal ustuvor ekan, yaldo tunida odamlar qora, chirkin niyatlarga yo‘l qo‘yilmay, shirin suhbatlar, yaxshi tilaklar orqali zulmat kechani charog‘on qilishga harakat qilishgan, dillarni xushnud qilish orqali tunni qalb quyoshi bilan yoritishgan, qalb harorati bilan isitishgan.

Fasllar almashinuvi, ob havoning o‘zgarib turishiga qarab taom tanovvul qilishni donishmand xalq o‘z tajribasida sinagan. Sharq tabobatidan yaxshi xabardor ekanligi ularni qishning sovuq kunlaridan sog‘-salomat chiqishiga yordam bergan. Foydali, vitaminlarga boy, shifobaxsh ichimliklar, quruq mevalar va tansiq taomlar tanovvuliga jiddiy etibor berilgan.

Yaldo kechasida tuni bilan o‘tkazilgan mushoiraxonliklar, qissaxonliklar, tarixdan qilingan ilmiy-marifiy suhbatlar marosim ishtirokchilari, ayniqsa, yosh

[2] Эроннинг Шахид Чамран университети тадқиқотчиси, бухоролик олим Ўктамали Равшановнинг мазкур музейдаги кузатувлари асосидаги маълумотлари.

avlodni qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, o‘tmishdan xabardosh qilishga xizmat qilgan.

Xalqimizning yaldo tuni va uning bilan bog‘liq qarashlari va etiqodlarini o‘rganish masalasi turli mutaxassislar – tarixchi, arxeolog, etnolog, tilshunos, folklorshunos, sanatshunos, astronomlardan hamjihatlikda va fanlararo yondashuv asosida keng tadqiq etishni talab etadi.



1-rasm.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ashirov A. “Avesto”dan meros marosimlar. – Toshkent: Abdulla Qodiriy, 2001. – B.16. (32)

2. Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. – Toshkent: Fan, 1968. – B.268. (488)

3. Davlatova S. O‘zbek ananaviy hunarmandchiligi tarixiy jarayonlar kontekstida (O‘zbekistonning janubiy hududlari misolida). – Toshkent: Yangi nashr, 2018. – B.277. (368)

4. Древнеиранский праздник "Ялда" отметили в КФУ (Казанский федералный университет)/ https://kpfu.ru/imoiv/prazdnik-noch-yalda-proshel-v-imo-442529.html 19 декабр 2023 г.

5. Долгая ночь. Сегодня отмечается праздник зимнего солнцестояния Шаби Ялдо // https://centrasia.org/newsA.php?st=1734803520.

6. Jumaniyozova F. Bugun Nardurg‘on kuni. U Eron va Turon xalqlarining qishki yangi yilini ifoda etgan // oyina.uz. 2024 yil 21 dekabr.

7. Jo‘rayev M. O‘zbek mavsumiy marosim folklori. – Toshkent: Fan, 2008. – B.66.

8. Yo‘ldoshev N. Hojatbaror Imom Abu Hafz Kabir Buxoriy. – Buxoro, 1994. – B.19. (31)

9. Manaviyat javohirlari. Rivoyat va asotirlar, muxammaslar, ruboiylar (to‘plovchi Muharrambegim Yusupova). – Buxoro: Durdona, 2014. – B.81.

10. Muhammad G‘iyosiddin. G‘iyos ul lug‘ot. Childi 2. (Tahiyai matn bo peshguftor, mulhaqot, tavzehot va fehristi Amon Nurov). – Dushanbe: Adib, 1988. – Cah.414. (416)

11. Новые элементы, включенные в списки Конвенции ЮНЕСКО по сохранению нематериального культурного наследия // https://unesco-iicas.org/ru/press-office/News. 02.12.2022.

12. Узбеки / отв. ред. З.Х. Арифханова, С.Н. Абашин, Д.А. Алимова; Ин-т этнологии и антропологии им. Н.Н.Миклухо-Маклая РАН; Ин-т истории АН Республики Узбекистан. – М.: Наука, 2011. – С.459. (688)

13. Farhangi zaboni tojiki (Tuzuvchi T.N.Zehniy va boshqalar). II qism. – Moskva: Sovetskaya ensiklopediya, 1969. – S.634 (967)

14. Firdavsiy A. Shohnoma: saylanma / nashrga tayyorlovchi H.Homidiy. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 2012. – 188 b

15. Homidov H. “Avesto” fayzlari. – Toshkent: Abdulla Qodiriy, 2001. – B.76. (96)

16. https://centrasia.org/newsA.php?st=1734803520 21.12.2024.

17. https://fa.wikipedia.org/wiki/

BUXORO MODDIY MADANIY MEROSINI MUZEYLASHTIRISHDA OBIDALARDAGI ASTRONOMIK BELGILARNING O‘RNI

Tuksanova Zilola
Buxoro davlat universiteti katta o‘qituvchisi

Annotasiya: Maqolada ochiq osmon ostidagi Buxoro memoriy obidalari qurilishi, memorchiligi, dekorasiyasi va bezak texnikalarida uchraydigan astronomik belgilar, ularning tasvirlanish sabablari, muzeylashtirishda ularning ahamiyati masalalari tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: quyosh burji, yulduzsimon, muqarnaslar, koshin, geometrik naqsh, oymanand yulduzlar saroyi

РОЛЬ АСТРОНОМИЧЕСКИХ СИМВОЛОВ НА ПАМЯТНИКАХ В МУЗЕЕФИКАЦИИ МАТЕРИАЛЬНОГО КУЛЬТУРНОГО НАСЛЕДИЯ БУХАРЫ

Аннотация: В статье анализируются астрономические знаки, обнаруженные в конструкции, архитектуре, отделке и декоративной технике памятников архитектуры под открытым небом Бухары, причины их изображения и значение в музейизации.

Ключевые слова: солярный знак, звездообразный, сталактит, кафел, геометрический узор, дворец луны и звезд

THE ROLE OF ASTRONOMICAL SYMBOLS ON MONUMENTS IN THE MUSEALIZATION OF BUKHARA’S TANGIBLE CULTURAL HERITAGE

Annotation: The article analyzes astronomical signs found in the design, architecture, decoration and decorative techniques of architectural monuments in the open air of Bukhara, the reasons for their depiction and significance in museumization.

Keywords: solar sign, star-shaped, stalactite, tile, geometric pattern, palace of the moon and stars

KIRISH

Buxoro vohasida bugungi kunda 829 ta madaniy meros obektlari saqlanib qolgan. Ularning orasida ilk o‘rta asrlarga taalluqlilari ham bor. Aksariyati so‘nggi o‘rta asrlarga mansub[2]. Obidalarning necha yuz yillardan butun bus butun holda yetib kelishining muhim sabablari nafaqat boy memorchilik tajribasi, qurilish materiallarining mustahkamligi, balki, ajdodlarimizning aniq fanlar, fizika,

matematika, astronomiya fanlarini yaxshi o‘zlashtirganidadir. Buxoro arxitektura yodgorliklarining boqiy yashab kelayotgani shubhasiz ularning osmon jismlari bilan bog‘liq holda barpo etilganidir.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

Shaharning eng qo‘hna imoratlaridan Arkning bunyod etilishi muarrix Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asarida bayon etilgan. Xususan, buxorxudot Bidun olimlarni yig‘ib, maslahatini olgandan so‘ng, katta Ayiq, osmondagi yetti qaroqchi yulduzlari shaklida, yettita tosh ustunda ustiga Arkni qayta quradi[5, 28-29].

XII asrda Qoraxoniylar sulolasidan Buxoro podshohi Arslonxon kelgusi avlodlarga saltanatidan mangu bir nishona qoldirish niyatida ajib bir inshoot bunyod etishga jazm etadi. Bu xayrli ishga barcha munajjim, memor va ustazodalarni jalb etib, ulardan imorat loyihalarini bir oy muhlat ichida topshirini buyuradi. Muddat tugagach, memor va muhandislar turli shakldagi masjid, madrasa, xonaqolarning loyiha chizmalarini hukmdorga taqdim etishadi. Lekin, unga birortasi ham maqul bo‘lmaydi. Faqatgina minora qurilishi loyihasi maqullangan. Ayni bunday baland inshootning boqiy turishini falakiyotshunos olimlar isbotlab berishgan.


XV asrda temuriyzoda Mirzo Ulug‘bek mamlakat hududida qurdirgan madrasalaridan birinchisi 1417 yilda Buxoroda qad ko‘taradi. Madrasaning arxitekturasi va uning bezatilishi diqqatga sazovordir, chunki binoning devorlari, ayvon va boshqa kismlari buyuk astronom-olim Ulug‘bekning chizmalari asosida koinotning sirli koshinlari bilan bezatilgan[3, 323-327]. Shuningdek, madrasa astral xarakterga ega bo‘lgan ornament (naqshlar) bilan bezatilgan bo‘lib, ular Ulug‘bekning astronom sifatida dunyoqarashini ifodalaydi. Birinchi qarashdayoq madrasa o‘zining ajoyib garmoniyasi bilan kishini mahliyo qiladi. Keyinroq Markaziy Osiyoda madrasalar ana shu nusxada qurila boshlanganligi ham tahsinga loyiq. Bundan tashqari madrasada diniy fanlar bilan birga, dunyoviy fanlar, xususan, falakiyot ilmi o‘qitilishiga alohida etibor qaratilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Buxoro shahridagi Kalon masjidining bugungi kunga qadar yetib kelishidagi sinoatlardan biri uning Quyosh burjiga qarab qurilganligidir. Koinot jismlari bilan hamohangligi uning bardavomligini taminlaganligiga shubha yo‘q. Kalon masjidi Xonai Kabaning asl, oldingi shakliga monanddir. Balki shuning uchun hamdir Olloh nazari tushgan zamin Kalon masjidining umri boqiy va bardavomdir.


XVI asr yodgorligi sanalgan Xo‘ja Zayniddin masjid xonaqosining balandligi 7 metrli ayvon shifti va tekis tomini 8 ta bezakli yog‘och ustunlar ko‘tarib turadi. Ustunlarning bari marmar tagkursilarga mustahkamlangan. Shift toqili, yulduzsimon 7 hovuzaklarga bo‘linib, handasiy naqshlar bilan jozibador bezatilgan. Sharqiy tomondagi markaziy qismida yulduzsimon hovzak ishlanib, muqarnasilar

bilan bezalgan. Yulduzsimon shakldagi hovzakning o‘n ikki burchagidan yirikroq yog‘och taxtachalardan bo‘rttirib ishlangan geometrik naqshlar tarqalgan. Hovzak yulduzsimon muqarnaslar yordamida bezalgan karniz bilan yakunlanib, yonlaridagi, nisbatan soddaroq bezalgan hovzakchalar bilan uyg‘unlashgan. Shimol tomondagi ayvon shiftining markazida esa o‘n qirrali yulduzsimon shakldagi hovzak joylashgan bo‘lib, yonlari sharafalar bilan bezalgan.




1-rasm.Xo‘ja Zayniddin masjid xonaqohi gumbazining ichki ko‘rinishi. XVI asr.

Ayvonning burchak qismi ham serhasham bezalib, yulduzsimon muqarnaslar bilan to‘ldirilgan ikkita olti qirrali hovzak ishlangan. Ayvonning devorlariga ganch ishlatilgan bo‘lib, oq rangli devor va ayvonning qoshinkorligi ustalarning yuksak mahoratidan darak. Bizgacha yetib kelgan ayvonnning xarili shift va tomi XVI asrga xos bo‘lgan yog‘och xarilar va tekis tomlar konstruksiyasining ajoyib namunasidir. Sharqiy tomondagi ikkita asosiy ustun yuzaroq o‘yma geometrik naqsh bilan bezalib, yuqori qismi madohil naqshli qosh bilan yakunlangan.



2-rasm. Mir Arab madrasasi miyonsaroyining gumbazi ko‘rinishi. XVI asr



3-rasm. Ko‘kaldosh madrasasi miyonsaroyi gumbazining ko‘rinishi. XVI asr.



5-rasm. Bolo hovuz masjidining yog‘och ayvoni shifti hovuzaklarilaridan biri. XX asr boshlari.

Masjidning salobati va hashamdorligining toji sanalgan gumbaz go‘zalligi har qanday insonni sehrlab qo‘shishi shubhasiz. Gumbazning pastki uchidagi aylana lenta bo‘ylab bitilgan eski yozuv va muqaddas bitiklar bejirim xattotlik ko‘rinishida. Xona gumbazi murakkab qalqonsimon bag‘allar yordamida asosiga tayangan,

gumbaz ichi 32 ga bo‘linib, ular hallangan mayda gullar bilan bezatilgan, gumbazning quyi qismi esa muqarnaslar qatori bilan hoshiyalangan. Gumbaz, taxmonlar, mehrob va g‘arbiy devordagi yozuvlar qatori kundal usulida bajarilgan. Gumbaz quyi atrofida ko‘kimtir naqshlar bo‘lsa-da, markazida uchiga intilayotgan o‘simliksimon naqshlar va gulbarglar guldastasi aks etgan. Chinni-oltin kosani eslatuvchi gumbazga diqqat bilan razm solarkansiz, bulutlar orasidan nur sochib, charaqlayotgan quyosh ko‘zga tashlanadi.

XULOSA

Buxoroning so‘nggi sulolasi – mang‘it amirlarining yozgi saroyining Sitorai Moxi Xossa deb atalishi ham bejizga emas. Yani, “oymanand yulduzlar saroyi”, “shohning ko‘nglidagi yulduz” manolarini ifodalaydi[4, 11]. Saroy xonalarining yog‘och, ganch, oynavand bezaklarida oy, yulduz tasvirlari ko‘p uchraydi.

1914-1915 yillarda barpo etilgan Amir Olimxon madrasasi ham puxta bilim berilib, shuningdek, zamonasining zukko olimu fuzalolari yig‘ilganki[1, 44], amir ushbu maskanni akademiyaga aylantirishni niyat qilgan. Yirik ilmiy muassasaning ayni shaharning bosh markazi, Minorai Kalon yonidan tanlangani ham bejizga emas albatta. Balkim, Amir Olimxon ilmu nujum – falakiyot ilmini minora orqali tadqiq etishni ham niyat qilgandir.

Buxoro tarixiy obidalarida astronomik belgilar va osmon jismlari tasvirining aks etishi ajdodlarimizning falakiyot ilmini puxta egallagani, mohir munajjimlar bo‘lib yetishganidan darak. Makur omil sababidan ham yodgorliklar asrlar osha boqiy yashayveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Алъмеев Р.В. Медресе Амира Алимхан-хана в Бухаре // Древнее наследие Бухары: сборник научных и научно-познавательных статей. – Бухара: Дурдона, 2016. – С. 44.
2. Bobojonov S. Sharif shahar yodgorliklari. – 2017.
3. Bobojonov Sh.U. Mirzo Ulug‘bek qurdirgan birinchi madrasa // Science and Innovation. – 2024. – Vol. 3, Special Issue 3. – B. 323–327.
4. Jumayev Q. Sitorai Mohi Xossa. – Buxoro, 2010. – B. 11.
5. Narshaxiy M. Buxoro tarixi. – Toshkent: Sharq bayozi, 1993. – B. 28–29.

QORAQALPOQ, TURKMAN VA INGLIZ ERTAKLARIDA OBRAZLI NUTQNING MILLIY MODELLARI: FRAZEOLOGIZM, RANG VA MAISHIY TIMSOLLAR

Jepbarova Sayat Kurbanmiratovna
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Annotatsiya. Maqolada qoraqalpoq, turkman va ingliz xalq ertaklaridagi obrazli nutqning milliy xususiyatlari frazeologizmlar, rang bildiruvchi sifatlashlar, maishiy timsollar, kinoya, mubolag‘a va tovush tasviri asosida tahlil qilindi. Obrazli nutq har bir xalqning kundalik turmushi, xo‘jalik tajribasi va axloqiy qarashlari bilan bog‘liqligi asoslandi.

Kalit so‘zlar: obrazli nutq, frazeologizm, sifatlash, rang, maishiy timsol, kinoya, mubolag‘a, tovushga taqlid, milliy poetika.

НАЦИОНАЛЬНЫЕ МОДЕЛИ ОБРАЗНОЙ РЕЧИ В КАРАКАЛПАКСКИХ, ТУРКМЕНСКИХ И АНГЛИЙСКИХ СКАЗКАХ: ФРАЗЕОЛОГИЗМЫ, ЦВЕТ И БЫТОВЫЕ СИМВОЛЫ

Аннотация. В статье анализируются национальные особенности образной речи в каракалпакских, туркменских и английских народных сказках на основе фразеологизмов, цветовых эпитетов, бытовых символов, иронии, гиперболы и звукописи. Обосновывается взаимосвязь образной речи с повседневным бытом, хозяйственным опытом и нравственными представлениями каждого народа.

Ключевые слова: образная речь, фразеологизм, эпитет, цвет, бытовой символ, ирония, гипербола, звукоподражание, национальная поэтика.

NATIONAL MODELS OF FIGURATIVE LANGUAGE IN KARAKALPAK, TURKMEN, AND ENGLISH FOLK TALES: PHRASEOLOGICAL UNITS, COLOR, AND EVERYDAY SYMBOLS

Abstract. The article analyzes the national characteristics of figurative language in Karakalpak, Turkmen, and English folk tales through phraseological units, color epithets, everyday symbols, irony, hyperbole, and sound imagery. It substantiates the relationship between figurative language and the everyday life, economic experience, and moral values of each nation.

Keywords: figurative language, phraseological unit, epithet, color, everyday symbol, irony, hyperbole, sound imitation, national poetics.

KIRISH

Frazeologizm, o‘xshatish, sifatlash va mubolag‘a ertak voqeasini ta’sirchan bayon qilish vositalaridir. Biroq ularning vazifasi matnni tashqi jihatdan bezash bilan cheklanmaydi. Obrazli ibora qahramonning ruhiy holatini bir necha so‘zda ifodalaydi, maishiy narsa axloqiy timsolga aylanadi, rang esa personajning g‘ayrioddiy tabiatini belgilaydi. Olim Chitra Fernando frazeologik birliklarning ma’nosi ular tarkibidagi so‘zlarni alohida talqin qilish orqali to‘liq ochilmasligini ta’kidlaydi [1, 3–35-b.]. Masalan, «tovonini ko‘tarmoq» birikmasi muayyan matnda oyoq harakatini emas, tez qochishni anglatishi mumkin.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

Olim J. Lakoff va M. Jonson ko‘chma ma’noli ifodalar faqat she’riy bezak emas, balki insonning voqelikni tushunish usuli ekanini ko‘rsatadi [2, 3–13-b.]. Inson qo‘rquv, muhabbat, kuch va vaqt kabi mavhum tushunchalarni tana, ovqat, yo‘l, issiqlik va sovuqlik obrazlari orqali ifodalaydi. Maqolaning maqsadi uch xalq ertaklarida obrazli nutqning qanday milliy manbalarga tayanishi va personaj hamda voqeaga berilgan bahoni qay tarzda shakllantirishini aniqlashdan iborat. Qaraqalpoq folkloridagi «Көk qoshqar həm qızalaq» ertagida qo‘chqor doimiy ravishda «kөk qoshqar» deb ataladi [3, 392–393-b.]. Kөk sifatlashi qahramonni oddiy podadagi hayvonlardan ajratib, uning g‘aroyib tabiatini oldindan belgilaydi.

Ertakda oq kuchuk obrazi ham mavjud. Ko‘k qo‘chqor yetim qizga, oq kuchuk esa o‘gay onaga tegishli. Bu yerda ranglar tayyor «oq–yaxshi, qora–yomon» qolipi asosida ishlamaydi. Oq kuchuk ijobiy kuchga emas, o‘gay ona muhitiga bog‘langan. Demak, rang ma’nosi uning o‘zi bilan emas, personajlar tizimidagi o‘rni bilan belgilanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Qahramonning «qizalaq» deb atalishi kichraytirish va erkalash ma’nosini beradi. Ushbu nom qizning ijtimoiy himoyasizligi va yoshligini kuchaytiradi. «Qizaloq» so‘zi bilan o‘gay onaning qattiq muomalasi o‘rtasidagi farq tinglovchi hamdardligini shakllantiradi. Qo‘chqor shoxi mo‘jizaviy farovonlik manbaiga aylangan. Qiz shoxni urganda ovqat va kiyim paydo bo‘ladi [3, 392-b.]. Shox chorvachilik muhitiga tegishli real narsa, ammo ertakda himoya va rizq timsoli darajasiga ko‘tariladi. Junning qo‘chqor tanasidan tayyor ip holatida chiqishi ham chorvachilik va to‘qimachilik tajribasining fantastik qayta ishlanishidir. Real hayotda junni tozalash, tarash va yigirish uzoq mehnat talab qiladi. Ertak esa mazkur jarayonni bir mo‘jizaviy harakatga qisqartiradi. Qiz haqidagi: «Kүnnen kүnge qız өzin aladы» [3, 392-b.], —gapida өzin alыo‘ «o‘ziga kelish, sog‘lomlashish, kuch to‘plash» ma’nosidagi frazeologizmdir. Uning lug‘aviy tarkibida «o‘zini olish» ma’nosi mavjud bo‘lsa-da, matnda qahramonning jismoniy tiklanishi anglatiladi. O‘gay ona ko‘k qo‘chqorning: «kөzin joyыo‘dы oylaydы» [3, 392-b.]. Kөzin

joyыo‘ so‘zma-so‘z «ko‘zini yo‘qotish» emas, balki birovni butunlay yo‘q qilish ma’nosidagi turg‘un birikmadir. Ko‘z obrazi mavjudlik bilan bog‘lanib, «ko‘zni yo‘qotish» hayotni yo‘q qilish ma’nosiga ko‘chgan. Ertak yakunidagi bog‘, mevalar, oziq-ovqat va yaxshi kiyimlar qahramonning avvalgi holatiga qarama-qarshi qo‘yiladi. Ochlik–ovqat, yalang‘ochlik–kiyim, tazyiq–obod turmush qarama-qarshiligi syujetning axloqiy natijasini predmetlar orqali ifodalaydi.

Turkman folkloridagi «Aldarköse, döw hem tilki» ertagi frazeologik birikmalarga boy. Ularning katta qismi inson tanasi va jismoniy harakat obrazlariga asoslangan. Dev Aldarköseni tirik ko‘rgach: «aňka-taňka bolupdyr» [4, 12-b.]. Bu birikma qattiq hayratga tushish va voqeani aql bilan tushuntirolmay qolishni ifodalaydi. Juft shakldagi aňka-taňka so‘zlari tovush yaqinligi tufayli personajning sarosimasini ohangdor tarzda yetkazadi. Dev qahramondan qutulishni o‘ylab: «muny basymrak başdan sowaýyn» [4, 12-b.], —deydi. Başdan sowmak — «boshidan chetlatish», ya’ni birovdan qutulish ma’nosida. Muammo go‘yo insonning boshi ustida turgan yuk sifatida tasavvur qilingan. Dev Aldarkösening xotini gapini eshitgach: «ökjäni göteŕär» [4, 13-b.]. Ökjäni götermek so‘zma-so‘z «tovonni ko‘tarmoq», ko‘chma ma’noda «tez qochmoq» demakdir. Frazeologizm devning katta gavdasiga qaramay, qo‘rqoqlarcha qochishini kulgili ifodalaydi. Qaytib kelgan dev: «gözüniň ody alnan» [4, 14-b.], — holatda tasvirlanadi. «Ko‘zining o‘ti olingan» iborasi personajning jasorati sindirilgani va qattiq qo‘rqitilganini anglatadi. Ko‘zdagi «o‘t» jasorat va hayotiy kuch ramzi, uning so‘nishi esa ruhiy mag‘lubiyatdir.

Mazkur frazeologizmlar devning jismoniy qudrati bilan ichki zaifligi o‘rtasidagi farqni ko‘rsatadi. U tog‘ bo‘lagini ko‘tara oladi, ammo o‘z tasavvurida yaratilgan xavfdan qochadi. Dev Aldarköse yotgan deb o‘ylagan to‘shak ustiga tog‘ning katta bo‘lagini tashlaydi [4, 12-b.]. Bu voqea dev kuchining fantastik mubolag‘asidir. Lekin Aldarköse tirik qolib: «Gije meniň üstüme näme ýapdyň? Goýmadyk bolsaň sowukdan ýaňa üşäp heläk boljak ekenim» [4, 12-b.], — deydi. U qotillik uchun tashlangan tog‘ bo‘lagini sovuqdan asraydigan yopinchiq sifatida talqin qiladi. Kinoya aynan miqyoslar nomuvofiqligiga asoslangan: ulkan tosh «ko‘rpa», o‘lim xavfi esa «g‘amxo‘rlik» sifatida ko‘rsatiladi. Ushbu gap dev ongidagi tasavvurni o‘zgartiradi. U Aldarköseni shunchaki hiylakor emas, tog‘ bosimiga ham chidaydigan g‘ayrioddiy kuch egasi deb qabul qiladi. Demak, kinoya tinglovchi uchun kulgi, dev uchun esa haqiqatdek ta’sir qiladi. Dev oltin to‘la xumni ko‘tarib: «loňkuldap» [4, 13-b.], —Aldarköse ortidan yuradi. Ushbu taqlidiy so‘z og‘ir qadamning past va qattiq tovushini ifodalaydi. Devning hajmi batafsil tasvirlanmasa ham, qadam tovushi orqali uning ulkan gavdasi his qilinadi. Aldarkösening: «Ha-haýt!» [4, 14-b.], degan baqirig‘i masofadan chaqirish va

tahdidni anglatadi. Dev so‘z mazmunini tekshirishga ulgurmay, uning baland ohangidan ta’sirlanadi.

Shu tariqa tovush personaj xatti-harakatini o‘zgartiruvchi badiiy kuchga aylanadi. Tulkining gyk-wagy — baqir-chaqirig‘i, devning loňkuldap yurishi va Aldarkösening ha-haýt undovi matnda eshitiladigan harakat muhitini yaratadi. Ingliz folkloridagi «Cap o’ Rushes» ertagida asosiy obraz: “I love you as fresh meat loves salt” [5, 52-b.], — o‘xshatishida ifodalangan. Yangi go‘sht uchun tuz tashqi bezak emas, uni iste’molga yaroqli va mazali qiladigan zarur moddadir. Qiz otasini dabdabali boylik yoki butun dunyoga emas, kundalik hayot uchun zarur tuzga qiyoslaydi. Ota ushbu o‘xshatishning amaliy mazmunini tushunmaydi. U tuzni oddiy va arzon narsa sifatida qabul qilib, qizning muhabbatini kamsitish deb o‘ylaydi. Ertak yakunida to‘y taomlari tuzsiz tayyorlanganda, go‘shtni yeyish mumkin bo‘lmay qoladi. Shunda ota: “And now I see she loved me best of all” [5, 56-b.], — deydi. Poetik o‘xshatish amaliy tajriba orqali isbotlanadi. Tuz mavhum muhabbatni tushuntiruvchi maishiy timsolga aylanadi. Uning qadri tashqi ko‘rinishida emas, hayotdagi zarurligida ochiladi. Qiz botqoqlikda qamishdan boshdan-oyoq yopadigan kiyim tayyorlaydi. Shu sababli unga Cap o’ Rushes — «Qamish qalpoq» deb nom qo‘yiladi [5, 52-b.]. Qamish kiyim qahramonning haqiqiy ismi, go‘zal libosi va ijtimoiy kelib chiqishini yashiradi. U oddiy xizmatkor qiyofasiga kiradi. Biroq raqsga borganda qamish kiyimni yechib, o‘zining go‘zal liboslarini namoyon qiladi. Shu tariqa ertakda ikki tashqi qiyofa qarama-qarshi qo‘yiladi: qamish kiyim – go‘zal libos; xizmatkor – boy xonadon qizi; yashirin qiyofa – haqiqiy shaxs.

Qamish qahramonni kamsituvchi narsa emas. U xavfsizlik va mustaqil harakat qilish imkonini beradigan himoya vositasidir. Ota qizni uydan haydaganda: “shut the door in her face” [5, 52-b.], — ifodasi qo‘llanadi. U eshikni jismonan yopish bilan birga, qizni oila a’zosi sifatida qat’iy rad etishni anglatadi. Qahramon yo‘lda: “went away on and on” [5, 52-b.]. On and on birikmasi harakatning uzoq davom etganini bildiradi. Aniq masofa aytilmagan bo‘lsa-da, takror qizning otasi uyidan ancha uzoqlashganini his qildiradi. Yigit qizni: “the minute he set eyes on her” [5, 53-b.], — ko‘rishi bilan sevib qoladi. Set eyes on — birinchi marta ko‘rish ma’nosidagi turg‘un birikma. Keyin yigit: “never took his eyes off her” [5, 53–54-b.]. «Ko‘zini uzmaslik» kuchli qiziqish va hayratni ifodalaydi. Qoraqalpoq va turkman ertaklarida bo‘lgani kabi, ingliz matnida ham ko‘z obrazi insonning ruhiy holatini ifodalovchi vositaga aylangan. Yigit dying for the love of the lady — «qiz muhabbatidan o‘layotgan» holda tasvirlanadi [5, 54-b.]. Bu haqiqiy o‘lim emas, ishqiy iztirobni kuchaytiruvchi mubolag‘ali iboradir.

Ertakda adabiy ingliz tili me’yoridan farqlanadigan:

better nor all the world;
I haven’t nowhere to go;
offed with her cap o’ rushes;
you should ha’ been there

kabi shakllar uchraydi [5, 52–54-b.]. Ular matnning grammatik nuqsoni emas, ertak aytilgan hudud va ijrochi nutqini saqlovchi belgilar hisoblanadi. Agar bunday shakllar adabiy tilga to‘liq moslashtirilsa, matn mazmuni saqlanishi mumkin, ammo uning mahalliy ovozi va ijroviy tabiiyligi susayadi. Uch ertakda obrazli nutq turli milliy tajribaga tayanadi: qoraqalpoq folkloridagi ertakda chorva, qo‘chqor shoxi, jun, ip, ovqat va kiyim; turkman folkloridagi ertakda tana a’zolari, tog‘, qadam tovushi va qochish harakati; ingliz folkloridagi ertakda tuz, go‘sht, qamish kiyim, uzuk va maishiy taomlar. Frazeologizmlarda inson tanasi bilan bog‘liq umumiylik mavjud. Qoraqalpoqcha өzin alыo‘, turkmancha gözüniň ody alynmak, inglizcha never take one’s eyes off ifodalari insonning jismoniy a’zosi orqali uning ruhiy yoki ijtimoiy holatini anglatadi. Biroq yetakchi estetik yo‘nalishlar farq qiladi: qoraqalpoq folkloridagi ertakda obrazli nutq mo‘jizaviy rizq va himoyani; turkman folkloridagi ertakda aql bilan kuch o‘rtasidagi kulgili zidlikni; ingliz folkloridagi ertakda oddiy maishiy narsaning yashirin qadrini ochadi.

XULOSA

Qiyosiy tahlillardan kelib chiqib, obrazli nutq har bir xalqning turmush tajribasi va milliy baholash mezonlari bilan bog‘liq ekanini ko‘rsatdi. Qoraqalpoq folkloridagi ertakda ko‘k qo‘chqor, uning shoxi va juni chorvachilik muhitidagi mo‘jizaviy homiylikni ifodalaydi. Turkman folkloridagi ertakda tana a’zolariga asoslangan frazeologizmlar, kinoya va tovushga taqlid jismoniy kuchning aql oldida ojizligini kulgili tarzda ochadi. Ingliz folkloridagi ertakda tuz va qamish kabi oddiy narsalar muhabbat, zarurat, tashqi niqob va haqiqiy qadr timsollariga aylanadi Umuman olganda, frazeologizm, rang, maishiy narsa va tovush tasviri ertak tilining qo‘shimcha bezagi emas. Ular qahramonning ichki holatini ochuvchi, xalq turmushini matnga olib kiruvchi va voqeaning axloqiy natijasini belgilab beruvchi asosiy poetik vositalardir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. C. Fernando, Idioms and Idiomaticity. Oxford, UK: Oxford University Press, 1996, pp. 3–35.

2. G. Lakoff and M. Johnson, Metaphors We Live By. Chicago, IL, USA: University of Chicago Press, 1980, pp. 3–13.

3. Qaraqalpaq folklorы. 72-tom: Balalar yertekleri. Nөkis: Ilim, 2014, 392–393-b.

4. Ş. Geldiýewa. Türkmen halk ertekileri: Jadyly ertekiler. Aşgabat: Miras, 2006, 10–14-b.

5. J. Jacobs, “Cap o’ Rushes,” in English Fairy Tales. London, UK: David Nutt, 1890, pp. 51–56.

6. J. M. Foley, How to Read an Oral Poem. Urbana, IL, USA: University of Illinois Press, 2002, pp. 109–136.

INGLIZ VA QORAQALPOQ TILLARIDAGI ONIM KOMPONENTLI FRAZEOLOGIZMLARNING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI

Koyshekenova Tatyana Kenesarievna
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti
Ingliz tili va adabiyoti kafedrasi katta o‘qituvchisi
e-mail: tanya-68@mail.ru

